

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

---

**G‘.H.HUSANOV** , M.L.TURSUNXODJAYEV, A.R.BAKIYEV

# **MOLIYAVIY MENEJMENT**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi  
tomonidan oliy ta‘lim muassasalari uchun o‘quv  
qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

«Voriz nashriyot» MChJ  
TOSHKENT — 2006

Taqrizchilar: i.f.d., professor. **D.R. Said-Jalolov.**,  
i.f.n., dotsent **Sh.F. Zaparxo‘jayev.**

Ushbu o‘quv qo‘llanmada bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy menejmentning maqsadi, mohiyati va roli hamda moliyaviy menejment hisobotlarida foydalanish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘rsatkichlar va koeffitsiyentlar orqali korxonalar, firma, tashkilotlar, kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini aniqlash usullari ko‘rsatilgan.

O‘quv qo‘llanmada moliyaviy va investitsion -innovatsion loyihalarni tayyorlashda, ularni baholash jarayonlarida va strategik rejalashtirish dasturini ishlab chiqishda to‘g‘ri moliyaviy qarorlar qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar hamda korxonalar, xo‘jaliklar pul oqimi va qimmatli qog‘ozlar bozorini boshqarish, cheklangan portfel asosida bank ishini modellashtirish bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan va maslahatlar byerilgan. Undan tashqari talabalar amaliy bilimlarini takomillashtirish maqsadida aniq masalalarni yechish va modellashtirish usullari ko‘rsatilgan.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti va namu-naviy dastur asosida tayyorlangan.

---

---

## SO'Z BOSHI

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan O'zbekiston iqtisodiyotida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'layapti. Bu, o'z navbatida, boshqaruvning oldingi uslublaridan tubdan farq qiladigan uslublarni taqozo etsa, bir vaqtning o'zida, xuddi shu narsaning o'zi yangi toifadagi mutaxassislarning bo'lishini ham talab qiladi. Hozirgi sharoitda bunday yangi toifadagi mutaxassislar chuqur va keng qamrovli bilimlarga ega bo'lishlari, o'zlari tanlagan mutaxassisliklarning kasbiy sirlarini a'lo darajada mushohada eta olishlari, puxta o'ylangan va har taraflama asoslangan qarorlarni qabul qilishga qodir bo'lishlari lozim.

Nozik va o'ta murakkab soha hisoblangan moliya sohasida faoliyat ko'rsatishni orzu qilgan shaxslarga nisbatan bozor iqtisodiyoti sharoitida juda yuqori talablarning qo'yilishi, tabiiydir. Moliyaviy munosabatlar tizimini (makro va mikro darajada) muvaffaqiyatli boshqarish uchun moliyachi-mutaxassis o'zi tanlagan soha faoliyatini yaxshi talqin qila olishi, uning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur idrok eta olishi va nihoyat, xo'jalik yuritishning eng samarali darajasiga erishish uchun moliyaviy vosita va stimullardan oqilona foydalana olishni bilishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitiga yaxshi moslasha oladigan va bilimdon mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarining ahamiyati oshib bormoqda. Negaki, ular o'quvchini moliyaviy va tijoriy faoliyatning sirlari, moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning tamoyillari va ulardan amaliyotda foydalanishning xilma-xil shakl hamda uslublari bilan tanishtiradi. Shu munosabat bilan mamlakatimiz iqtisodiyotiga bozor munosabatlari shiddat bilan kirib kelib va shunga mos ravishda rivojlanayotgan bir paytda zamonaviy talablarga javob bera oladigan darslik yoki o'quv qo'llanmalariga bo'lgan talabning kuchayganligi tasodifiy emasdir. Bu, ayniqsa, moliyaviy yo'nalishdagi o'zbek tilidagi adabiyotlarga tegishlidir.

Buning boisi yana shundaki, o'zbekistonlik o'quvchi sobiq ittifoq davrida o'z ona tilida birorta ham moliyaviy yo'nalishdagi darslik va o'quv qo'llanmasidan bahramand bo'la olmadi. O'zbek olimlari moliyaviy sohaga doir moliya, kredit, pul muomalasi va hokazolar bo'yicha o'z kitoblarini rus tilida yozib, ma'ruzalarni ham auditoriyada o'zbek yigit-qizlari o'tirgan bo'lishiga qaramasdan o'zga tilda o'qishga majbur bo'ldilar. O'zbek tiliga davlat maqomi byerilganligiga o'n olti yil bo'lganligiga qaramasdan hanuzgacha bu sohada birorta ham o'zbek tilida darslik yoki o'quv qo'llanmasi nashr etilmadi.

E'tiboringizga havola etilayotgan moliyaviy menejmentga bag'ishlangan, ilk o'zbek tilidagi o'quv qo'llanma o'n besh bobdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yuritish falsafasi tubdan o'zgardi. Endilikda u xarajatli psixologayaga asoslanmasdan, balki talab va taklifning real tahliliga asoslanadi. Adolat tushunchasi ham bunday sharoitda butunlay boshqacha talqin qilinib, endilikda u moddiy va boshqa resurslarni bir tekis taqsimlashni emas, balki mehnat natijalariga qarab taqsimlanishini anglatadi. Bozor iqtisodiyotida barcha boshqaruv qarorlariga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi tavakkalchilik omilining ahamiyati kuchayadi.

Ana shularni e'tiborga olgan holda kitobning dastlabki bobida mualliflar o'z diqqat e'tiborlarini qiymatning nomarksistik nazariyasi bo'lgan marjinalizmga (ishlab chiqarish omillarining cheklangan foydaliligi va cheklangan unumdorligi nazariyasi) va bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida ahamiyat kasb etuvchi moliyaviy qaror qabul qilish asoslariga qaratishdi. Bu yerda, dastlab, baho siyosatini ishlab chiqish bilan bog'liq muammolar va bu muammolarni hal etishda inobatga olinishi lozim bo'lgan omillar ustida to'xtalib o'tilgan, ishbilarmonlik tavakkallari va ularni pasaytirish uslublari to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan, investitsion qaror qabul qilishning mezonlari, diskontlashtirish va moliyaviy menejmentning asosiy ko'rsatikichlariga tegishli fikrlar bayon etilgan. Bu masalalarni to'la o'zlashtirib olmasdan turib bozor iqtisodiyotining afzalligini, uning mohiyatini va tijoratning moliyaviy mexanizmini tushunish qiyin bo'ladi.

Kitobning navbatdagi ikki bobi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt-larning-moliyaviy-ekspluatatsion ehtiyojlari va qarziy mablag‘larni jalb etish siyosatiga bag‘ishlangan. Bu o‘rinda o‘quvchiga unchalik tanish bo‘lmagan moliyaviy richag samarasi, qarz olishning oqilona siyosati va bank tanlash mezonlari kabi masalalarga alohida e‘tibor berilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt maksimum foyda olishni maqsad qilib faoliyat ko‘rsatganligi uchun mazkur kitobning to‘rtinchi va beshinchi boblarida xarajatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirish, korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining tahlili, foydaning taqsimoti, dividend va ishlab chiqarishni rivojlantirishning oqilona siyosati kabi masalalar o‘rin olgan. Shuningdek, ishlab chiqarish richagi samarasi, moliyaviy barqaror zahirasi, moliyaviy strategiya matritsalarini, to‘lovga qobillik va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga tavsifnomalar ham o‘z aksini topgan.

Kitobning so‘nggi boblari moliyalashtirish va kreditlashtirishning mamlakatimizda ilgari qo‘llanilmagan yangi zamonaviy shakllari bo‘lgan faktoring, lizing va qimmatli qog‘ozlar bozoriga bag‘ishlangandir.

Kitobni yozish jarayonida mualliflar xalqaro miqyosda keng qo‘llanilib kelayotgan ayrim atama va iboralarni o‘z holicha qoldirishga qaror qilishdi. Masalaga bunday yondoshish, bir tomondan, o‘z ona tilimizni ma‘lum ma‘noda boyitsa, ikkinchi tomondan — bu narsa sivilizatsiyalashgan ko‘p asrli bozor tarixiga ega bo‘lgan va xorijiy mamlakatlarda mavjud bo‘lgan jahon tajribasidan bahramand bo‘lish imkonini beradi.

Sizga taqdim etilayotgan ushbu kitob moliyaviy menejment masalalariga bag‘ishlangan o‘zbek tilida yozilgan ilk ilmiy urinish hisoblanadi. Mualliflar kitobning sifatini oshirishga xizmat qiluvchi barcha taklif va mulohazalarni chuqur minnatdorlik bilan qabul qiladilar.

Ushbu o‘quv qo‘llanmani tayyorlash jarayonida katta xizmat qilgan „Menejmet“ kafedrasining xodimi Nafisa O‘Imasovna Xalilovaga mualliflar o‘z minnatdorliklarini bildiradilar.

Moliyaviy menejment korxonada va xo'jalik sub'ektlari o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishda zarur bo'lgan muhim metodlar majmuidan foydalanish imkonini beradi.

Asosiysi — shu maqsadga to'g'ri keladigan usulni tanlash va uni amaliyotda qo'llay bilishdan iboratdir.

Bu kursning vazifasi — foyda va daromadlarni maksimal- lashtirib borishda qo'llanadigan usul va uslublardan foydalanib ish yuritishda moliyaviy menejmentning asoslarini to'g'ri belgil- ab berishdan iborat bo'lib, birinchidan, o'quvchilarni faqatgina O'zbekiston Respublikasi amaliyoti asosida o'qitish zarurligi bo'lsa, ikkinchidan moliyaviy menejment o'quv-qo'llanmasida tegishli masalalar va yechiladigan misollar yetarli bo'lishi kerak, chunki ularsiz o'zlashtirilgan bilimni mustahkamlash qiyin.

### ***Mustaqil o'rganish uchun savollar***

1. Moliyaviy menejmentning fan sifatidagi maqsadi va vazifalari.
2. Moliyaviy menejment fanining predmeti va metodlari.
3. Xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy holatlarini tahlil qilish usullari.
4. Moliyaviy menejment fanini o'quv rejasiga kiritish masalalari yuzasidan olim va amaliyotchilarning fikrlari.

---

---

## **2-BOB. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy menejmentning mohiyati va roli.**

### **Moliyaviy menejment tizimida moliyaviy hisobot**

Bozor iqtisodiyoti — bu ishlab chiqaruvchining taklifi va iste'molchining talabi asosida, mahsulotning oldi-sotdisi orqali vujudga keladigan munosabatga mos kelgan sharoitdir. Bunda har bir ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'zining iqtisodiy manfaatlariga ega bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

— tashqi omillar oldida ishlab chiqaruvchilarning (sotuvchilar) va iste'molchilar (xaridorlar)ning teng huquqliligi;

— talab va taklifni balanslashtirilganligi asosida narxlarning muvozanatga kelishi (foiz me'yori, kurslar);

— bozor munosabatlari sub'ektlarining (ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, dallollar va xaridorlar) erkin harakatini nazorat qilish;

— iqtisodiyotni tartibga solishda huquqiy qonunlarni qo'llash;

— raqobat muhitini va sharoitini yaratish.

Bozor munosabatlarning asl ma'nosi va sharti shundan iboratki, ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar faoliyati mutloq erkinlik asosida amalga oshirilishi zarur.

Hozirgi davrda tadbirkorlik sub'ektlarining rahbarlari va xodimlari moliyaviy menejment jarayoni shakllanayotgan bir sharoitda hisob va hisobotni qat'iy olib borishlari va uning asosida moliyaviy menejmentning takomillashgan mexanizmi va turli vositalaridan keng foydalanishlari kyerak. Jumladan moliyaviy hisobotni olib borishda uning quyidagi asosiy konsepsiyalariga amal qilish zarur:

— pulning davriy qiymatini hisobga olish va baholash konsepsiyasi;

— inflyatsiya va tavakkalchilik omillarini hisobga olish konsepsiyasi;

— likvidlik konsepsiyasi va boshqalar.

Moliyaviy hisobot — bu korxonaning ahvoli va faoliyati haqida foydalanuvchilarga tegishli axborot berish va uning moliyaviy ahvolini kamida bir yildagi (oylar va choraklar) o'zgarishini ko'rsatishdir.

Rejali iqtisodiyot sharoitida buxgaltyeriya hisobining asosiy vazifasi axborotlarni davlat boshqaruv organlari uchun tayyorlab berish va uni taqdim etish bo'lsa, hozirgi paytda bu ishlar talab va taklif asosida amalga oshirilmoqda.

Bu borada buxgaltyeriya hisobi va hisobotidan quyidagi ko'rsatkichlar va majburiyatlar talab qilinadi:

- ishlab chiqarishning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari;
- budjetga to'lanadigan ajratmalarning foizlari va boshqalar.

Korxonalar bergan moliyaviy hisobotlari asosida davlat organlari tomonidan ixchamlashtiriladi va ularni yanada rivojlantirish uchun tegishli qarorlar qabul qilinadi. Buning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkning hajmi oshadi va tuzilmasi takomillashadi. Natijada korxonalar faoliyati bilan qiziqadigan va ish yuritadigan mulkdorlar soni ko'payadi.

Undan tashqari korxonalar o'zining raqiblari ustidan g'olib bo'lishiga va yaxshi moliyaviy natijalarga ega bo'lishiga yordam beradigan boshqaruv yechimlarini izlashga majbur bo'ladi. Shu tufayli u bozor kon'yukturasini chuqur, har tomonlama mukammal o'rganadi, o'zining faoliyatini mustaqil tarzda rejalashtiradi hamda tovar ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) va iste'molchilarni izlab topib sotiladigan (sotib olinadigan) mahsulotlarning narxini belgilaydi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar va tashkilotlarni davlat budjeti bilan moliyalash va kreditlash yildan-yilga murakkablashib borishi sababli ular uchun asosiy moliyaviy resurs manbai bo'lmay qoldi.

Shuning uchun korxonalar raqobat muhitini yaratishda faqatgina xaridor va bozorni egallash uchun emas, balki tijorat banklarining ularga ajratadigan kreditlari hamda salohiyatli ichki va tashqi investorlarning ularga byeradigan mablag'lari uchun ham kurashadilar.

Shu sababli boshqaruv yechimlarini qabul qilish va erishilgan natijalarni to'g'ri baholash uchun zarur bo'lgan tegishli ma'lumotlarga ehtiyoj tug'iladi.



Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgaltyeriya hisobi statistik va hisobchilik funksiyasini tugallab, investorlar qoʻlidagi mablagʻni korxonaga kiritish uchun yigʻish, qayta ishlash va uza-tish quroliga aylandi.

Shunday qilib, xoʻjalik subʻektining faoliyati toʻgʻrisidagi aniq maʼlumotlarni olgan investorlar unga investitsiyani kiritish yoki kiritmaslik toʻgʻrisida bir qarorga keladilar. Korxonada moliyaviy faoliyatidan manfaatdor taraflarni shartli ravishda ikkiga ajratsa boʻladi:

- a) tashqi foydalanuvchilar;
- b) ichki foydalanuvchilar.

Ichki foydalanuvchilarga korxonaning boshqaruv xodimlari kiradi. Ular ishlab chiqarish va moliyaviy xaraktyerdagi turli xil qarorlarni qabul qiladi. Koʻrinib turibdiki, bunday qarorlarni qabul qilish uchun aniq va toʻliq maʼlumot kerak, aks holda korxonada katta zarar koʻrishi va hattoki bankrot boʻlishi mumkin.

Bundan tashqari moliyaviy hisobotlar korxonada va uning tashqi muhiti orasidagi bogʻlovchi vosita hisoblanadi.

Bozor sharoitida korxonalar tashqi foydalanuvchilariga oʻzlarining moliyaviy hisobotini taqdim etishdan maqsadi moliyaviy bozorlardan qoʻshimcha kurslarga ega boʻlishdan iborat.

Korxonada va moliyaviy bozorlar oʻrtasidagi samarali aloqaning oʻrnatilishiga va oʻzgarishiga korxonaning yuqori boshqaruv boʻgʻnining moliyaviy menejyerlari masʼuldirlar.

Shuning uchun menejyerlarga moliyaviy hisobot juda muhim zero, ular bu hisobotni tashqi foydalanuvchilar qanday tarzda olishi va undan kelib chiqib qanday qaror qabul qilishlarini bilishlari kerak.

Tashqi foydalanuvchilar oʻz navbatida moliyaviy faoliyat bilan bevosita qiziquvchilardan iborat boʻlib ularga quyidagilar kiradi:

- Korxonaning tashqi va potensial mulkdorlari;
- Hisobotni qoʻllovchi hozirgi va potensial kreditorlari;
- Mahsulotni sotuvchi va sotib oluvchilari;
- Soliq siyosatini belgilovchi davlat organlari.
- Hisobotlar bilan qiziquvchi kompaniyalarning xizmatchilari.

Moliyaviy yillik hisobot natijalaridan foydalanuvchilarning ayrimlari roʻyxatini quyida keltiramiz:

— investorlarni himoya qilish maqsadida hisobotning qonunlarga va qabul qilingan umumiy qoidalarga asosan bajarilishini tekshiruvchi auditorlik xizmati;

— moliyaviy masalalar bo'yicha maslahatchilar (ular o'zlarining mijozlariga kapitalni u yoki bu kompaniyaga qo'yish bo'yicha maslahat berish uchun tegishli hisobotdan foydalanadilar);

— qimmatli qog'ozlar birjasi;

— kompaniya faoliyati to'xtab qolishi bilan hisobot tuzish va hisob yuritish metodini o'zgartirish zaruratini baholaydigan va firmalarni ro'yxatga olish haqida qaror qabul qiluvchi davlat tashkilotlari;

— qonun chiqaruvchi organlar;

— kontrakt shartlarining bajarilishini baholash, dividendlar to'lash va foydani taqsimlashda qonunchilik me'yorlariga rioya etish;

— matbuot va axborot agentliklari (ular hisobotdan kompaniya faoliyatini tahlil qilish va rivojlanish tendensiyasini baholash va sharhlash maqsadida foydalanadi);

— savdo ishlab chiqaruvchi assotsiasiyalar (ular hisobotdan natijalarni hisoblash va tahlil qilish va umumiy statistik hisobot uchun foydalanadi);

— kasaba uyushmalari (ular kasaba uyushmasi a'zolarining maoshlari va mehnat shartnomasi shartlari bo'yicha o'zlarining talablarini aniqlash va shu korxonaning rivojlanish tendensiyalarini baholash maqsadida foydalanadilar);

*1- shakl*

### **Korxonaning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilarning manfaatlarini guruhlashtirib ifodalash**

<b>foydalanuvchilar</b>	<b>Manfaatlar</b>	<b>Ma'lumotlar manbai</b>
Korxonaning menejrlari	Moliyaviy faoliyat va ishlab chiqarishning bahosi: moliyaviy va boshqaruv qarorlarini qabul qilish	Korxonaning ichki hisoboti, korxonaning moliyaviy hisoboti
Statistik tashkilotlar	Statistik ma'lumotlarni umumlashtirish	Statistik va moliyaviy hisobot

Aksiyadorlar	Berilgan investisiyalarning tavakkal darajasi va foydaning tavakkal bahosi	Moliyaviy hisobot
Kreditorlar	Kreditni va foizlarni to'lash uchun resurslar miqdorini belgilash	Moliyaviy hisobotlar, maxsus ma'lumotlar
Vositachilar	Foizlarni tiklash uchun resurslar miqdorini aniqlash	Moliyaviy hisobot
Sotib oluvchilar	Korxonaning o'z faoliyatini uzoq muddatga davom ettira olishini baholash	Moliyaviy hisobot
Xizmat qiluvchilar	Bandlik istiqbolini aniqlash, imtiyoz olish maqsadida korxonaning faoliyati va barqarorligini va rentabelligini baholash	Moliyaviy hisobot
Statistik tashkilotlar	Statistik ma'lumotlarni umumlashtirish	Statistik va moliyaviy hisobot

### ***Mustaqil o'rganish uchun savollar***

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy menejmentning mohiyati va roli.
2. Moliyaviy menejment tizimida moliyaviy hisobot.
3. Moliyaviy menejment hisoboti va hisobga olish tushunchalari.
4. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar.
5. Moliyaviy hisobotga qo'yiladigan talablar.

### **3- BOB. Moliyaviy menejment hisobi va hisobotida foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar. Pul oqimini tahlillash metodlari**

Moliyaviy menejer qaror qabul qilish uchun korxonaning o'tgan davrlardagi faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlar kelajakda korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini aniqlash imkonini byeradi va ularning asosida quyidagi baholar beriladi:

— korxonaning moliyaviy holatiga va uning kapitallari bo'yicha bo'ladigan o'zgarishlarga;

— korxonaga kelib tushadigan va undan chiqib ketadigan pul oqimi va u bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikning darajasiga baho berish.

Korxonaning balansi ikki aktiv va passiv qismlardan iborat bo'lib, unda bir tomondan aktiv, ya'ni korxonaning aniq muddatdagi moliyaviy holatini va shuningdek mablag'larni sarflash yo'nalishlari bo'yicha yagona pul qiymatini ko'rsatib bersa, ikkinchi tomondan passiv, ya'ni ularning moliyaviy mablag' manbalarini ko'rsatib beradi.

Korxonaning balansida uning ixtiyorida bo'lgan barcha resurslarning umumiy qiymati beriladi va asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha o'tgan hisobot davrida bajarilgan ishlarning natijasi keltiriladi va uning istiqboli belgilanadi.

Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Korxonada aktivlarining umumiy qiymati.
2. Umumiy aktiv qiymatida uzoq va qisqa muddatli aktivlarning hissi.
3. Kapitalning umumiy qiymati.
4. Kapitalning o'sish qiymati.
5. Qarzga olingan kapitalning qiymati.

Balansning aktiv qismida korxonaning faoliyati yuzasidan qabul qilingan investitsion qarorlarni ifodalaydi.

Moliyaviy menejmentning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib korxonada balansni aktiv qismining qisqa va uzoq muddatlarga bo'linishi hisoblanadi.

**Qisqa muddatli aktivlar** — bu korxonaning aylanma mablag'lari bo'lib, ularga bir hisobot yili davomida foydalanilgan, sotilgan yoki iste'mol qilingan moddiy ne'matlar (resurslar) kiradi va ular balansning ikkinchi va uchinchi bo'limlarida ko'rsatiladi.

**Uzoq muddatli aktivlar** — bularga bir yildan ortiq muddat davomida ishlatilgan va o'z faoliyatini yurgizish uchun korxonada tomonidan sotib olingan va sotishga mo'ljallangan resurslar kiradi. Uzoq muddatli aktivlarga korxonaga tegishli asosiy vositalar, ya'ni xizmat muddati bir yildan ortiq va bir donasi (komplekt)ning bahosi sotib olish sanasida O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining ellik borobaridan ortiq bo'lgan resurslar kiradi va korxonada balansning birinchi bo'limida aks ettiriladi.

Korxonaning aylanma mablag'lari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- pul mablag'lari;
- qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalari;
- debitorlik qarzlari;
- moddiy va ishlab chiqarish zahiralari.

Korxonaning pul mablag'lari tez likvidlanadigan mablag'lardan hisoblanadi va kundalik, joriy to'lovlarni, qarzlarni uzishda foydalaniladi. Pul mablag'larini ishlatishga ma'lum chegaralar quyilgan bo'lsa va korxonaning bankdagi hisob raqamlaridan uni ba'zi bir sabab tufayli olinishi mumkin bo'lmasa hamda joriy to'lovlarni to'lashga mo'ljallanmagan bo'lsa bunday pul va shunga o'xshagan boshqa mablag'larni aylanma vositalar tarkibiga kiritmaslik kerak. Qarama-qarshi tendensiyalar (ta'sirlar) asosida naqd pulning optimal qiymati aniqlanadi. Korxonaning ishbilarmonlik reputatsiyasi va paydo bo'lishi mumkin bo'lgan kon'yunkturaviy qiyinchiliklar korxonani ma'lum pul zahiralari ega bo'lishni taqozo etadi. Bu o'z vaqtida joriy majburiyatlarni uzishga, mehnatga o'z vaqtida haq to'lash, ishlab chiqarishni rivojlantirish va shu kabilarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladi. Pul mablag'larining yo'qligi va inflyatsiya darajasining o'sishi korxonani bankrotlikka olib kelishi mumkin. Undan tashqari inflyatsiya o'z navbatida bo'sh qolgan

mablag'larining ko'payishiga olib keladi va uning tasirida kerak bo'lgan to'lovlarni to'lashga kundan-kunga yanada ko'proq mablag' zarur bo'ladi.

### **Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar:**

— bu korxonaning bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga berilgan qarzlari;

— debitorlik qarzlari.

Balansning eng yirik bo'limlaridan biri bu moddiy ishlab chiqarish zahiralari. Ular moddiy aktivlar bo'lib quyidagi maqsadlarni amalga oshirishda ishlatiladi:

— oddiy ish jarayonida sotilgan tovarlarni hisobga olishda;

— korxonaning ichki ishlab chiqarish ehtiyojini hisobga olishda;

— sotiladigan tovarlarni uzluksiz ishlab chiqarishni ta'minlashda;

Moddiy ishlab chiqarish zahiralari aylanma aktivlarning eng kam likvidlanadigan bo'limidir. Bu bo'limning pul mablag'larini aylantirishga, nafaqat iste'molchini topish, balki undan pul olish uchun ham vaqt kerak bo'ladi. Moddiy ishlab chiqarish zahiralari bo'limining tahlili moliyaviy boshqarish samaradorligi va ishlab chiqarish zahiralari uchun korxonaning barcha aktivlari qatorida katta ahamiyatga egadir. Bu masala xususida keyingi mavzularda ham keng o'rin berilgan. Mahsulotning tannarxi moddiy ishlab chiqarish zahiralari baholashning bazasi hisoblanadi. Bir xil turdagi xom ashyoni sotib olish vaqtiga qarab shu muddat bo'yicha tovarning tannarxi belgilanadi. Ishlab chiqarish zahiralari baholashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

— har bir sotib olingan xom ashyo va tovarlarning haqiqiy tannarxi bo'yicha hisoblash usuli;

— o'rtacha tannarxi bo'yicha hisoblash usuli;

— sotib olingan vaqt asosida hisoblashning FIFO usuli;

— oxirgi sotib olish narxi bilan tannarxni hisoblashning LIFO usuli.

Demak, korxonada o'zining moliyaviy xo'jalik faoliyatidan kelib chiqib mustaqil ravishda baholash usulini tanlab oladi.

Asosiy vositalar — bu shunday vositalarki, ular moddiy shaklga ega bo'lib o'zlarining boshlang'ich qiymatlarini korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tannarxiga asta-sekin, ya'ni yemi-

rilish asosida va uzoq muddat davomida o'tkazadilar. Ularning tarkibiga korxonaning binosi, inshootlari, asbob-uskunalari, transport vositalari, xo'jalik jihozlari va boshqalar kiradi.

Nomoddiy zahiralari shunday vositalarki, ular mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydigan lekin korxonaning faoliyatiga o'z hissasini qo'shishda bilvosita, ya'ni shart-sharoit yaratishda qatnashuvchi aktivlardir.

Korxonaning balansida uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar bo'yicha majburiyatlarni alohida ajratish orqali, ya'ni boshqa korxonalarning qimmatli qog'ozlar va obligatsiyalariga moliyaviy qo'yilmalar samarasini bilish maqsadida va muddati bir yil bo'lgan kreditlar, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar bilan birgalikda bu bo'lim uning bozordagi moliyaviy faoliyatini aks ettiradi.

Buxgaltyeriya hisobida bo'ladigan o'zgarishlar hozirgi moliyaviy menejer tomonidan kamroq tuzatishlar kiritish imkonini berayotganligiga qaramasdan, balansning aktiv qismida qo'shimcha ko'rsatkichlarni hisoblash muhimligini ko'rsatadi.

Bundan kelib chiqqan holda quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Aktivlar bo'yicha balansda xarajatlar summasiga tuzatishlar kiritilishi.

2. Aylanmadan tashqari mablag'lar tarkibiga uzoq muddatli debitorlik qarzlarni kiritish kerak, chunki moliyaviy menejment tarmog'ida qisqa va uzoq muddatli qarorlarni ajratib olish muhimdir va ularni ajratish chegarasi 12 oyni tashkil etadi.

3. Moddiy ishlab chiqarish zahiralari tarkibidan kelasi davr xarajatlari chiqarib tashlanadi.

Balansning passiv qismida xo'jalik sub'ektlari va kompaniyalarning moliyaviy qo'yilmalar manbalari bo'yicha qarorlari ko'rsatiladi. Moliyaviy menejment uchun passiv moddalarning quyidagi guruhlarini ajratib olish muhim:

1. Qisqa muddatli majburiyatlar.

2. Uzoq muddatli majburiyatlar.

3. Xususiy kapital.

Qisqa muddatli majburiyatlar asosan bir yilgacha bo'lgan muddat ichida uziladi va quyidagi moddalarni o'z ichiga oladi:

- to‘lovga mo‘ljallangan vekselar va hisoblar;
- majburiyatlar bo‘yicha guvohnomalar;
- kompaniyaga va xo‘jalik sub‘ektlariga davlat tomonidan soliq to‘lovlari muddatini cho‘zish (hisobda kredit sifatida qaraladi);
- ish haqini to‘lash bo‘yicha korxonaning qarzlari;

Qisqa muddatli majburiyatlarni alohida guruhga ajratib olish korxonaning likvidlik monitoringi uchun muhimdir.

Uzoq muddatli majburiyatlar — bu to‘lash muddati bir yildan ko‘p bo‘lgan majburiyatlardir.

Uzoq muddatli majburiyatlar asosan quyidagilardan iborat:

- uzoq muddatli qarzarlar va kreditlar;
- obligatsiyalar va to‘lovga byerilgan uzoq muddatli vekselar;
- nafaqa to‘lash bo‘yicha va uzoq muddatli ijara haqini to‘lash bo‘yicha majburiyatlar.

Navbatdagi ko‘rsatkich — bu xususiy kapital yoki korxonada aksiyadorlik kompaniyasi bo‘lsa, aksiyadorlik kapitali hisoblanadi.

Endi qo‘yilgan kapital masalasiga kelsak — bu xususiy mulk egalari tomonidan amalga oshirilgan investitsiya ajratmalaridir. Ularga qo‘yilgan kapitalning nominal qiymati, emission mukofot puli va ba‘zi bir boshqa qo‘yiladigan kapitalning qiymatiga ta’sir etadigan ko‘rsatkichlar kiradi.

Sof foyda — bu korxonada o‘zining faoliyati davomida olgan foydasidan soliq va dividendlar ayirmasiga teng.

Endi moliyaviy hisobotning natijalarini ko‘ramiz: Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot moliyaviy menejr uchun muhim bo‘lgan quyidagi ko‘rsatkichlarni aks ettiradi:

- mahsulot sotuvidan tushgan daromad;
- foydaga solinadigan soliq;
- korxonada ixtiyorida qolgan foyda;

Shunday qilib, moliyaviy boshqaruv tarmog‘ida korxonada quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kerak:

### **1. Foyda va daromad ko‘rsatkichi:**

a) Bu ko‘rsatkich korxonaning rentabelligini baholashda va hisobotlarni tuzishda asos qilib olinadi;



b) Umumiy foyda — bu sotilgan jami mahsulotning qiymatidan uni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar ayirmasiga tengdir. Bu ko'rsatkichdan korxonaning samaradorligini tahlil qilishda foydalaniladi;

v) korxonaning asosiy faoliyatidan olinadigan foyda mahsulotning sotuvidan tushgan umumiy qiymatidan boshqaruv va sotish uchun ketgan xarajatlar ayirmasiga teng. Bu ko'rsatkich korxonani boshqarish va mahsulotni sotish uchun ketgan xarajatlarni aks ettiradi.

g) korxonaning asosiy faoliyatidan tashqari olinadigan foyda. Bu ko'rsatkich korxonaning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa, ya'ni xo'jalik va yordamchi ishlar yuzasidan bajarilgan mehnatning natijasidir.

d) favquloddagi foyda;

e) soliq to'lashdan oldingi foyda;

j) sof foyda (sof xarajat) — soliq va boshqa to'lovlardan keyin qolgan foydadir;

## **2. Korxonaning xarajat ko'rsatkichlari:**

a) sotilgan mahsulotning tannarxi;

b) umumxo'jalik va tijorat xarajatlari;

v) favquloddagi xarajatlar.

Aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini tahlil qilishda sof foyda ko'rsatkichini hisoblash uchun ba'zi bir o'zgartirishlar kiritish kerak bo'ladi.

Birinchiidan, korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatini u bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatidan ajratib olish zarur.

Ikkinchiidan, pul mablag'lari (pul oqimlari) ning harakatini belgilovchi ko'rsatkichlar haqida to'liq ma'lumotlar kerak. Buning uchun moliyaviy menejment borasida faqatgina uning natijalarini bilish emas, balki hisobot davrida pul mablag'larining kelib tushishini va asosiy manbalarining o'zgarishini aniqlash muhimdir.

Pul mablag'larining harakatini tahlil qilishda 4- shakl, ya'ni „Pul mablag'larining harakati“dan foydalaniladi. Buning asosi bo'lib pul oqimlarining korxonaning faoliyatida sohalar bo'yicha quyidagilar hisoblanadi:

- operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimi;
- investitsion faoliyat bo'yicha pul oqimi;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimi.
- korxonalar bo'yicha jami pul oqimi.

Xo'jalik ishlab chiqarish faoliyati bo'limida quyidagi pul mablag'larining kelib tushishi ko'rsatiladi:

— xaridorlar tomonidan tovarlarga yoki ko'rsatilgan xizmatlarga to'langan haq;

— boshqa korxonalar tomonidan to'lanadigan foizlar va dividendlar;

— aktivlarni sotishdan kelgan tushumlar;

Pul mablag'larining sarflanishi quyidagi hollarda yuz beradi:

— ish haqini to'lashda;

— har xil qarz beruvchilar tomonidan berilgan qarzlarni bo'yicha foiz to'lash;

— tovarlar va xizmatlarga haq to'lash;

— soliq to'lash bo'yicha xarajatlar va hokazolar.

Shunday qilib, xo'jalik ishlab chiqarish faoliyati natijasida pul mablag'larining ko'payishini yoki kamayishini hisoblash uchun kassa usulidan kelib chiqib qisqa muddatli majburiyatlarni va aylanma vositalarni aniqlab olish, pul mablag'lari to'lashni talab etmaydigan xarajatlarni hisobga olgan holda sof foydani o'zgartirish, uzoq muddatli aktivlarni, jumladan qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushadigan foyda yoki ko'riladigan zarar va shu kabi operatsiyalarni bajarish kerak. Undan so'ng aniqlangan zararlarni sof foydadan ayirib tashlanadi.

„Investitsion faoliyat“ bo'limi o'z ichiga asosan uzoq muddatli aktivlarda bo'ladigan o'zgarishlarni oladi:

— ko'chmas mulkni sotish va sotib olish;

— boshqa kompaniyalarning qimmatli qog'ozlarini sotish va sotib olish.

— boshqa kompaniyalarga berilgan uzoq muddatli qarzlarni.

— qarzlarni uzishdan tushadigan tushumlar va boshqalar.

„Moliyaviy faoliyat“ o'zining ichiga xususiy kapitalni va kompaniyaning uzoq muddatli majburiyatlarida bo'ladigan o'zgarishlarni qamrab oladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- o‘zining aksiyalarini sotish va sotib olish;
- kompaniyaning obligatsiyalarini chiqarish;
- kompaniya tomonidan uzoq muddatli majburiyatlarni uzish;
- dividendlarni to‘lash.

Korxonada balansini tahlil qilish uning moliyaviy holatiga bo‘lgan ta‘sirini aniqlash imkonini beradi.

### ***Mustaqil o‘rganish uchun savollar***

1. Korxonaning balansi va uning mohiyati nimadan iborat?
2. Korxonada balansining aktiv va passiv qismlari nimadan iborat va uning tuzilish tartibi qanday?
3. Nomoddiy aktivlar deganda nimani tushunasiz va ularning mohiyati nimadan iborat?
4. Asosiy va aylanma aktivlar qaysi jihatlari bilan farqlanadi va qanday tartibda balansga kiritiladi?
5. Foyda va zararlar haqida qanday tushunchaga egasiz?
6. Uzoq va qisqa muddatli passivlar haqida nimalarni bilasiz?
7. Nima uchun balansda qisqa muddatli aktivlarga yoki aylanma mablag‘larga ajratib hisobga olinadi?
8. Debitorlik qarzi deganda nimani tushunasiz?
9. Moddiy zahiralarning tushunchasi nimalardan iborat va ular qanday qilib baholanadi?
10. Moddiy zahiralarni baholashning metodlarini tushuntirib bering?
11. Qanday metodlar asosida moddiy zahiralarning qiymati baholanadi?
12. O‘rtacha tannarx asosida moddiy zahiralarni baholash metodi deganda nimani tushunasiz?
13. Qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarga nimalar kiradi?
14. Pul oqimi tushunchasini qanday ifodalaysiz? Nima uchun pul oqimini hisobga olish zarur?

---

---

## **4- BOB. Moliyaviy hisobotning asosiy koeffitsiyentlari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy menejment hisobotiga bo'lgan talab yuqori darajada turadi. Moliyaviy menejment hisobotining sifatini belgilaydigan koeffitsiyentlar guruhi quyidagilardan iborat:

1. Likvidlik koeffitsiyentlar guruhi;
2. Aktiv ishchanlik koeffitsiyentlar guruhi;
3. Rentabellik koeffitsiyentlar guruhi;
4. To'lovchanlik koeffitsiyentlari guruhi;

Endi har bir yuqorida qayd etilgan koeffitsiyent guruhlarining ko'rsatkichlari bo'yicha bo'lgan holatni ko'rib chiqamiz.

### **1. Likvidlik koeffitsiyenti**

Likvidlik koeffitsiyenti — bu korxonalarining xo'jalik va moliyaviy hisobot davridagi qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarini qanday qilib bartaraf etayotganlik holatini aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichdir. Moliya menejyeri uchun eng muhim bo'lgan koeffitsiyentlar bu:

- umumlikvidlik (joriy) koeffitsiyenti;
- tezkorlik bilan qarz majburiyatini bartaraf etish koeffitsiyenti;
- absolyut likvidlik koeffitsiyenti;
- sof aylanma kapital koeffitsiyenti.

Umumlikvidlik koeffitsiyenti — bu aylanma mablag'larni qisqa muddatli majburiyatlarga ajratib hisoblanadigan va korxonaning muayyan bir davr davomida uni qoplash uchun mablag'larning miqdorini aniqlashda ishlatiladigan ko'rsatkichdir. Joriy likvidlik koeffitsiyenti uning ajralmas qismlaridan biri hisoblanadi.

Tezkor likvidlik koeffitsiyenti — bu korxonalarining aylanma va pul mablag'lari hamda qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va

debitorlik qarzlarni bartaraf qilinganlik darajasini aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichdir.

Absolyut likvidlik koeffitsiyenti — bu korxonaning pul mablag'larini baholashda va ishonchlilikni bartaraf etish hollarida qo'llaniladigan ko'rsatkichdir.

Sof aylanma kapital koeffitsiyenti katta ahamiyatga ega bo'lib, uni o'rganish va tahlil qilishning o'ziga xos yaxshi tomonlari bor. Chunki korxonaning sof kapitali aylanish jarayoning iqtisodiy tomondan samarasi yuqoridir. Sof aylanma kapital koeffitsiyenti korxonaning aylanma aktivi va qisqa muddatli majburiyatlari o'rtasidagi farqi qanday ekanligini bildiradi. Bu koeffitsiyentdan korxonaning moliyaviy barqarorligini qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

## **2. Aktiv ishchanlik koeffitsientlari**

Aktiv ishchanlik koeffitsiyentlari — bu korxonaga qanchalik o'z mablag'laridan samarali foydalana olayotganligini oldindan bashorat qilish va uddaburonlik bilan ish yuritishini belgilovchi ko'rsatkichdir.

Odatda aktiv ishchanlikni to'g'ri baholaydigan bir necha guruh koeffitsiyentlar mavjud:

1. Aktivlar aylanishini belgilaydigan koeffitsiyentlar guruhi;
2. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyentlar guruhi;
3. Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyentlar guruhi;
4. Moddiy ishlab chiqarish zahiralarning aylanish koeffitsiyentlar guruhi;
5. Asosiy vositalarning aylanish koeffitsiyentlar guruhi;
6. Kapitalning aylanish koeffitsiyentlar guruhi va boshqalar.

## **3. Rentabellik koeffitsiyentlari**

Rentabellik koeffitsiyenti — bu korxonaning qanchalik foyda va daromad bilan faoliyat yurgizayotganligini bildiradigan asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

G'arb mamlakatlarida rentabellik koeffitsiyentlaridan ko'm-paniyalar aksiyalarining kotirovka darajasiga qanday o'z ta'sirini o'tkazayotganligini aniqlashda foydalanishadi. Bu koeffitsiyent ko-

rxona balans foydasining uning kapitaliga (o'rtacha yillik qiymatiga) nisbatini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu ko'rsatkich korxonaning olgan har bir so'm foydasiga to'g'ri kelgan kapitalning samaradorligini va har bir so'm kapitalning qiymatiga to'g'ri kelgan foydaning miqdorini ifodalaydi.

Korxonaning rentabellik darajasini oshirish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini keskin tushirish zarur. Buning uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini chuqur tahlil etib, qilingan xarajatlarni kamaytirish yo'llarini aniqlash kyerak bo'ladi. Ma'lumki, mahsulotning tannarxini tushirish quyidagi omillarga bog'liq:

— mahsulotni ishlab chiqarishga sarflanadigan xom-ashyo, issiqlik va elektr quvvati, amortizatsiya, ish haqi, transport, rek-lama xarajatlari va boshqa korxonalar resurslarini tejash evaziga;

— mehnat unumdorligini keskin oshirish evaziga;

— korxonani rekonstruksiya qilish va shunga o'xshash bir qator tashkiliy chora-tadbirlarni o'tkazish evaziga;

— mahsulotning sifatini keskin ko'tarish hisobiga uning bahosini oshirish va bir qator boshqa omillarni amalga oshirish evaziga yuqori rentabellikka yerishish mumkin.

Korxonalar aktivlarining aylanish tezligiga ta'sir etuvchi omillar bu:

— sotilmay qolgan mahsulotlarning zahirasini kamaytirish;

— debitorlik qarzlarni uzishni tezlashtirish;

— foydalanilmay turgan asosiy vositalarni zudlik bilan ishga tushirish va ularni kamaytirish yo'llarini topish.

#### **4. To'lovchanlik koeffitsiyentlari guruhi**

To'lovchanlik koeffitsiyenti — bu kompaniyalarga uzoq muddatli kredit beruvchi investorlarning moddiy manfaatlarini himoyalash darajasini va to'lovchanlik qobiliyatini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

To'lovchanlik koeffitsiyentlari guruhi tarkibiga, jumladan mulkdorlik koeffitsiyenti kiradi. Bu koeffitsiyent xususiy kapitalning umumiy kapital qiymatidagi ulushini belgilab beradigan ko'rsatkichdir. Shu tarzda qarzga berilgan kapital hissasini ham

hisoblash mumkin. To'lovchanlik koeffitsiyentlari guruhi tarkibiga moliyaviy bog'liqlik koeffitsiyenti ham kiradi. Bu koeffitsiyent firmalarning olgan va boshqa kompaniyalarga bergan qarzlarning darajasini bildiradigan ko'rsatkichdir. Bunda koeffitsiyent miqdori qancha yuqori bo'lsa korxonaning olgan va bergan qarzlarning miqdori ham shuncha ko'p bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shu holatga tushib qolgan kompaniyalar uchun salbiy ko'rsatkich hisoblanib, ularning bankrotlikka uchraganligidan dalolat beradi. Moliyaviy bog'liqlik koeffitsiyentining yuqori darajada bo'lishi korxonalarining pul mablag'i tanqisligini va bu borada katta xavfi borligidan xabar beruvchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

To'lovchanlik koeffitsiyenti guruhlaridan yana biri — bu kreditlarni himoyalash koeffitsiyentidir. Bu koeffitsiyent korxonaning olgan qarzlarni o'z vaqtida foizi bilan qaytarib berish imkoniyati qay darajada himoyalanganligini bildiradigan ko'rsatkichdir: Shuning uchun bu ko'rsatkich orqali kompaniyalar hisobot yili davrida o'z qarzlarni foizi bilan qoplash orqali qanchalik moliyaviy mablag'ga ega bo'lganligini va oladigan foydalarining imkoniyatini aniqlash maqsadida, korxonalar va kompaniyalarning misolida ularning kapital tuzilish ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin.

## **5. Korxonalar bozor aktivligi koeffitsiyentlari guruhi**

Korxonalar bozor aktivligi koeffitsiyentlari — bu kompaniyalarning qimmatli qog'ozlarini, jumladan aksiyalarining qiymatini va ularning daromadlarini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Bu koeffitsiyentlar guruhiga yana bir necha asosiy ko'rsatkichlar kiradi.

Korxonalar bozor aktivligi koeffitsiyentlari guruhining o'ziga xos tomoni bor, u ham bo'lsa, shundan iboratki, bu koeffitsiyent hech mahal - 1 dan ortiq bo'lmaydi. Mabodo bu koeffitsiyent 1 dan oshib ketsa, u holda kompaniya hisobot yili davrida dividend siyosatida norasionallikka yoki moliyaviy tanqislikka uchragan, deb tushunmoq lozimdir.

Umuman kompaniyalarning moliyaviy ahvolini ushbu koeffitsiyent orqali tahlil va tadqiq qilish asosida olingan natija 0 dan - 0,9 gacha tengligi ma'lum bo'ldi. Ko'p hollarda korxonalar bozor

aktivligi koeffitsientlari shu darajada qaytarilishini investorlar turlicha talqin qiladilar. Chunki investorlar o'z mablag'larini aynan shu kompaniyalarga yo'naltirganda turlicha maqsadni ko'zlaydilar. Qimmatli qog'ozlarga nisbatan investorlarning e'tibori quyidagilarga qaratilgan bo'lishi kerak, ya'ni:

1. Joriy daromad olish (dividend) ga;
2. Aksiyalarning kursini ko'tarilish hisobiga ularning qiymatini oshirishga.

Bu borada shuni aytish lozimki, ba'zi bir maqsadlar bir-birini ma'lum darajada inkor qilish holatlari ham bo'ladi. Chunki ayrim sharoitlarda olingan foydaning, aksariyat qismi dividendni to'lashga ajratiladigan bo'lsa, kompaniyani investisiyalashga kam mablag' qolishi mumkin.

Endi bozor aktivlik koeffitsiyentini hisoblash tartibini quyidagi shartli misolda ko'rib chiqamiz.

Korxonaning ustav fondi (oddiy aksiyalarning har birining nominal qiymati 10 ming so'mdan) — 1800 000 so'm;

Korxonaning sof foydasi — 630 000 ming so'm.

Dividend tariqasida to'langan to'lov qiymati — 300 000 ming so'm.

Emissiya mukofoti — 210 000 ming so'm;

Jamg'arilgan foyda — 720 000 ming so'm;

Bir dona aksiyani sotib olish qiymati — 11 ming so'm;

Bir dona aksiyani sotish qiymati — 16 ming so'm.

Yuqorida keltirilgan shartli ma'lumotlar chuqur tahlil qilinsa va tegishli mulohaza yuritilsa har bir aksiyadan olinadigan foyda yuzasidan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun korxonalarining moliyaviy hisoboti o'ta zarurdir;

2. Moliyaviy hisobot asosini korxonaning balansi tashkil etadi;

3. Moliyaviy menejmentning oldiga qo'yilgan asosiy maqsadiga erishish uchun korxonada o'tkazilgan tahlilning unga mos kelishi zarurligi kuzatiladi.

4. Moliyaviy hisobotda turli, ya'ni likvidlik, joriy, tezkor, absolyut va sof aylanma kapital koeffitsiyentlari guruhidan keng foydalanish va ularni hisoblash muhimdir.



---

## **5- BOB. Moliya va moliyaviy tizimning mohiyati va vazifalari**

Bozor iqtisodiyoti asosini tovar — pul munosabatlari tashkil etadi. Moliya — bu kategoriya sifatida xalq xo‘jaligida pul mablag‘larini jamlash, ularni taqsimlash va sarflash borasidagi iqtisodiy munosabatlarni bildiradi.

Ma‘lumki, har qanday iqtisodiy faoliyatni moliyaviy mablag‘ va turli tuman resurslarsiz tassavur qilib bo‘lmaydi. Korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar faqat egasiga yetgandan va ko‘rsatilgan xizmatlar bajarilgandan so‘nggina haq to‘lanishi iste‘mol qilinishi mumkin. Sotilgan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymat, ya‘ni pul shakliga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida korxonaning moliyaviy mablag‘larini tashkil etadi. Iste‘molchilardan korxonaga kelib tushgan moliyaviy mablag‘lar hisobidan ishlab chiqarishga zarur bo‘lgan xom-ashyo, moddiy-texnik resurslar va turli xo‘jalik anjomlari xarid qilinadi. Shu tariqa tovar-pul almashuvi vujudga kelaydi. Bunda korxonaning moliyaviy mablag‘i yildan-yilga olgan foydasi tufayli ko‘payib boradi. Zarar ko‘rgan korxonalarda esa buning aksi kuzatiladi. Natijada korxonalarning foyda va zarar ko‘rishining tahlilli orqali ularning faoliyatlarini ijobiy yoki salbiy baholash mumkin. Bu esa o‘z navbatida korxonalar moliyaviy mablag‘lari ko‘p yoki kam bo‘lishining asosini tashkil etadi.

Shubhasiz, ushbu mablag‘larni tashkil etishda va ularni sarflashda bevosita qatnashuvchilar moliyaviy munosabatlarning sub‘ektlari hisoblanadi. Moliya ishtirokchilari — bu davlat, korxonalar, tashkilot va fuqarolardir. Ularning o‘rtasida bir-birlari bilan bo‘ladigan turli iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar o‘z navbatida pul fondlarini yuzaga keltiradi. Bu fondlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga, aholini ijtimoiy himoyalashga, davlatni boshqarish va mudofaani mustahkamlashga hamda tegishli rezervlarni barpo etishga, boshqa tadbirlarni amalga oshirishga sarflanishi lozim.

Moliyaviy munosabatlar xo‘jalik sub‘ektlarining moddiy yoki nomoddiy sohada faoliyat ko‘rsatishiga qarab turlicha bo‘ladi. Albatta, ular eng avvalo, ishlab chiqarishning o‘zida, ya‘ni korxonada, so‘ngra ishlab chiqarish bilan boshqa turli-tuman sohalar o‘rtasida va nihoyat oilada paydo bo‘ladi. Moliyaviy munosabatlarning ob‘ekti bo‘lib pul mablag‘lari hisoblanadi, lekin ular, albatta, moddiy mahsulotning ma‘lum qismini o‘zida ifoda etadi.

Moliyaviy munosabatlarga xos bo‘lgan belgilar va xususiyatlar moliyaning funksiyasi — vazifasida ifodalanadi. Moliyaning 6 ta funksiyasi mavjud:

**1. Taqsimlash funksiyasi** — moliya vositasida jamiyatda yaratilgan yalpi milliy mahsulot va uning asosiy qismi bo‘lmish milliy daromad xo‘jalik sub‘ektlari o‘rtasida taqsimlanib, pul fondlariga aylantiriladi. Ishlab chiqarishning o‘zida yuz beradigan taqsimlash birlamchi taqsimlash deb ataladi. Uning natijasida birlamchi daromadlar yuzaga keladi, ya‘ni foyda, ish haqi fondi, ijtimoiy sug‘urta uchun ajratmalar, amortizatsiya puli va boshqalar tashkil topadi.

Ma‘lumki, amortizatsiya fondi faqat ishlab chiqarishni qayta tiklash bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlarni amalga oshirish uchun sarflanadi. Shuningdek, amortizatsiya vazifasini ish haqi fondi bajara olmaydi. Birlamchi taqsimlashdan so‘ng qayta taqsimlash ro‘y beradi: bir marta taqsimlangan mahsulot qiymati moliya vositalarida, masalan soliqlar va har xil to‘lovlar yordamida qayta taqsimlanadi. Daromad qayta taqsimlanganda moliyaviy aloqalar qaytadan ishlab chiqarish va boshqa soha, turli korxonalar, tarmoqlar o‘rtasida, korxonalar bilan davlat, korxonalar bilan aholi o‘rtasida yuz beradi va hokazo.

**2. Rag‘batlantirish funksiyasi** — moliya vositalari orqali xo‘jalik sub‘ektlarini iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishga va rivojlantirishga undashdan iborat. Biroq shuni ham ta‘kidlash joizki, bunda aholini bepul o‘qitish, bemorlarni davolash, nogironlarga nafaqa to‘lash kabi moliyaviy ajratmalar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga xizmat qilmaydi. Lekin moliyada rag‘batlantiruvchi jihatlari ham bor. Ularga moliya tizimida muntazam ravishda qo‘llaniladigan turli soliqlar va to‘lovlar hamda subsidiyalar va subvensiyalar kiradi.

**3. Iqtisodiy axborot funksiyasi** — bu xo‘jalik sub‘ektlarini tegishli va zarur bo‘lgan sifatli hamda ishonchli axborot va ma‘lumotlar bilan o‘z vaqtida ta‘minlab turishdan iboratdir. Bunday axborot va

ma'lumotlar davlatni, korxonani, tashkilotni va boshqa sub'ektlarni boshqarishda o'ta zarur qurol hisoblanadi. Ma'lumki, iqtisodiy axborotga ega bo'lmasdan turib xalq xo'jaligining tarmoqlarini, jumladan ishlab chiqarishni, savdoni, transportni va boshqalami rivojlantirish mumkin emas. Shuning uchun korxonalar va tashkilotlar o'zlarining moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun iqtisodiy axborotdan unumli foydalanishlari zarurdir. Axborot va ma'lumotlardan unumli foydalanish korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini keskin ko'tarishga olib keladi va ularning moliyaviy ahvolini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Korxonalar va tashkilotlardan olingan axborotlardan eng muhimlaridan biri bu moliyaviy ko'rsatkichlar bo'lib, ularning yordamida ishlab chiqarishdagi mavjud bo'lgan yutuq va kamchiliklarni aniqlash, chuqur tahlil qilish imkoniyati tug'iladi. Shundan so'ng aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish yuzasidan tegishli qarorlarni qabul qilish mumkin. Undan tashqari, shuni aytish lozimki, moliyaviy axborotlar yordamida korxonalar va tashkilotlar hamda tadbirkorlar va boshqalar o'zlarining, sheriklarining va raqobatchilarining faoliyatlarini har tomonlama kuzatib borishlari mumkin bo'ladi.

**4. Nazorat funksiyasi** — bu funktsiya davlat moliyasiga taalluqlidir. Davlat pulning kelishi va ketishini nazorat qiladi. Ya'ni barcha turdagi tushumlarni o'z vaqtida kelishi va ularni tegishli maqsadlarga ishlatilishi nazorat qilinadi.

**5. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish funksiyasi.** Bu vazifa ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi:

1. Aholining nochor qatlamlariga moddiy yordam ko'rsatish.

2. Aholiga bepul va imtiyozli xizmat ko'rsatuvchi sohalarni, chunki maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash va boshqa bir qator sohalarni moliyaviy mablag' bilan ta'minlash.

**6. Auditorlik nazorat xizmati funksiyasi** — bu korxonalar, firmalar, kompaniyalarning xo'jalik va moliyaviy faoliyatini har tomonlama tekshirish, chuqur tahlil etish asosida hisobotlar ekspertizasini o'tkazish va nihoyat ularning moliyaviy ahvoli bo'yicha tegishli xulosalar chiqarib ularga aniqlangan kamchiliklar yuzasidan yo'l-yo'riqlarni ko'rsatishdir.

Auditorlik nazorat xizmati tomonidan aniqlangan kamchiliklar yuzasidan ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlar o'z navbatida korxon-

alarning rahbarlari uchun ularni bartaraf etish borasida moliyaviy va boshqa masalalar bo'yicha tegishli qarorlarni qabul qilishga xizmat qiladi. Bu esa korxonalar va kompaniyalarda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi uchun yaxshi shart va sharoitlar yaratilishiga olib keladi. Natijada korxonalarda moliyaviy fondlar hosil bo'ladi va yildan-yilga ular ko'payib boradi.

Ma'lumki, moliyaning har bir funksiyasi o'zining vazifalarini aniq moliyaviy vositalar orqali bajaradi. Bularga xarajatlar, amortizatsiya, foyda, aksiya kursi, dividend, soliqlar, to'lovlar, boj haqi, sug'urta haqi, subsidiya, dotatsiya, kompensatsiya kabilar kiradi. Ular ayni vaqtda moliya resurslarini tashkil etadilar va shu orqali xo'jaliklarning moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishi mumkin. Masalan, dividend to'lovining ko'payib borishi aksiya chiqargan kompaniyaning moliyaviy ahvolini yaxshilanib borayotganligidan darak beradi.

Moliyaviy resurslarning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri — bu korxonaning faoliyati yuzasidan olgan foydasidir. Bu ko'rsatkich korxonalar va kompaniyalarning rezyerv, sug'urta va ijtimoiy fondlarining manbai hisoblanadi. Undan tashqari, foyda ko'rsatkichi sof daromad sifatida korxonaning iqtisodiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Moliyaviy resurslar o'z navbatida 2 turga bo'linadi:

1. Mikroresurslar yoki markazlashmagan resurslar.

Bu resurslar korxonalar, firma, kompaniya, konsyern, jamoat uyushmalari doirasida bo'lib, xo'jalik sub'ektlarining o'zlariga tegishli va ularning qarzga olgan pul mablag'laridan iborat;

2. Makroresurslar — bu umumdavlat miqyosida tashkil topgan resurslar bo'lib, jumladan davlat ixtiyorida bo'lgan budjet yoki budjetdan tashqari fondlardan iboratdir. Makroresurslar umumiy iqtisodiy va umumdavlat ehtiyojlariga sarflanadi.

**Moliya tizimi.** Har bir davlatning iqtisodiy asosi — bu iqtisodiy sub'ektlar orasidagi pul mablag'larining harakatidan iboratdir.

Iqtisodiy sub'ekt — muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar bo'lib, ular iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotida 4 ta iqtisodiy sub'ekt qatnashadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

— davlat markaziy jamiyat instituti tariqasida;

— o‘z-o‘zini boshqaradigan ijtimoiy-iqtisodiy sub’ekt sifatida tashkil etilgan ma’muriy-hududiy tuzilmalar;

- xo‘jalik sub’ekti (korxonalar, aksiyadorlik jamiyati va boshqalar);
- fuqaro;

Har bir iqtisodiy sub’ektning o‘z huquqi, maqsadi, vazifalari va majburiyatlari bor, lekin ularning barchasi iqtisodiy munosabatlar qatnashuvchilari hisoblanadi. Bu iqtisodiy munosabatlar o‘zaro aloqada bo‘lib, bozorni vujudga keltiradi. Har qanday bozorning faoliyati pul oqimi bilan bog‘liq. Davlatning tarkibiy moliya tizimini shakllantirish omillaridan biri bo‘lib, iqtisodiy sub’ektlar orasidagi pul munosabatlari hisoblanadi.

Davlat paydo bo‘lishi bilan uning moliya tizimi vujudga keladi. Ular o‘zlarining huquqiy me‘yorlariga ega.

O‘zbekistonda bu me‘yorlar fuqarolik kodeksi, qonunlar, mahalliy hokimiyat qarorlari va turli me‘yoriy-qonuniy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan. Davlatning moliya tizimi — bu bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan elementlarning yig‘indisidir. Bu tizim bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Jamiyatdagi moliya munosabatlarining majmuasi moliya tizimi deb ataladi. Moliya tizimiga turlicha yondoshish mumkin. Nazariy jihatdan qaraganda u tarkiban ob’ektiv, lekin har xil darajadagi moliyaviy munosabatlar, ularni ifodalovchi moliya mexanizmlari hamda moliya vositalaridan va moliya siyosatidan tashkil topadi. Moliya munosabatlarining bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanishi va yaxlitligi moliya tizimini yuzaga keltiradi.

Har bir tizim davlat moliya tizimining elementlaridan iborat bo‘lib, iqtisodiy sub’ektlarning moliya resurslarini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun O‘zbekistonning hozirgi moliya tizimi 4 ta mustaqil bo‘g‘inlardan tashkil topgan. Ular quyidagilardan iboratdir:

- umumdavlat moliyasi;
- hududlar moliyasi;
- xo‘jalik sub’ektlari moliyasi;
- fuqarolar moliyasi.

Moliya tizimining har bir bo‘g‘ini o‘ziga tegishli bo‘lgan aniq vazifalarni bajaradi.

**Umumdavlat moliyasining** vazifasi bu moliyaviy resurslarni jamlashtirish va umumdavlat ehtiyojlarini moliyalashtirishni yo‘naltirishdan iborat. Ular soliqlar, yig‘imlar, davlat bojlari va

boshqa daromadlar hisobidan shakllanadi. Umumdavlat moliyasining tarkibiga davlat budjeti, davlat sug'urtasi, davlat krediti va budjetdan tashqari fondlar kiradi.

**Hududiy moliyalar** xuddi shu umumdavlat moliyasi kabi o'ziga xos, lekin hududiy miqyosdagi vazifalarni bajaradilar.

**Xo'jalik sub'ektlari moliyasi** vazifasi — bu foyda olish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida o'zining pul fondlarini shakllantirish va pul oqimlarini samarali boshqarish asosida ulardan unumli foydalanishdir.

**Fuqarolar moliyasining** vazifasi bu daromadlarni shakllantirish, ulardan joriy xarajatlar uchun foydalanish va mulkni xarid qilish, ya'ni fuqaroning moliyaviy portfelini pulning qadsizlanishidan holi tarzda barpo etishdir.

**Moliyaviy bozor.** Moliya va moliya tizimi o'zining xatti-harakatini moliya bozorida ko'rsatadi.

Moliyaviy bozor murakkab iqtisodiy tizim va tarixiy kategoriya hisoblanadi. U moliya va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi sharoitida vujudga kelgan bo'lib, alohida iqtisodiy munosabatlar sohasiga aylangan.

Moliyaviy bozorning iqtisodiyotdagi mohiyati va roli uning funksiyalarida to'la ayon bo'ladi.

Moliyai bozorning funksiyalari:

— moliyaviy aktivlarda mujassamlangan qiymat va iste'mol qiymatining sotilishi;

— moliyaviy aktivlarni iste'molchilarga yetkazib byerish jarayonini tashkil etish;

— investitsiyalash va iste'mol qilish jarayonlarini moliyaviy ta'minlash;

— pul muomalasiga ta'sir etish;

Moliyaviy bozor davlat organlari tomonidan boshqarish ob'ekti hisoblanadi. Moliyaviy bozor boshqarish ob'ekti sifatida quyidagi ko'rsatkichlar bilan izohlanadi: bozorning hajmi, bozorning kon'yukturasi, moliyaviy aktivlarning talab va taklif muvozanatining darajasi va ushbu aktivlarni sotish shart-sharoitlari.

**Bozorning moliyaviy hajmi** deb bir yil mobaynida aniq moliyaviy aktivning mumkin bo'lgan maksimal sotilishi tushuniladi. Moliyaviy bozorning hajmi, ya'ni uning katta va kichikligi moli-

yaviy aktivning turiga, shu bozordagi raqobat darajasiga, bozor kon'yukturasi o'zgarishiga, baholar darajasiga, mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy holatiga bog'liqdir.

Bozorning moliyaviy kon'yukturasi — bu moliyaviy aktivlarning turlari bo'yicha (aksiyadolik jamiyatining aksiyalari) va moliyaviy aktivlarning ja'mi bo'yicha (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar) hozirda saqlanib qolgan turli omillarning ta'sirida talab va taklifning o'zaro munosabatidir. Mamlakatning siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy holati, iste'molchilarning daromadlari, baholar darajasi kabilar uning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Kon'yukturani o'rganish bozorni doimo kuzatib borishni taqazo qiladi.

Moliyaviy bozorning asosiy ko'rsatkichi baho hisoblanadi. Kon'yukturaning o'zgarishi bozor bahosining harakatida ifodalanadi.

Moliyaviy bozorning rivojlanishi uchun moliyaviy aktivlarga bo'lgan talab va taklifning o'zaro to'g'ri munosabati o'rnatilishi va balanslashuvi talab qilinadi.

**Moliyaviy aktivlarning talab va taklifi** dinamikali muvozanatda bo'lishi kerak. Bu esa bozorda taklif etilayotgan barcha aktivlarning o'z vaqtida sotilishini ta'minlaydi.

Shuni ko'zda tutish lozimki, moliyaviy aktivlar iste'mol mollari va xizmatlariga nisbatan yuqori likvidlik xususiyatiga ega. Ularni sotib olish va kerak bo'lsa zudlik bilan sotish mumkin. Bu o'z navbatida moliyaviy bozorda oldi-sotdi ishlarini bajarish uchun yaxshi sharoitni yaratadi. Shuning uchun bir sub'ektning o'zi moliyaviy bozorda har doim bir paytda moliyaviy aktivlarni sotib olishi va sotishi mumkin.

Moliyaviy bozor alohida mustaqil bo'lgan bozorlarning tizimidan iboratdir va ularning har biridan moliyaviy aktivlarning konkret turlari (sektorlari) ajralib turadi.

Moliyaviy bozorlarni tarqatilgan sohasi, moliyaviy aktivlarning asosiy guruhi, moliyaviy bozorlarning turi va ularning qanday tashkillantirilishi bo'yicha tasniflash mumkin.

**Davlat moliyaviy siyosati** — bu davlat faoliyatida moliyadan foydalanish uchun iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ekologik va ijtimoiy salohiyatni mustahkamlashdir.

Moliyaviy siyosat davlatning iqtisodiy siyosatining o‘zagi hisoblanadi.

Davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirish mexanizmi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Davlatning moliyaviy tizimini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish;

2. Umumdavlat va hududiy moliyani maustahkamlash bo‘yicha maqsadli dasturlarni tuzish;

3. Qo‘yilgan maqsadlarga erishish bo‘yicha aniq tadbirlarni ishlab chiqish;

4. Davlatning iqtisodiy siyosatida moliyaviy mexanizmdan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash.

Davlatning moliyaviy siyosati boshqaruvning makroiqtisodiyot mexanizmi sifatida o‘z ichiga boshqaruvning strategiyasi va taktikasini qamrab oladi.

Strategiya deyilganda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun umumiy yo‘nalish va tegishli usullardan foydalanish tushuniladi.

Moliyaviy strategiya moliya va moliyaviy tizimlarni rivojlantirish sohasida davlatning xatti-harakatlarini aniqlab byerishdan iboratdir.

Taktika deyilganda qandaydir maqsadga erishishda tanlangan usullar tushuniladi.

Moliyaviy taktika bu muayyan sharoitda qo‘yilgan maqsadga erishishning aniq metodlari va xatti-harakati demakdir.

Moliyaviy siyosatning mazmuni budjet va budjetdan tashqar-ifondlarning shakllanishi hisoblanadi.

#### **Byudjetning uch holati bo‘lishi mumkin:**

— defitsit, ya‘ni xarajatlarning daromadlardan oshib ketishi;

— ijobiy qoldiqning mavjudligi, ya‘ni daromadlarning xarajatlardan oshib ketishi;

— balanslangan, ya‘ni daromad bilan xarajatning tengligi.

Darhaqiqat, amalda daromad va xarajatlarning to‘la tengligiga erishish amrimahol. Shuning uchun balanslangan budjetda defitsit yoki ijobiy qoldiq umumiy xarajatlardan bir foizdan oshmagan bo‘lsa hisoblanadi.

Davlat moliyaviy siyosatining mazmuni moliyaviy stabilizatorlardan foydalanish mexanizmini tashkil etishdir.



Moliyaviy stabilizatorlarga quyidagilar kiradi:

— soliqlar va soliqqa tortish;

— davlat sug'urtasi;

— davlatning dotatsiyalari, subsidiyalari, subvensiyalari va tovon to'lovlari;

— fuqarolarning shaxsiy jamg'armalari.

Ushbu stabilizatorlarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri quyidagicha.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish salohiyatiga, ayrim tarmoqlarning, xo'jalik sub'ektlarining va tadbirkorlarning ish faoliyatiga soliqlar o'ziga xos tartibga soluvchi, rag'batlantiruvchi, taqsimlovchi va fiskal funksiyalari orqali o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Soliqlarning o'sishi o'z navbatida investisiyalarga bo'lgan talabning kamayishiga imkon yaratadi. Soliqlarning pasayishi xo'jalik sub'ektlarining va fuqarolarning erkin bo'lgan pul mablag'larini o'sishiga olib keladi. Bu esa kapital mablag'larga bo'lgan talabning darajasini ko'payishiga sabab bo'ladi.

Davlat sug'urtasi mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiyotini rivojlantirish darajasini va fuqarolarning farovonligini barqarorlashtirib turishga xizmat qiladi.

Dalatning dotatsiyalari, subsidiyalari, subvensiyalari va tovon to'lovlari ma'muriy-hududiy tuzilmalarning iqtisodiy salohiyatiga, fuqarolarning hayot darajasining pasayishiga va ishsizlikning ko'payishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Fuqarolarning shaxsiy jamg'armalari — bu ularning istiqbolda ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan pul mablag'larining bir qismidir. Iqtisodiyotning inqirozga uchrashi va uning asosida ro'y beradigan pulning qadrsizlanishi (inflyatsiya) o'z navbatida fuqarolarning shaxsiy jamg'armalarining kamayishiga olib keladi.

Fiskal stabilizatorlardan davlat va uning viloyatlarining budjetini shakllantirishda foydalaniladi.

Davlatning moliyaviy siyosati pul siyosati bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli, uni umumlashtirib pul-kredit siyosati deb atashadi.

Lekin „kredit“ mustaqil iqtisodiy kategoriya hisoblanmaydi. Kredit munosabatlari bu moliyaviy munosabatlarning bir qismi bo'lsa, kredit moliyaviy kategoriya hisoblanadi. Shuning uchun kredit siyosati — bu moliyaviy siyosatning bir qismidir.


**Davlatning pul siyosati** — bu mamalakatning to‘lov balansini yaxshilash va pulni qadrsizlanishdan saqlab turishda pul muomalasi sohasiga yo‘naltirilgan barcha tadbirlarning yig‘indisi hisoblanadi.

Davlatning pul siyosati joriy va uzoq muddatli moliyaviy siyosatdan iboratdir.

Davlatning moliyaviy siyosatiga quyidagilar kiradi:

- budjet siyosati;
- soliq siyosati;
- valyuta siyosati;
- kredit siyosati;
- moliyani boshqarish siyosati;
- hisob (diskont) siyosati.

Moliyaviy siyosat mazkur tizimni tartibga solish borasida ko‘p usul va uslublarni, o‘z ichiga oladi. Bunday tartibga solish usullari va usublari ikki, ya‘ni diflyatsion va refliyatsion guruhlarga bo‘linadi. Shu belgilar bo‘yicha davlatning moliyaviy siyosat tizimi diflyatsion va refliyatsion siyosatdan iborat bo‘ladi. Moliyaviy siyosatning tarkibi quyidagi 2- chizmada ko‘rsatilgan.



2- chizma. Moliyaviy siyosatning tarkibi.

**Budjet siyosati** — mamlakatning va o‘z-o‘zini mustaqil ravishda boshqaradigan ma‘muriy-hududiy tuzilmalarining moliyaviy rejalarini tuzish va bajarish bo‘yicha davlat hokimiyati organlarining faoliyatidan iboratdir.

Soliq siyosati — soliqqa tortish bo‘yicha davlatning tizimli tadbirlaridan iboratdir.

Valyuta siyosati — xalqaro valyuta-moliya tashkilotlarining va davlatning valyuta munosabatlari bo‘yicha amalga oshiradigan iqtisodiy, xuquqiy va tashkiliy shakl hamda uslublarining yig‘indisi hisoblanadi.

**Kredit siyosati** — bu kredit kapitalning harakatini boshqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiy uslublar va huquqiy normalarning yig‘indisi hisoblanadi.

Pul muomalasini tartibga solishning asosiy iqtisodiy uslublari quyidagilardir:

— birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmini aniqlash;

— ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning foiz stavklarining hisobi;

— uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va boshqalarida tijorat banklari joylashtiradigan majburiy rezervlarning me‘yorini belgilash.

**Hisob (yoki diskontli) siyosati** — kredit siyosati bilan uzviy bog‘liq. Kreditning hajmiga, pulning qadsizlanishining o‘shishiga, to‘lov balansining holatiga va boshqalarga ta‘sir ko‘rsatish maqsadida belgilangan hisob stavkasini oshirish yoki pasaytirish tadbirlari amalga oshiriladi.


**Hisob stavkasi** — bu hisob foizi miqdorini hisoblashda foydalaniladigan stavkadir. Hisob foizi qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar va veksellarni sotib olish uchun avans — bo‘nak sifatida undiriladigan pul to‘lovidir.

## 6- BOB. Moliyaviy menejment va moliyaviy mexanizm

„Menejment“ tushunchasini uch tomonlama ko‘rish mumkin: iqtisodiy boshqaruv tizimi sifatida, boshqaruv organi sifatida va tadbirkorlik faoliyati shakli sifatida. Menejment (ingliz. management boshqaruv) umumiy ko‘rinishda ishlab chiqarishni iqtisodiy boshqarish tizimi sifatida ta’riflanadi va u o‘z ichiga boshqaruvning tamoyillarini, uslublarini, shakllarini va usullarini qamrab oladi.

Moliyaviy menejment — bu pul oqimini, moliyaviy resurslarning harakatini va moliyaviy munosabatlarni tashkil etishni spesifik boshqarish tizimidir.

Moliyaviy menejment boshqaruv tizimi sifatida ikkiga bo‘linadi va uni sxematik ravishda quyidagicha taqdim etish mumkin.



3- chizma. Menejmentning umumiy sxemasi.

Moliyaviy menejmentda boshqaruv ob'ekti xo'jalik sub'ektlari bilan pul oqimlari, qiymatning aylanishi, moliyaviy munosabatlar va moliyaviy harakatlar orasida amalga oshiriladigan shart-sharoitlarning yig'indisidan iboratdir. Boshqaruv sub'ekti — bu maxsus odamlar guruhi bo'lib (moliyaviy direksiya boshqaruv apparati sifatida, moliyaviy menejer boshqaruvchi sifatida) ular turli boshqaruv shakllarining ta'siri ostida ob'ektning maqsadli faoliyatining amalga oshirilishidir.

**Birinchidan**, har qanday boshqaruv ob'ekti va har qanday jarayon tizimni anglatadi. Moliyaviy tizim ijtimoiy iqtisodiy tizimga kiradi. Ijtimoiy iqtisodiy tizimlarning bosh xususiyati shundan iboratki, ularning asosida insonning manfaati yotadi.

Har qanday tizim muayyan elementlardan iboratdir va ularning har biri o'ziga xos turli xususiyatlarga egadir.

1. Tizimning elementi faqat o'ziga xos funksiyani bajaradi va ushbu tizim boshqa element tizimlarini qaytarmaydi.

2. Element o'zining tizimidagi elementlar bilan uzviy bog'liq.

3. Element boshqa elementlar bilan o'zaro harakatda bo'lish qobiliyatiga ega. Bu esa tizimlarning yaxlitligidan dalolat beradi.

**Ikkinchidan**, sub'ektning boshqaruv ob'ektiga bo'lgan ta'siri, ya'ni boshqaruv jarayonining o'zi axborot boshqaruv ob'ekti bilan boshqaruvchi orasidagi axborotning faqat aylanish sharti bilan amalga oshirilishi mumkin.

**Uchinchidan**, moliyaviy tizim murakkab va ochiq tizim hisoblanadi.

**Moliyaviy menejment boshqaruv organi sifatida** xo'jalik sub'ektining bir qismi hisoblanadi. Yirik korxonalarda va aksiyadorlik jamiyatlarida shunday apparatni boshqarish moliyaviy direksiya orqali amalga oshiriladi. Uni moliyaviy direktor yoki moliyaviy menejer boshqarishi mumkin. Moliyaviy direksiya turli bo'linmalardan iborat bo'lib, uning tarkibiga moliya bo'limi, reja-iqtisod bo'limi, buxgaltyeriyasi, mehnat va ish haqi bo'limi va boshqalar kiradi.

Moliyaviy direksiyaning asosiy funksiyalari quyidagilar:

— xo'jalik sub'ektining moliyaviy rivojlanish maqsadini aniqlash;

— xo‘jalik sub‘ektini rivojlantirish uchun uning moliyaviy strategiyasi va moliyaviy dasturini ishlab chiqish;

— investitsion siyosatini aniqlash;

— kredit siyosatini ishlab chiqish;

— xo‘jalik sub‘ektlari uchun moliyaviy resurslar xarajatining smetasini o‘rnatish;

— pul oqimlari va xo‘jalik sub‘ektining moliyaviy rejasini ishlab chiqish;

— xo‘jalik sub‘ektining biznes rejasini ishlab chiqishda qatnashish;

— xo‘jalik sub‘ektining moliyaviy faoliyatini (pul mablag‘laridan foydalanish, foyda olish va boshqalar) ta‘minlash;

— sotuvchi va xaridorlar bilan pul hisoblarini amalga oshirish;

— buxgalterlik va statistik moliyaviy hisobni olib borish, xo‘jalik sub‘ektining buxgalterlik balansini tuzish;

— xo‘jalik sub‘ektini va uning bo‘linmalarini moliyaviy faoliyatini tahlil qilish.

Moliyaviy faoliyatni boshqarishda moliyaviy menejer eng asosiy o‘rinda turadi. Katta korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejerlarning guruhini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘lib, ularning har biriga muayyan ishning yo‘nalishi va aniq majburiyatlari yuklanadi. Bu guruhlarining boshida yetakchi moliyaviy menejer (lidmenejer) turadi. Moliyaviy menejerning faoliyati uning lavozim yo‘riqnomasi bilan belgilanadi.

Moliyaviy menejer boshqaruv faoliyatiga kontrakt bo‘yicha jalb etiladi. Oliy xizmatchi sifatida ish haqidan tashqari u foyda hisobidan mukofot pullarini olishi mumkin. Bunday mukofot puli **tant’ema** deb ataladi. Uning miqdori xo‘jalik sub‘ektining oliy boshqaruv organi tomonidan belgilab byeriladi.

**Moliyaviy menejment tadbirkorlik faoliyatining shakli sifatida** moliyaviy faoliyatni boshqarishga doir ma‘muriy va sof byurokratik ish bo‘lishi mumkin emas. Gap ijodiy faoliyat to‘g‘risida ketyapti. Moliyaviy menejment tadbirkorlik shakli sifatida rejalashtirishning ilmiy asoslarini, boshqarishni hamda moliyaviy tahlilni va yangilikni kiritishni (innovatsiya) ko‘zda tutadi.

Moliyaviy menejment moliyaviy tadbirkorlik shakli sifatida mustaqil faoliyat turi hisoblanishi mumkin. Bu faoliyatni professional

menejerlar ham moliyaviy institutlar (trast-kompaniyalar va boshqalar) ham bajaradilar.

Moliyaviy menejmentning mohiyati tadbirkorlik shakli sifatida quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.



Moliyaviy menejmentning faoliyat ko'rsatish joyi moliyaviy bozordir.

Moliyaviy bozorda moliyaviy resurslar va investitsiyalar, ularning qiymati bilan iste'mol qiymatini sotuvchi va sotib oluvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlari kuzatiladi. Moliyaviy resurslarni ishga solishda va moliyaviy munosabatlarni boshqarishda moliyaviy bozorning faoliyat ko'rsatishi tadbirkorlik uchun asos yaratadi. Moliyaviy menejmentni samarali qo'llashda faqat moliyaviy dastaklarni amalda qo'llash yo'li bilan erishiladi.

**Moliyaviy menejmentning vazifalari.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning rivojlanishini ta'minlaydigan moliyaviy manbalarni topish, moliyaviy resurslarni eng samarali investitsiyalash yo'nalishlarini aniqlash, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qilish masalalari muhim vazifalar qatoriga kiradi va o'ta dolzarb muammolardan hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan masalalarning ja'mi birgalikda **moliyaviy menejment** fanining predmetini tashkil etadi.

Ma'lumki, moliyaviy masalalarni boshqarishda moliyaviy resurslar eng qulay shart-sharoitlarda ishlab chiqarishga jalb qilinadi va ular eng samarali yo'l bilan investitsiyalanadi, qimmatli qog'ozlarni moliya bozorida sotish va sotib olish orqali foydali operatsiyalar amalga oshiriladi. Moliyaviy menejment sohasida yutuqqa erishish ko'p jihatdan moliyaviy bo'lim xizmatchilariga bog'liq bo'lib, ulardan tashabbus, noana'naviy yechimlar, o'tkaziladigan operatsiyalarning keng ko'lamliligi, tavakkalchilik va ishchanlik talab qilinadi.

Mulkdorlar korxonaning pul mablag'larini o'zlarining ehtiyojlarini qondirishga jalb qilar ekanlar, moliya bo'limi xizmatchilari bu resurslarni investitsiyalash maqsadlarini aniq belgilab olishlari va shu asosda ularni amalga oshirish bo'yicha tegishli yo'l-yo'riqlarni ko'rsatishlari darkor.

Korxonaning qarzga bo'lgan qisqa va o'rta muddatli ehtiyojlarini qondirish uchun kredit beruvchi idoralardan foydalanish zarur. Rekonstruksiya yoki korxonani kengaytirish uchun yirik masshtabli kapital qo'yilmalarni amalga oshirishda esa qimmatli qog'ozlar emissiyasidan foydalanish mumkin. Qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularni joylashtirish nihoyatda murakkab, nozik va sermashaqqat jarayon hisoblanadi. Buning uchun moliyaviy bozor kon'yunkturasini va potensial investorlar psixologiyasini chuqur bilish va har tomonlama o'rganish lozim.

Undan tashqari korxonada boshqaruvi moliyaviy resurslarni jalb qilish shakli sifatida oddiy va imtiyozli qimmatli qog'ozlar emissiyasini (aksiya yoki obligatsiya) hal etishi va ularning asosida eng yuqori foyda olishni ta'minlashi kerak.

Korxonada faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri vaqtinchalik bo'sh bo'lgan moliyaviy resurslarning unga qo'shimcha foyda keltiradigan eng samarali investitsiyalash yo'nalishlarini aniqlashdan iboratdir. Moliyaviy bozorda moliyaviy menejerlar tomonidan tuziladigan bitimlarda qimmatli qog'ozlar muomalasining o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni nominal, emissiya narxi, bozor kursining tebranishi va boshqalarni e'tiborga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Korxonaning moliyaviy menejerlari pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarga investitsiyalashda quyidagi tamoyillarga asoslanishlari kerak:

— qimmatli qog'ozlarni shunday investitsiyalash kerakki, natijada korxonada doimo ma'lum miqdordagi pul mablag'lari qolishi lozim;

— biror bir emitentning qimmatli qog'ozlarini sotib olishdan avval uning faoliyatini har tomonlama mukammal o'rganish,



moliyaviy holati dinamikasini tahlil qilish va moliyaviy maslahatchidan tegishli maslahatlarni olish lozim;

— qimmatli qog'ozlar portfelini divyersifikatsiyalash lozim;

— qimmatli qog'ozlari sotib olingan emitentning moliyaviy holatini doimiy monitoringini tashkil etish kerak;

— faqatgina daromadlilikni emas, balki ishonchlilikni ham e'tiborga olish zarur.

Moliya nafaqat iqtisodiy kategoriya, balki u bir paytning o'zida xo'jalik sub'ektining ishlab chiqarish va savdo jarayonlariga ta'sir ko'rsatadigan vositadir. Bunda uning ta'siri moliyaviy mexanizm orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy mexanizm tarkibiga beshta bir-biriga bog'liq bo'lgan elementlar, ya'ni moliyaviy uslublar, moliyaviy richaglar, huquqiy, me'yoriy va axborot ta'minoti kiradi.

Moliyaviy uslubni xo'jalik jarayoniga moliyaviy munosabatlar ta'siri sifatida izohlash mumkin. Moliyaviy uslublar ikki yo'nalishda harakat qiladilar. Birinchisi — bu moliyaviy resurslarning harakatini boshqarish bo'yicha va ikkinchisi — bozorning tijorat munosabatlari bo'yicha.

Moliyaviy uslublarning harakati pul fondlarini jamlash va ulardan unumli foydalanishdan iboratdir.

Moliyaviy richag moliyaviy uslubni amalda qo'llanilishidan iboratdir. Moliyaviy richaglarga foyda, daromadlar, amortizatsiya ajratmalari, iqtisodiy — maqsadli fondlar, moliyaviy sanksiyalar, ijara to'lovi, qarzlar bo'yicha stavka foizlari, depozitlar va obligatsiyalar kiradi.

Misol uchun, kreditlash — bu moliyaviy metoddir. U xo'jalik jarayonining natijalariga kreditning turlari va shakllari, foiz stavkalari, moliyaviy sanksiyalar va boshqa shunga o'xshash usullar orqali o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Moliyaviy mexanizm faoliyatining huquqiy ta'minoti qonuniy hujjatlarni, qarorlarni, buyruqlarni, xatlarni va boshqaruv organlarining boshqa huquqiy hujjatlarini o'z ichiga oladi. Undan tashqari moliyaviy mexanizm faoliyatining me'yoriy ta'minoti yo'riqnomalarni, normativlarni, me'yoriy hujjatlarni, tarif stavkalarini, metodik

ko'rsatmalarni va boshqalarini yuzaga keltiradi. Moliyaviy mexanizm faoliyatining axborot ta'minoti turli-tuman iqtisodiy, tijorat, moliyaviy va boshqalar ma'lumotlardan tashkil topadi. Moliyaviy barqarorlik to'g'risidagi ma'lumot, o'zining sheriklari va raqobatchilarining to'lash qobiliyati, baholar, kurslar, dividendlar, tovar, fond va valyuta bozorlaridagi foiz stavkalari va boshqa turdagi har xil ma'lumotlar moliyaviy axborotning o'zagini tashkil etadi. Kimki, qancha ko'p axborotga ega bo'lsa, u moliyaviy bozorga ham ega bo'ladi.

Yuqori malakaga ega bo'lgan moliyaviy menejer har doim tegishli axborotni olishga harakat qiladi va undan o'zining manfaati uchun foydalanadi. Axborot asta-sekin, ya'ni toma-toma yig'iladi, oqibatda mashaqqat bilan yig'ilgan ushbu axborot katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydali axborotga ega bo'lgan moliyaviy menejer moliyaviy va tijorat qarorlarini tez qabul qila oladi. Bu esa o'z navbatida uning ish faoliyatini keskin yaxshilaydi va foydaning ko'payishiga olib keladi.

Moliyaviy menejerning faoliyati uchun o'ta zarur axborotlarga ega bo'lishi moliyaviy va tijorat masalalari yuzasidan zudlik bilan to'g'ri qaror qabul qilishga va ularni amalga oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tabiiyki, buning natijasida korxonada ishlab chiqarayotgan mahsulotining hajmi va uning asosida oladigan foydasining miqdori keskin darajada oshadi.

### ***Mustaqil o'rganish uchun savollar***

1. Moliyaning mohiyati va zarurligini tushuntirib bering.
2. Moliyaning vazifalari nimalardan iborat?
3. Moliyaning asosiy belgilarini qanday qilib aniqlab olish mumkin?
4. Moliya va moliyaning tizimlarini batafsil aytib bering?
5. Moliyani boshqarishning qanday usullarini bilasiz?
6. Moliyaviy mexanizm va uning tarkibi nimadan iborat?

---

## 7- BOB. Davlat budjeti va uni boshqarish

Budjet — bu yuridik hujjat bo‘lib, u mamlakatning bir kalendar yilga mo‘ljallangan va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan daromad va xarajatlarlarining jami-dan iboratdir. U davlatning markazlashgan jamg‘armasi sifatida moliyaviy mablag‘larni qayta taqsimlashning samarali qurolidir. Qayta taqsimlash jarayonlari takror ishlab chiqarishni davlat tomonidan muvofiqashtirish makroiqtisodiy omillarning yig‘indisiga bog‘liq ma‘lum ob‘ektiv choralarga ega.

Takror ishlab chiqarish iqtisodiy va ijtimoiy muvofiqlashtirish ishlarining yo‘nalishi barcha teng kuchli shart-sharoitlarda moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlanishi manbalarining eng oqilona mutanosibli va markazlashgan moliyalanish yo‘naltirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Shu orqali budjet taqchilligida moliyalar yuzasidan inflyatsiyadan tashqari qurollardan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Moliyalash muammosiga chiqim nuqtai nazaridan yondoshish qayta taqsimlash mexanizmini qo‘llash borasida oqilona chegaralarga to‘sqinlik qiladi. Bu esa ma‘lum paytda budjet taqchilligi ko‘rsatkichining eng yuqori nuqtaga yetishiga olib keladi, ya‘ni davlatning nafaqat ichki, balki tashqi qarzlarni ham samarali boshqara ololmasligini bildiradi.

Davlat budjeti xo‘jalik, ijtimoiy-iqtisodiy chora va tadbirlar, mudofaa ehtiyojlarini qondirish va davlat boshqaruvini moliyalash hamda budjet fondini tashkil etish va undan unumli foydalanish, davlatning yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida milliy daromadni (qisman milliy boylikni ham) taqsimlash kabi ishlarni amalga oshirishda yuz beradigan pul munosabatlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Davlatning budjet mexanizmi budjet siyosatini hayotga tatbiq qilishda faol vosita hisoblanadi. U tarixan va mantiqan budjet bilan bog‘liq bo‘lganligi tufayli uni rivojlantirish jarayonida jamoa tomonidan ko‘riladigan va hal etiladigan turli muammolar

bo'yicha, albatta, o'z ta'sirini u yoki bu darajada ko'rsatadi. Ma'lumki, mavjud bo'lgan muammolarning o'zgarishi va uning asosida yangilarining paydo bo'lishi, o'z navbatida, budjet mexanizmining tarkibi ham boshqacha tus olishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti o'zining rolini saqlab qoladi, lekin oldingi tuzimga nisbatan hozirgi talabga xos bo'lgan uni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan ayrim uslublari o'zgaradi xolos.

1995 yildan e'tiboran O'zbekiston Respublikasida budjet tasniflagichi joriy qilingan. Byudjet daromadlari qatoriga asosiy bandlar kiritilgan va ular quyidagilardan iborat:

Soliq daromadlari, shu hisobda foyda, daromad sarmoya o'sishiga tegishli bevosita daromadlar; mehnatga haq to'lash jamg'armasiga bog'liq holda undiriluvchi soliqlar; mulk soliqlari; tabiiy boyliklardan foydalanganlik uchun olinadigan to'lovlar; tashqi savdo va tashqi iqtisodiy amaliyotlardan olinadigai soliqlar; boshqa soliqlar.

Soliqdan tashqari daromadlar, shu hisobda: davlat tassaru-fidagi mulkdan yoki faoliyat natijasida ko'rilgan daromadlar; davlat zahiralari sotuvidan ko'rilgan daromadlar; yer va nomoddiy aktivlar sotuvidan ko'rilgan daromadlar; nodavlat manbalaridan olingan sarmoya transfert tushumlari; ma'muriy to'lovlar; jarimalar, maxsus xizmat haqi; tashqi iqtisodiy faoliyat natijasida ko'rilgan daromadlar; soliqdan tashqari boshqa daromadlar.

Beg'araz pul o'tkazmalari, shu hisobda: norezidentlardan, boshqa darajadagi hokimliklardan, budjetdan tashqari nodavlat jamg'armalaridan, davlat korxonalar va muassasalaridan, milliy mavqeidan tashqaridagi tashkilotlardan olingan pul o'tkazmalari.

O'zbekiston Respublikasi *budjet sarf-xarajatlari* xizmat tasniflagichida quyidagi bandlar va tarmoqlar ajratib ko'rsatilgan:

- davlat boshqaruvi;
- xalqaro faoliyat;
- milliy mudofaa;
- xuquqni himoya qilish va havfsizlikni ta'minlash;
- ulkan tadqiqotchilik va ilmiy-texnik taraqqiyotga ko'maklashish;
- sanoat;

- energetika va qurilish;
- qishloq xo‘jaligi;
- atrof muhitni va tabiiy boyliklarni qo‘riqlash;
- gidrometeorologiya, kartografiya va geodeziya;
- transport va yo‘l xo‘jaligi;
- aloqa va axborotchilik;
- bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- uy-joy-kommunal xo‘jaligi;
- tabiiy ofat va favqulodda hodisalarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilish;
- ta‘lim, madaniyat va san‘at;
- ommaviy axborot vositalari, sog‘liqni saqlash va jismoniy tarbiya;
- ijtimoiy siyosat;
- davlat qarzi yuzasidan xizmatlar, davlat zahiralari to‘ldirish;

— boshqa bandlarga kiritilmagan turli sarf-xarajatlar.

**Budjet sarf — xarajatlarining iqtisodiy tasnifligichi** quyidagi bandlardan iborat:

**joriy sarf-xarajatlar** mol-mahsulot va xizmatlar tayyorlovi foiz to‘lovlari, yordam pul ajratmalari va joriy transfertlar;

**katta sarf-xarajatlar:** asosiy jamg‘armalarga sarflangan katta xarajatlar, davlat zahiralari va ehtiyot mablag‘larini tashkil qilish va yer va nomoddiy aktivlarni sotib olish, katta transfertlar: kredit berish, qoplangan kreditlar bu hisobga kirmaydi.

Budjet taqchilligini ichdan moliyalash manbalari quyidagilardan iborat:

— O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining kreditlari: bank hisob raqamlarida mavjud bo‘lgan so‘mdagi budjet mablag‘ qoldiqlarining o‘zgarishi;

— davlat qimmatli qog‘ozlari, shu jumladan davlat g‘azna majburiyatlari, oltin sertifikatlar, davlat g‘azna veksellari, boshqa qimmatli qog‘ozlar;

- davlat nobudjet jamg‘armalaridan olingan kreditlar;
- boshqa darajadagi budjetlardan olingan kreditlar;
- o‘z ichida qarzga olingan boshqa mablag‘lar.

Budjetni tashqaridan moliyalash manbalari sifatida quyidagilar xizmat qiladi;

— xalqaro moliyaviy tashkilotlarning kreditlari;

— xorijiy davlat hukumatlarining kreditlari;

— xorijiy tijorat banklari va firmalarining kreditlari;

— bank hisob raqamlarida mavjud chet el valyutasidagi budjet mablag' qoldiqlarining o'zgarishi;

— O'zbekiston Respublikasi Davlat jamg'armasi oltin zahirasining o'zgarishi;

— tashqaridan qarzga olingan boshqa mablag'lar.

Budjetning daromadlari mamlakatning budjet fondini shakllantirish jarayonida davlatning korxonalar, tashkilotlar va fuqarolar o'rtasida bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarini aks ettiradi.

Bu iqtisodiy munosabatlar korxonalar, tashkilotlar va fuqarolarning davlat budjetiga o'tkazgan turli moliyaviy to'lovlari tufayli sodir bo'ladi. Budjet fondiga yo'naltiriladigan pul mablag'lari uning moddiy-ashyoviy qiymati hisoblanadi.

Budjet daromadlari, bir tomondan, ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflansa, ikkinchi tomondan davlat ixtiyorida bo'lgan pul mablag'larini maqsadli yo'nalishlar bo'yicha taqsimlangan va uning asosida amalga oshiriladigan turli-tuman tadbirlarga hamda hududlar, tarmoqlar budjetini shakllantirish uchun ishlatiladi.

Ma'lumki, soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan yuridik shaxslar o'rtasida o'rnatiladigan pul munosabatlari orqali belgilanadi.

Soliqlar o'z navbatida ikki xil funksiyani bajaradi, ya'ni fiskal va iqtisodiy.

Fiskal funktsiya yordamida budjet fondi shakllansa, iqtisodiy funksiyada ishlab chiqarishni rivojlantirishga va uning kapitalining ko'payishiga hamda fuqarolar va umuman aholi to'lov qobiliyatining o'sishiga u yoki bu darajada ta'sir etadi.

Soliqlar tizimi to'g'ri va egri soliqlardan iboratdir.

Birinchisi bevosita soliq to'lovchining olgan daromadi yoki mulkining hajmiga qarab belgilanadi.

Ikkinchisi — tovarning qiymatiga (narxiga) va bajariladigan

xizmatlarning turlariga qarab belgilangan tarifga binoan qo‘shimcha to‘lovlari asosida amalga oshiriladi.

To‘g‘ri soliqlar o‘z navbatida real, ya‘ni sotilayotgan mulkning ayrim turlaridan to‘lanadigan hamda yuridik va jismoniy shaxslardan daromad yoki deklaratsiya bo‘yicha undirib olinadigan soliq'larga bo‘linadi. Bunda to‘g‘ri soliqlarning bittasi — faqat yuridik, ikkinchisi — faqat jismoniy va uchinchisi ikkala tomondan to‘lanadi.

Egri soliqlar o‘z xususiyatlari bo‘yicha bir turda emas, ular uning tarkibida aksiyalar ajralib turadi. Shu bilan birga ular individual va univyersal, fiskal monopoliyalar va bojxona bojlari bo‘lishi mumkin.

Yuridik shaxslardan undirib olinadigan soliq'lar orasida eng asosiysi korxonalarining daromadi (foydasi) ga solinadigan soliq hisoblanadi.

To‘g‘ri soliqlar yuridik shaxslardan va egri soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliq'lardan tashkil topadi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq'lar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Korxonalar daromadi (foydasi)ga solinadigan soliq.
2. Tijorat banklari va sug‘urta jamoalarining daromadiga solinadigan soliq.
3. Korxonalar mulkiga solinadigan soliq.
4. Korxonalar tomonidan sarflangan suvga solinadigan soliq.
5. Renta to‘lovlari.
6. Boshqalar.

**Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliq'lar quyidagilardan iborat:**

1. Yer solig‘i.
2. Qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiya solig‘i.
3. Davlat boji.
4. Reklama solig‘i.
5. Avtomashina va hisoblash texnikasini sotishdan olinadigan soliq.
6. Boshqalar.

**Jismoniy shaxslarga solinadigan soliq'lar:**

1. Daromad solig‘i.
2. Ishlab chiqarish solig‘i.

3. Meros tartibida o‘tadigan mulkka solinadigan soliq.
4. Avtotransport to‘xtash joyidan foydalanganlik uchun soliq.
5. Maqsadli yig‘imlar.
6. Boshqalar.

### **Egri soliq turiga kiruvchi soliqlar:**

1. Aksizlar.
2. Fiskal monopoliyalari.
3. Bojxona bojlari.

### **Soliqlardan tashqari budjetga kelib tushadigan daromadlar:**

- Davlat mulkini ishlatganlikdan tushgan daromadlar;
- Obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar sotuvidan tushgan daromadlar;
- Davlat mulkini umumdavlat xususiyashtirish dasturi asosida sotishdan tushgan daromadlar;
- Davlat mablag‘larini investitsiya qilishdan foizlar, dividendlar asosida kelib tushgan daromadlar;
- Yuqori daromadli korxonalar va firmalarning qimmatli qog‘ozlarini sotishdan tushgan daromadlar.

Budjet xarajatlarining turli xil ko‘rinishlari va rolini aniqlash uchun ularni odatda aniq va har birining o‘ziga taaluqli bo‘lgan alomatlar bo‘yicha tasniflanadi.

Davlat budjetining xarajatlari ikki qismdan, ya’ni moddiy ishlab chiqarishni va nomoddiy sohani rivojlantirishdan iboratdir.

Xarajatlarning iqtisodiy guruhlanishi bo‘yicha davlat tomonidan bajariladigan funksiyalar — iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqalarni ifodalaydi.

Davlat budjeti xarajatlarining ishlab chiqarish tarmoqlari buyicha guruhlanishi: sanoat, qishloq xo‘jaligi, kapital qurilish, transport, aloqa, savdo va boshqalarini rivojlantirishga qaratilganini bildiradi.

Davlat budjeti xarajatlarining ishlab chiqarishdan tashqari faoliyat ko‘rsatuvchi tarmoqlari bo‘yicha guruhlanishi: xalq ta’limi, san’at, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, davlat boshqaruvi va boshqalardan iboratdir.



Shunday qilib, ijtimoiy yo‘nalishni kuchaytirish zarurati mablag‘larni shu sohaga ajratishni taqozo etadi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning krizis holati, o‘n yillab davom etadigan agrar sektorning qoloqligidan dalolat beradi, budget mablag‘larining zarurligini va moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini, ilg‘or texnologiyalar va texnikalar bilan qayta qurollantirishni va boshqalarni taqozo qiladi.

Davlat budjetida hozircha quyidagi maqsadli moliyalashtirish mavjud:

Dotatsiyalar.

1. Nomoddiy ishlab chiqarish sohalarining muassasalari va tashkilotlari bo‘yicha operatsion xarajatlar.

2. Ish haqi xarajatlari.

3. Kapital ta‘mirlash.

Bunday moliyalashtirish davlat budjetidan xarajatlarning har bir aniq turlari bo‘yicha ajratib beriladi va u davlat tomonidan amalga oshiriladi. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida budget mablag‘lari xarajatlarning tizimi quyidagi muhim o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Korxonalarining o‘zlariga yuklangan majburiyatlarini bajara olmaganligi tufayli sodir bo‘lgan og‘ir moliyaviy ahvolni (qarzlarni) dotatsiya qilishni asta-sekin tugatish.

2. Markazlashtirilgan kapital mablag‘larni va qurilayotgan ob‘ektlarni oqilona aksiyalashtirishni qisqartirish hisobiga davlatning ishlab chiqarish investitsiyalaridagi ishtirokini minimum darajaga olib kelish.

3. Oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarining narxlari orasidagi farqni qoplash uchun avvalgi ajratilgan dotatsiyalarni bekor qilish.

4. Davlat mulkini xususiyashtirish dasturini izchil amalga oshirish va davlat iqtisodiyot sohalarini keskin qisqartirish.

5. Budget mablag‘larini sarflashda qat‘iy tejamkorlik qilish. hozirgi sharoitda davlat budjeti hisobidan ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish. Ta‘limni rivojlantirish milliy dasturining, sog‘liqni saqlashni, madaniyatni va ijtimoiy ta‘minlashni moliyalashtirishning davlat zimmasida bo‘lishi.

## ***Mustaqil o'rganish uchun savollar***

1. Davlat budjeti tushunchasi nimadan iborat?
2. Ijtimoiy - iqtisodiy hayotda davlat budjetining mohiyati va roli haqida so'zlab bering.
3. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti masalasi qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. Davlat budjetining daromad va xarajat qismlarining mazmunini aytib byering.
5. Byudjetning tuzilishi to'g'risida gapirib byering.
6. Mahalliy budjet va budjetdan tashqari fondlar qanday boshqariladi?

## **8- BOB. Budjetni tashkil etish va budjet jarayoni**

Byudjet jarayoni — bu hokimiyat organlari tomonidan budjetni tuzish, uni taqdim etish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va uni ijro etish, shuningdek ularni o‘z vaqtida bajarilishini doimo nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan hamma bosqichlarini tashkil etishdan iboratdir.

„Budjet jarayoni“ atamasi bir tomondan budjetni ishlab chiqishni va uni qabul qilishni, ikkinchi tomondan uning bajarilishini va uchinchi tomondan uning bajarilishini nazorat qilishni tartibga solishning yuridik va noyuridik prinsiplarini anglatadi.

Budjet jarayoni O‘zbekiston Respublikasida budjet siyosatining quyidagi, univyersallik, birlik, yillik, mustaqillik va ixtislashuv prinsiplariga asoslangandir.

1. Univyersallik prinsipi budjet o‘z ichiga barcha daromadlarni va xarajatlarni qamrab olishi kerakligini anglatadi.

2. Budjet xujjatlarining bik necha turi mavjudligiga qaramasdan, faqat bitta, ya’ni oxirgi asos qilib olinishi kerak bo‘lgan hujjat birlik prinsipini anglatadi.

3. Yillik tamoyili har bir moliyaviy xo‘jalik kalendar yiliga faqat bitta budjet mavjud bo‘lishi lozimligini anglatadi. O‘zbekistondagi iqtisodiy va sotsial — ijtimoiy budjet tanqisligi sharoitida ushbu qoidaga nisbatan ko‘p sonli mutanosibliklar mavjud.

Budjetni talab va taklif qonuniga binoan yil davomida o‘zgartirib turish oddiy hol bo‘lib qolgan. Bunda xo‘jalik kalendar yili chegaralarini kengaytirish o‘rinlidir. Jarayonlar bo‘yicha yetishmovchiliklarni aniqlab qoplash uchun mo‘ljallangan davr 31 dekabrda boshlanib to kelgusi yilning 1 fevraligacha davom etuvchi hisob davri yoki „ortiqcha kunlar“ davri rasmiy ravishda qonunlashtiriladi.

4. Mustaqillik prinsipi har bir bo‘limda o‘zining xususiy daromad manbai borligini ta’minlovchi huquqni va yo‘nalishlar bo‘yicha foydalanish va xarajat qilishni anglatadi.

5. Ixtisos prinsipi budjetning har bir moddasi nafaqat aniq mablag'lar summasini, balki xarajatning maqsadini anglatadi. Modda - budjetning asosiy birligi hisoblanadi, budjet esa moddalarga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi va Senatning qarori bilan tasdiqlanadi.

O'zbekistan hududida budjet jarayonining asosiy bazasi bo'lib uni tasniflash (sinflarga ajratish) hisoblanadi.

Budjetlarni ishlab chiqishdan oldin tayyorlov ishlari bajari-ladi. U aniq belgilangan va o'zaro bog'langan bosqichlarga bo'linadi.

Birinchiidan, budjet bilan bog'liq bo'lgan joriy yildagi huj-jatlarni o'rganish.

Ikkinchiidan, keyingi yil vazifalarini va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

Uchinchiidan, hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish is-tiqbolini bir yildan besh yilgacha bo'lgan muddatga belgilab berish.

To'rtinchiidan, hokimiyat organlariga navbatdagi moliya yilining boshlanishidan 12- oy oldin budjet istiqboli to'g'risidagi axborotni taqdim etish.

Budjet jarayoni o'z ichiga to'rtta bosqichni oladi:

Budjet loyihasini tayyorlash, uni ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijro etish.

### **Budjet loyihasini ishlab chiqish.**

Respublika Prezidenti moliya yili boshlanishiga 18 oy qolgan-da, hukumatga (ushbu asosda tegishli hududiy tuzilmalarning ma'muriy hokimiyat boshliqlarining ijro etuvchi hokimiyat or-ganlariga) ijtimoiy va moliyaviy normativlar, asosiy inflyatsiya koeffitsiyentlari, budjet ta'minoti, soliq tushumlari va boshqalari sohasida budjet loyihasini tuzish bo'yicha tegishli hisob-kitoblarni boshlash to'g'risida topshiriq beradi.

Quyidagi budjetlarning loyihalarini tayyorlashni ta'minlash uchun Moliya vazirligi, viloyat va shahar moliya boshqarmalari, budjetni ishlab chiqish va nazorat raqamlarini kelishib olish maqsadida tegishli ishlarni boshlab yuboradilar. Hukumat hududiy tuzilmalarning umumlashtirilgan budjet loyihalarini aniqlash,

tuzatishlar kiritish va tegishli huquqiy hokimiyat organlariga taqdim etish maqsadida ko'rib chiqadi.

Endi tegishli ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan tayyorlanadigan budjet sohasini ko'rib chiqamiz. Hududlar miqyosida kelishilgandan keyin viloyat budjet loyihasi aniqlashtirilib va uni ko'rib chiqish uchun o'zini-o'zi boshqaruvchi mahalliy qonuniy hokimiyat organlariga topshiriladi.

### **Budjet loyihasini ko'rib chiqish.**

Qonuniy hokimiyat organi raisining yoki uning o'rinbosarining topshirig'iga binoan doimiy tarmoq komissiyalari tomonidan ularga taqdim etilgan viloyat budjeti loyihasini ko'rib chiqadilar va budjet — moliya komissiyasiga 1 dekabrgacha bo'lgan muddatda o'z xulosalarini beradilar. Agar xarajatlar bo'yicha yangi moddalar kiritilsa, unda daromadlarning manbasi yoki qisqartirilishi kerak bo'lgan xarajatlarning moddasi ko'rsatiladi.

Ijro etuvchi va qonuniy hokimiyat organlarining mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan taqdim etilgan budjet loyihasini ko'rib chiqish davri mobaynida kelishmovchilik bayonnomalari bilan ishlash uchun ustuvor nufuzli komissiya tashkil etadilar.

### **Budjetni tasdiqlash.**

Budjet tegishli qonuniy hokimiyat organi tomonidan yangi yilgacha bo'lgan muddatda tasdiqlanadi. Budjet loyihasi to'g'risidagi doklad ma'muriyat rahbari yoki uning o'rinbosari va qo'shimcha doklad esa — budjet-moliya komissiyasining raisi tomonidan qilinadi.

Qabul qilingan viloyat budjeti o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- daromadlarning hajmi;
- xarajatlarning hajmi;
- budjet defitsiti (budjet daromadlarining xarajatlaridan ko'pligi);
- joriy xarajatlarning hajmi;
- rivojlantirish xarajatlarning hajmi;
- kassadagi naqd pullarning aylanishi;
- budjetning daromadli manbalari;
- budjet daromadlarining imzosi;

- himoya qilingan moddalarning ro‘yxati;
- tartibga solinadigan daromadlar bo‘yicha me‘yoriy ajratmalar;
- quyi hududiy budjetlarga byeriladigan dotatsiyalar va sub-sidiyalar;
- tahririyat komissiyasi tomonidan qabul qilingan o‘zgarishlar;
- budjetni ijro etuvchi organlarga va mas‘ul shaxslarga beriladigan topshiriq.

Qabul qilingan qaror va tasdiqlangan budjet to‘g‘risidagi qonun tegishli axborot vositalari tomonidan chop etiladi va bir oy mobaynida aholiga yetkaziladi.

### **Budjetning ijrosi.**

Viloyat doirasida o‘z-o‘zini boshqaruvning ijrochi hokimiyat organi budjet ijrosi tartibini uni tasdiqlangan kundan boshlab ikki hafta mobaynida o‘rnatadi.

Agar budjetni bajarishda belgilangan defitsit darajasi oshib ketsa, unda mahalliy hokimiyat organlari va boshqarmalar xarajatlarni qisqartirish (sekvestra) mexanizmini kiritish to‘g‘risida kelishilgan qaror qabul qiladilar.

Budjetni bajarish mobaynida viloyat hukumati qonuniy hokimiyatni budjetning bajarilishidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida ogohlantirib qo‘yadi. Uning asosida kelishilgan tadbirlar va qarorlar qabul qilinadi.

Budjet ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni ijrochi hokimiyat tasdiqlash uchun qonuniy hokimiyat organiga keyingi yil mart oyining 30 sanasigacha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi o‘rnatgan shakl bo‘yicha taqdim etadi.

### **Budjetning ijrosini nazorat qilish.**

Budjetning ijrosini nazorat qilish qonuniy hokimiyat organi tomonidan amalga oshiriladi. Viloyat hukumati har uch oyda (har chorakda) qonuniy hokimiyat organiga budjetning bajarilishi to‘g‘risida tegishli axborotni berib turadi va uning asosida tahlil qilinadi.

Hokimiyat rahbariyatining qarori binoan budjet mablag‘lari hisobidan o‘z faoliyatida mustaqil va mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruv hokimiyati moliyaviy tizimlariga bog‘liq bo‘lmagan maxsus nazorat guruhi tuzilishi mumkin.

## ***Mustaqil o'rganish uchun savollar***

1. Davlatni rivojlantirishda soliq tizimining roli qanday?
2. Yuridik shaxslarning daromadiga (foyda) solinadigan soliqdan budjetga to'lov va ajratmalar nimadan iborat?
3. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadiga va yalpi daromadiga solinadigan soliq. Kichik korxonalar uchun o'rnatilgan umumiy soliq.
4. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i.
5. Qo'shimcha qiymat solig'i.
6. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga aksiz solig'i. O'zbekiston Respublikasi hududiga chetdan keltiriladigan va Respublika hududidan chetga chiqaziladigan aksiz osti mahsulotlarga aksiz solig'i.
7. Mulk solig'i.
8. Yer va suv resurslaridan foydalanish solig'i.
9. Davlat hokimiyati organlari tomonidan kiritilgan soliq va yig'imlar.
10. Bojxona yig'implari va bojlari.

---

## 9- BOB. Korxonada moliyasini boshqarish

Mamlakatning iqtisodiy tizimining bozor sharoiti va munosabatlariga o'tishi bilan bizning ob'ektiv iqtisodiy kategoriya sifatidagi moliya to'g'risidagi tasavvurimiz asta-sekin o'zgarib bormoqda. Shu munosabat bilan hozirgi kunda, korxonada moliyasining mavjudligi to'g'risida gap ketganda, faqat davlat mulki shakliga taalluqli korxonalar xususida gapirish mumkin. Boshqa hamma sharoitlarda biz moliya bilan emas, balki moliyaviy menejment ko'rinishidagi korxonaning moliyaviy (pul) xo'jaligi bilan ish yuritishini ko'ramiz. Shuning uchun moliyaning xususiyatini o'rganishda korxonaning moliyaviy (pul) xo'jaligi faoliyatining xususiyatlarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonada moliyaviy (pul) xo'jaligi faoliyatining xususiyatlari quyidagi omillarga bog'liqdir:

- korxonada o'z faoliyatini tijorat orqali yoki tijoratga asoslangan holda amalga oshirishiga;
- xo'jalik shaklining tashkiliy huquqiy va korxonada tasarrufidagi mulkchilik turi qandayligiga;
- va nihoyat korxonada qanday faoliyat turi bilan shug'ullanadi, ya'ni uning tarmoqqa ta'alluqliligi.

Shuning uchun moliyaviy munosabatlarni tabaqalashtirishdan oldin mulkchilikning turi nuqtai nazaridan ularni tasniflash zarur.

Bu, eng avvalo, shu bilan bog'liqlik, mulkiy munosabatlar, mulkni paydo bo'lishini va kengaytirishni shakllantirish, sof foyda va qaytadan yaratilgan qiymatni taqsimlash shakllari korxonada moliyaviy xo'jaligining asosini tashkil etadi.

Raqobatsiz xo'jalik yuritishning bozor muhitini rivojlanishini tasavvur qilish mumkin emas, chunki har bir mustaqil xo'jalik sub'ekti o'zi tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlar uchun barcha mas'uliyatni o'z bo'yniga olishga va javob byerishga qodir bo'lishi kerak.



Umumiy holda, xususiylashtirish yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan davlat va mahalliy hokimiyat organlaridan korxonalar va uning bo'linmalari uchun sotib olingan mulkni, ya'ni korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlarini, ulushlarini, davlatning aksiyalarini, shirkat va qo'shma korxonalarini, banklarni, konsernlarni va boshqalarini anglatadi. Xususiylashtirish jarayonini amalga oshirishdan keyin, mulkdor o'z ixtiyoriga ko'ra mulkiga egalik qiladi va undan foydalanadi. Qonunga binoan korxonani barpo etish, uni qayta tuzish va tugatish, faoliyat turini tanlash, moliyaviy resurslarga egalik qilish, firmani rivojlantirish bo'yicha moliyaviy siyosatni mustaqil ravishda olib borish, nazorat qilish, mulkdan va pul mablag'laridan samarali foydalanish masalalarini hal qilish huquqiga egadir.

Mulkdor tadbirkorlik faoliyatini mustaqil ravishda yoki sub'ektning, ya'ni tadbirkorning yordamida amalga oshirishi mumkin va uni boshqarish huquqiga ega. Xo'jalik yuritish chegaralari mulkdor tomonidan o'rnatiladi. Mulkdor va sub'ekt o'rtasida (tadbirkor bilan) tadbirkorlik faoliyatini yuritishga bitim tuziladi. Shundan so'ng mulkdorning korxonalar faoliyatiga aralashishga huquqi bo'lmaydi. Bitim tuzilgandan so'ng tadbirkor korxonalar nomidan uning manfaatlarini ko'zlab hokimiyat organlarida, firma va boshqa korxonalarda mulkdor tomonidan beriladigan ishonch qog'ozsiz harakat qilish huquqiga ega bo'ladi (turli bitimlar va kelishuvlarni tuzish; bank muassasalarida joriy va valyuta hisob raqamlarini ochish; ma'muriy faoliyatni amalga oshirish; mahsulotlarni ishlab chiqarish, xizmatlarni ko'rsatish va ularni sotishda moliyaviy resurslardan foydalanish).

Shu bilan birga tadbirkor o'z aybi bilan korxonaga keltirilgan moddiy zarar uchun ham to'la moddiy mas'ul hisoblanadi. Agar tadbirkor va mulkdor bitta shaxs bo'lsa, u holda mulkdor korxonalar faoliyatini o'zi olib boradi va davlat budjeti oldidagi majburiyatini bajarganidan so'ng qolgan foydaga to'liq holda egalik qilish huquqiga ega bo'ladi.

Tadbirkor faoliyati oxir oqibatda ta'minlovchilar, iste'mol qiluvchilar, raqobatchilar, soliq va bank tashkilotlari, aksiyador va investorlar bilan o'zaro munosabatlar orqali aniqlanadi.

Xususiy korxonalar bir shaxs yoki oila tomonidan tashkil etilishi mumkin. Xususiy korxonaning mulki uning egasiga tegishli bo'lib,

o'z navbatida mulkdorlarning daromadlari va boshqa qonuniy manbalari bilan bir qatorda, korxonada fondini tashkil etish manbai hisoblanadi. Shunday qilib, xo'jalik yuritishning berilgan shu shaklida, tashqaridan tadbirkorlikka to'liq erkinlik beriladi. Lekin bugungi kunda huquqiy madaniyatning pastligi va tegishli sharoitlarning yo'qligi tufayli, ko'pincha turli xil suiiste'molchilikka yo'l qo'yilmoqdaki, bu mulkchilikning iqtisodiy imkoniyatlariga putur yetkazadi.

Ijtimoiy birlashmalar o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilot bo'lib jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish maqsadida tuziladi. Ular bino, inshoot, pul mablag'lari va shu kabi mulkli bitimga asosan yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'satadilar. Bu ijtimoiy tashkilotlar nizomida ko'rsatilgan faoliyatdan tashqari tadbirkorlik bilan ham shug'ullanishlari mumkin.

To'liq o'rtoqchilik jamiyati. Uning ishtirokchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamkorlikda amalga oshiriladigan u yoki bu dasturlar yoki tadbirlarni bajarish uchun o'zlarining moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslarini birlashtiradilar. To'liq o'rtoqchilikda jamiyatning mulki uning ishtirokchilari qo'yilmalari hisobiga shakllanadi, lekin kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarishda ular umumiy mulkga qo'shgan ulushidan qat'i nazar, bir xil javobgarlikka egadirlar. To'liq o'rtoqchilik yuridik shaxs hisoblanmaydi. To'liq o'rtoqchilikning har bir a'zosi teng huquqqa, va majburiyatlarga egadirlar, shuning uchun ularning har biri uni boshqarishda ishtirok etishlari mumkin.

Korxonalarining keyingi bir shakli bu ma'suliyati cheklangan o'rtoqchilik jamiyati bo'lib, u nisbatan kengroq tarqalgandir.

Ma'suliyati cheklangan o'rtoqchilik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi, shuningdek uning a'zolarining huquq va majburiyatlari aks ettirilgan o'z nizomiga egadir. O'zining ustav jamg'armasini esa faqat ishtirokchilarning qo'yilmalari hisobiga shakllantiradi. Ta'asis qiluvchining ma'suliyati umumiy jamg'armaga qo'shgan hissasi doirasida bo'ladi. O'rtoqchilikning o'zi esa o'zining butun mulki bilan ma'suliyatlidir. Shuningdek, ishtirokchilarning ulushi shartnomada belgilangan miqdor bilan aniqlanadi va shu shartnomaga asosan olingan foyda umumiy mulkka qo'shgan hissasiga mos ravishda taqsimlanadi.

Ko'pincha ma'suliyati cheklangan o'rtoqchilikni yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati deb ham atashadi. Haqiqatan ham ularning ko'pgina tashkiliy-iqtisodiy tomonlarida umumiylik bor. Shunday qilib ma'suliyati cheklangan o'rtoqchilik jamiyati singari yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida ham ishtirokchilarning ustav jamg'armasi umumiy shartnoma asosida aniqlanadi.

Kiritilgan mablag' aksiya bilan qondiriladi, ammo erkin muomalada bo'lmaydi, shuningdek garov bo'lib xizmat qila olmaydi va shu u jamiyatning a'zolaridan tashqari boshqa hech kimga sotilmaydi.

Amalda, bunday jamiyatda aksiyalar chiqazilmaydi, faqat jamiyat jamg'armasiga kiritilgan ulushni tasdiqlovchi yozuv orqaligina ifoda etiladi. Aksiyadorlar majburiyatlari ham ularning individual qo'yimalari doirasida belgilanadi. Umuman jamiyat o'z qarzlari yuzasidan o'zida mavjud bo'lgan bor mulk doirasida javob beradi.

Yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati, xuddi yopiq turdagi o'rtoqlik jamiyati singari, o'z moliyaviy faoliyati to'g'risida hisobotini nashr qilmaydi. Lekin na yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati, na mas'uliyati cheklangan o'rtoqlik jamiyati o'z faoliyatini uzoq muddatga moliyalashtirish maqsadida aksiya yoki obligatsiya chiqarish orqali chet el investorlarini jalb qila olmaydilar.

Mas'uliyati cheklangan o'rtoqlik jamiyati ishlab chiqarish kooperativi yoki ijarachi — korxonalar shaklida ham tashkil etilishi mumkin.

Ishlab chiqarish kooperativida qo'shma xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatini olib borish maqsadida ixtiyoriy ravishda jismoniy shaxslar birlashadilar. Bu maqsadda ular yoki o'z mulklarini, yoki umumiy mulk miqdorida pul vositalarini birlashtirishlari mumkin. Agar majburiyatini bajarish uchun umumiy mablag'lar yetarli bo'lmasa qarzni qoplash uchun shaxsiy kooperativ a'zolarining shaxsiy mulklari ham jalb qilinishi mumkin.

Ijara korxonalarini o'zlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini shartnomaga asosan ijaraga olingan mulki asosida amalga oshiradilar. Ijara shartnomasiga binoan mulk zudlik va to'lov sharti bilan foydalanish maqsadida beriladi, bunda shartnomada mulkni sotib olish ham ko'zda tutilishi mumkin.

Agar mulk ijaraga berilgan bo'lsa, u holda ijarachi mulkning mulkdori bo'la olmaydi. Ijarachi o'zining tadbirkorlik faoliyati yuzasidan ishlab chiqargan mahsuloti, olgan daromadi va foydasiga o'zi egalik qiladi. Keyinchalik ijarachi korxonaga o'zining olgan daromadi hisobidan ijaradagi mulkni sotib olsa, u ijarachining mulkiga aylanadi. Agar shartnoma ijaradagi mulkni keyinchalik sotib olish sharti bilan tuzilgan bo'lsa, korxonani ochiq turdagi o'rtoqlik jamiyatiga o'zgartirish huquqi bo'ladi. Bu holatga, ta'assischilar qatorida tegishli mulkni boshqarish qo'mitasi ham taalluqli bo'ladi.

Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati bu birgalikda xo'jalik faoliyatini olib borish maqsadida birlashgan yuridik va jismoniy shaxslarning birlashmasi bo'lib, uning ishtirokchilari aksiyadorlar hisoblanadi.

Bu holatda aksiyalar firmani uzoq va o'rta muddatga tashqaridan moliyalashtirish maqsadida moliyaviy resurslarni safarbar qilishning bir usuli sifatida foydalaniladi. Aksiyadorlik jamiyatining mol-mulki aksiyalarni ochiq sotishi hisobidan shakllanadi. Yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari boshqa aksiyadorliklar bilan kelishilmagan holda ham hohlagan shaxsga berilishi (sotilishi) mumkindir.

Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'ladi, shuning uchun nominal qiymatdan tashqari har bir aksiya jumladan firmaning raqobatbardoshligiga bog'liq bo'lgan bozor qiymatiga ega bo'ladi.

Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati kreditorlar oldida faqat o'z mulki doirasida javobgardir, binobarin, aksiyadorlar o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida mas'uldirlar. Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatining mol-mulkleri aksiyalarni sotishdan, foyda olishdan va boshqa manbalar hisobidan shakllanadi.

### **Korxonaning asosiy kapitali va uni takror ishlab chiqarishda moliyaning roli**

Korxonaga asosiy kapitalini ishlab chiqarishda moliyaning rolini o'rganish quyidagi tushunchalarni chegaralashni taqazo etadi. Xususiy kapital — bu real asosiy kapital bilan nomoddiy aktivlarning yig'indisi bo'lib, aylanma mablag' bilan bir qatorda korxonaga ustav jamg'armasini tashkil etadi.

Real asosiy kapital korxonaning asosiy fondlari mol-mulk-larini sotib olish yoki tugallanmagan qurilishga qilingan sarf-xarajatlardan iborat. Asosiy fondlarning tarkibiga korxonaning aktiv va passiv qismlari kiradi.

Asosiy fondlarning aktiv qismi — mashina, asbob-uskular, xo'jalik jihozlari, kuzatuvchi moslamalar, transport vositalari va shu kabilardan iborat. Asosiy fondlarning passiv qismi — bu bino, inshootlar, yer uchastkalari va qazilma boyliklar va shu kabilardan tashkil topadi. Bundan tashqari asosiy fondlarning ishtirokiga qarab, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga ajratish mumkin.

Korxonaning nomoddiy aktivlari ishlab chiqarishni tashkil qilish, yangi texnika va texnologiyani o'zlashtirish, aksiya va obligatsiya chiqarish bilan bog'liq xarajatlar orqali ifodalanishi mumkin. Bundan tashqari, korxonaga o'z mablag'ining ma'lum qismini litsenziya, patent va tovar belgilari kabilarni sotib olishga sarflashi ham mumkin.

Shunday qilib, real asosiy kapital bilan nomoddiy aktivlar yig'indisi korxonaga miqyosidagi asosiy kapitalni tashkil etadi. Asosiy kapitalning hamma tashkil etuvchilari korxonaga balansiga kiritilayotganda balans qiymati orqali baholanadi.

Nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya mablag'lari ularning balans qiymatini amortizatsiya ajratmalarining me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan shakllanadi. Bunda amortizatsiyaning me'yori nomoddiy aktivini xizmat muddatiga qarab korxonaning o'zi o'rnatadi, lekin bu muddat 10 yildan oshmasligi kerak. Agar shartnomada uning qiymati korxonaga xarajatlariga o'tkazilgan bo'lsa ham aynan shu muddat ko'rsatilishi kerak.

Shunday qilib, amortizatsiya ajratmalari asosiy kapitalni takror ishlab chiqarishning asosiy shaxsiy manbaiga korxonaning jamg'arma fondi mablag'lari, investitsion soliq krediti mablag'lari, qurilishning o'zida tashkil bo'ladigan mablag'lar kiradi. Bundan tashqari, yuqoridagi maqsadlarni moliyalashtirish va kreditlash-tirishda bankning uzoq muddatli kreditlari, budjet ajratmalari va boshqa manbalar (chet el investitsiyalari, qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va sotish tartibiga jalb qilingan mablag'lar va hakazo)dan foydalaniladi.

## Aylanma mablag'lar va ularni moliyaviy boshqarish

Har qanday korxonada normal faoliyat ko'rsatishi uchun asosiy kapital bilan bir qatorda aylanma kapitalga ham ega bo'lishi kerak.

Aylanma kapital — bu ishlab chiqarishning aylanma fondlari va muomaladagi fondlarini barpo etish uchun zarur bo'lgan pul mablag'laridir. Ishlab chiqarishdagi aylanma fondlarning va muomaladagi fondlarning mavjudligi pul mablag'larining aylanishi uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratadi. Bu esa o'z navbatida korxonaning yakuniy natijasi bo'lmish foydani yuzaga keltiradi. Bu jarayon uchta bosqichda olib boriladi, ular aylanma kapitalning doiraviy aylanish bosqichlari deb ataladi.

Birinchii bosqich muomala sohasida amalga oshadi. Bunda korxonadagi mavjud bo'lgan pul mablag'larini, ya'ni korxonada tashkil topgan vaqtdagi yoki tovar va xizmatlarni sotish orqali tushgan pul mablag'lari ishlab chiqarish jarayonini boshlash (yoki davom ettirish) maqsadida tovar-moddiy boyliklarga aylantiriladi. Bunday tovar-moddiy boyliklarning yig'indisi ishlab chiqarish zahiralari deyiladi. Aylanma kapitalning doiraviy aylanishining birinchi bosqichi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$P \rightarrow T \rightarrow IChZ$ ;

Bu yerda: P — korxonaning tashkil bo'lgan vaqtidagi yoki mahsulot (xizmat) ni sotish orqali topgan pul mablag'lari;

T — korxonada tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etish (yoki davom ettirish) maqsadida sotib olingan tovar — moddiy boyliklar;

IChZ — ishlab chiqarish zahiralari, ya'ni korxonada omborida mavjud bo'lgan tovar - moddiy boyliklar.

Aylanma kapital doiraviy aylanishining ikkinchi bosqichi ishlab chiqarish jarayoni deb ataladi. Bu bosqichda ishlab chiqarish zahiralari ish kuchi ta'siri ostida tayyor mahsulotga aylantiriladi, ya'ni tugallanmagan ishlab chiqarish moddiylashtiriladi va aynan shu jarayon korxonaning foyda olishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Bu bosqichni quyidagicha ifodalash mumkin:

$IChZ \rightarrow TCh \rightarrow TM$ ;

Bu yerda: TICH- tugallanmagan ishlab chiqarish;

TM — tayyor mahsulot.

Bunda shuni ta'kidlab o'tish kyerakki, ishlab chiqarish zahiralari ombor hisobidan chiqazilib ularni ishlab chiqarishga o'tkazish vaqtida tugallanmagan ishlab chiqarish shakliga o'tadi.

Uchinchi bosqichda aylanma kapital yana muomala sohasiga qaytadi. Unda tayyor mahsulot realizatsiya qilinadi. Aylanma kapital doiraviy aylanishi pulning korxonaga hisob raqamiga tushishi bilan yakunlanadi.

TM - > T > P ; bu yerda:

T — tovar shaklida ifodalangan, ya'ni o'z xaridoriga ega bo'lgan korxonaning tovar mahsulotlari (tovarlar, ish va xizmatlari);

P — korxonaning tashkil bo'lgan vaqtidagi yoki mahsulot (xizmat)ni sotish orqali topgan pul mablag'lari. Shunday qilib, aylanma kapitalning to'liq doiraviy aylanishini sxematik ko'rinishda quyidagicha ifoda eta olamiz.

P-> TChZ -> TICH -> TM -> T -> P

Shundan kelib chiqqan holda:

$$P=P+AP$$

bu yerda: AP — aylanma kapitalning o'zgargan miqdori. Agar  $AP > O$  bo'lsa, demak aylanma kapital ko'paymagan hisoblanaadi, ya'ni korxonaga norentabel yoki boshqacha qilib aytganda, zarar bilan ishlayotgan bo'ladi. Bu yerda shuni aytish lozimki, korxonaning normal faoliyat ko'rsatishi va kapitalning doiraviy aylanishi uzluksiz bo'lishi uchun aylanma vositalar bir paytning o'zida, ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida va hamma shakllarida bo'lishi kerak, chunki aylanma vositalar biron-bir elementining ishlab chiqarishda bo'lmasligi, ya'ni kerak vaqtda yo'q bo'lishi doiraviy aylanishning to'xtashiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan ta'rifga binoan, aylanma kapital ikki qismga bo'linadi:

ishlab chiqarishning aylanma fondlari;  
muomala fondlari.

Ishlab chiqarish aylanma fondlari quyidagilardan tashkil topadi:  
— mehnat ashyolari (xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'ilar);

— mehnat vositalari (yukni tashish jihozlari, ehtiyot qismlar, buyum va asboblari, kam qiymatli va tez yemiriluvchi vositalar);

— tugallanmagan ishlab chiqarish;

— istiqboldagi xarajatlar.

Muomala fondlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— korxonaning tayyor mahsulot zahirasi qo'shgan mablag'lari;

— korxonada hisob raqamidagi va kassasidagi pul mablag'lari;

— hisob-kitobdagi mablag'lari.

Ma'lumki, aylanma kapital doimo ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va shu kabi shakllarda bir vaqtning o'zida harakatda bo'ladi.

Demak, korxonada bir vaqtning o'zida ishlab chiqarishning aylanma fondlari va muomala fondlariga ega bo'ladi. Shuning uchun har bir korxonada unga zarur bo'lgan aylanma fondlarni xarid qilishga qodir bo'lishi kerak, ya'ni mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish jarayonini yetarli darajada ta'minlay oladigan aylanma kapitalga ega bo'lishi kerak.

Buning uchun korxonada quyidagi aylanma kapital mablag'larini shakllantirishi mumkin:

— o'zining;

— qarzga olingan;

— jalb qilingan.

Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan aylanma vositalar — bu korxonada tashkil bo'lgan vaqtdan boshlab yoki takror ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulotni sotish natijasida yaratilgan aylanma kapitaldir. Korxonaning aylanma vositalarining shakllanish manbalari va ularning miqdorini aniqlash haqida keyinroq bayon etiladi. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bu vositalar aylanma kapitalning barcha elementlarini optimal ravishda ta'minlash uchun zarurdir.

Korxonaning qarzga olgan aylanma vositalari — bu qisqa muddatli bank ssudalari bo'lib, vaqtincha zarur bo'lgan ehtiyojini qo-



plashga belgilangan muddatda qaytarib berish, uni o'z vaqtida ta'minlash va to'lash shartlari bilan jalb qilingan mablag'lardir. Aylanma kapitalni shakllantirishga jalb qilingan manbaga asosan boshqa korxonalarining, kreditorlik qarz mablag'lari kiradi. Aylanma kapitalni shakllantirishda va miqdorini aniqlashda, korxonalar aylanma kapitalini tashkil etish prinsiplariga bog'liq bo'lgan uning ayrim elementlarining turli xarakterlarini ham hisobga olishlari kerak.

Aylanma kapitalning ayrim elementlarini tashkil etishning ikki prinsipi mavjuddir:

1. Aniq optimal miqdor (normativ) doirasida aylanma kapitalning elementlarini shakllantirish;

2. Chegaralanmagan aylanma kapitalning elementlarini, ya'ni normalashtirilmagan aylanma vositalarni shakllantirish.

Normalashtirilgan aylanma kapitalga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish zahiralari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- istiqbolidagi xarajatlar;
- tayyor mahsulot.

Normalashtirilmagan aylanma kapitalga quyidagilar kiradi: korxonaning hisob raqami va kassasidagi pul mablag'lari; hisobdagi mablag'lar.

Aylanma kapitalning normalashtirilgan va normalashtirilmagan qismlarga bo'linishining asosiy sababi shundan iboratki, uning normalashtirilgan qismi azaldan aniq berilgan miqdor (normativ) dan ko'p yoki kam bo'lishi mumkinmas normalashtirilmagani esa xohlagancha ko'p bo'lishi mumkin.

Aylanma kapitalni boshqarishda uning ikki prinsipini hisobga olish kerak, chunki bunga amal qilinmasa olinadigan foyda kamayib ketishi mumkin.

Aylanma mablag'lar normativining yuqori bo'lishi, o'z navbatida, ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan zahiralarning ko'payishiga olib keladi. Ishlab chiqarish zahiralari ko'payishi va foyda kamayishining asosiy sabablaridan biri — bu aylanma kapital aylanish tezligining sekinlashuvidir.

Shunday qilib, aylanma kapitalni boshqarishdagi moliyaviy munosabatlarning o'zgarishi faqat uni o'tgan davr bilan taqqoslaganda vujudga keladi. Ushbu moliyaviy munosabatlar ikki turga bo'linadi:

— aylanma mablag' ko'paygan holda qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi munosabatlar;

— aylanma mablag' kamaygan holda ortiqcha qo'shimcha moliyaviy resurslardan foydalanishdagi munosabatlar.

Birinchi holatda korxonada aylanma mablag'lar normativining o'sishini shakllantirish manbalarini izlash borasida muammo paydo bo'ladi.

Ushbu o'sishning moliyaviy manbalari quyidagilardan iboratdir:

- korxonaning o'z mablag'lari;
- banklarning qisqa muddatli kreditlari;
- budjetdan ajratmalar.

Aylanma mablag'lar normativining o'sishi o'zining manbalari hisobidan, korxonaning jamg'arma fondi hisobidan, yoki oldingi yillarda vujudga kelgan ortiqcha aylanma mablag'lari hisobidan, shuningdek barqaror passivlar summasining ko'payishi hisobidan moliyalashtirilishi mumkin bo'ladi.

Barqaror passivlarga quyidagilar kiradi:

- ishchi va xizmatchilarga to'lanadigan ish haqining minimal qarzdorligi (ijtimoiy sug'urtasi bilan);
- istiqboldagi xarajatlar va to'lovlarni qoplash rezyervi;
- qisman tayyor bo'lgan mahsulotga haq to'lash tartibida olingan kreditorlarning mablag'lari;
- sotib oluvchilar tomonidan qaytariladigan taralar bo'yicha kafolatlangan mablag'lar.

Umuman olganda, moliyaviy ahvolning barqarorligi, barcha aylanma kapitaldan samarali foydalanish orqali ta'minlanadi.

Aylanma kapitaldan samarali foydalanishning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- korxonaning to'lovchanlik qobiliyati;
- korxonaning likvidligi;
- aylanma kapitalning aylanish tezligi;
- korxonaning moliyaviy barqarorligi va boshqalar.

## **Daromadlar va pul xarajatlari. Ularni moliyalashtirish manbalari**

Har qanday korxonaning faoliyati uning yil mobaynida erishgan natijasi, ya'ni shu davrda olgan daromadi bilan baholanadi.

Umumiy daromadni korxonaning o'zining daromadi va ishchilarning daromadiga bo'linadi. Ishchilarning daromadi ish haqi hisoblanadi.

Agar umumiy daromaddan ish haqini ayirib tashlansa, unda asosan umumiy yoki yalpi foyda qoladi. O'z navbatida yalpi foyda quyidagilarga bo'linadi:

- mahsulotni (xizmatlarni) sotishdan olingan foyda;
- ishlab chiqarishdan tashqari olingan foyda;
- sotuvdan tashqari olingan foyda.

Mahsulotni (xizmatlarni) sotishdan olingan foyda sotishdan tushgan umumiy mablag'dan (qo'shimcha qiymat va aksiz soliqlaridan tashqari) ishlab chiqarishga sarflangan va mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni ayirmasiga teng bo'ladi.

Sotishdan tushgan umumiy mablag' — bu pul mablag'lari-dir. Qo'shimcha qiymat va aksiz soliqlarining miqdori O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida qabul qilingan qonun asosida davlat tomonidan belgilanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar o'z mazmuni jihatidan asosan avanslangan hisoblanadi, ya'ni mahsulotni (ishlar va xizmatlarni) sotishdan tushgan mablag'ni qoplash manbai sifatida taxmin qilinadi. Shuning uchun mahsulotni sotishdan tushgan mablag'ning ishlab chiqarish xarajatlarini va uni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplashga ketgan ayrim qismi korxonaning daromadi (foydasi) hisoblanmaydi (amortizatsiya moddasidan tashqari). Amortizatsiya o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra korxonaning daromadi hisoblanadi, chunki kelgusida asosiy fondlarning yemirilgan qismini qoplash va ularni qayta tiklash uchun ularga boshqa ortiqcha xarajat qilinmaydi. Shu sababli mahsulotning qiymatiga u kiritilmaydi.

Sotuvdan tashqari olingan foyda uni sotishdan olingan daromaddan shu daromadni olish uchun zarur bo'lgan xarajatlarning ayirmasiga tengdir. Boshqa sotuvlarga korxonaning o'z mulki bo'lgan va uning asosiy faoliyatining natijasi bo'lmagan barcha tovar-modiy boyliklar va nomaterial aktivlar kiradi. Buni boshqacha qilib aytganda, masalan, korxonaga uchun ortiqcha va kerak bo'lmagan dastgohlar, uskunalar, asboblari, kam qiymatga ega bo'lgan va tez emiriladigan va shunga o'xshash boshqa buyumlarni sotish deb tushunish kerak.

Bundan tashqari boshqa sotuvlarga korxonaning tashqaridan olib sotgan mahsulotlari (moddiy boyliklar) va o'zining intellektual mulkini sotishi ham kiradi.

Sotuvdan tashqari bo'lgan jarayondan olingan foyda miqdori umumiy daromaddan shu jarayon bilan bog'liq bo'lgan xarajatning farqiga teng bo'ladi.

Ushbu daromadlar (xarajatlar) tarkibiga quyidagilar kiradi:

— boshqa korxonalar ishtirok etgan faoliyatining ulushidan olingan daromadlar;

— o'zgalarning mulkini ijaraga olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

— korxonaga tegishli bo'lgan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan daromadlar (zararlar).

Korxonaning passivlari barqarorligining o'zgarishi:

— korxonaning ishlab chiqarishi (ishlar va xizmatlar) va sotish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan jarayonlardan olingan boshqa daromadlar (xarajatlar); (Bunga iqtisodiy sanksiya sifatida olingan va yo'qotilgan pul mablag'lari ham qo'shiladi).

Yuqorida keltirilgan korxonaning barcha daromadlaridan tashqari boshqa daromadlar deb ataluvchisi ham mavjuddir. Ularga korxonalarining, tashkilotlarning va shaxslarning badallari, o'tkazgan mablag'lari (pullari) va o'z ixtiyorlari bilan yordam uchun bergan mablag'lari (transfertlari) kiradi. Jumladan maktabgacha tarbiya muassasalariga, bolalarni boqish va tarbiya qilish uchun ularning ota-onalari tomonidan tushgan mablag'lar, boshqa korxonalarining va tashkilotlarning umumiy tadbirlarini, ya'ni infrastrukturani tashkil etish, birgalikda uylarni qurish va shunga o'xshash ishlarni amalga oshirish uchun o'tkaziladigan mablag'lar va hokozolar.

Shunday qilib, yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni aytish lozimki, korxonalarning hamma daromadlarini quyidagicha shaklda ifodalash mumkin:

1. Umumiy daromadlar  $D=DR+Dp$ ;

2.  $DR=ZP$

3.  $DP=PR+PRP+VRP+PD$ ;

4.  $PR=V-RDS-A-SS$ ;

5.  $PRP=Dpr-Rpr$ ;

6.  $VRP=Dvr-Rvr$ ;

7.  $PD=T$ .

Bu yerda:

D — umumiy daromadlar;

Dr — yollanma ishchi va xizmatchilarning daromadlari;

Dp — korxonaga egalarning daromadlari;

ZP — yollanma ishchi va xizmatchilarning ish haqi;

PR — mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) sotishdan olingan foyda;

PRP — boshqa sotuvdan tushgan foyda;

PD- korxonaning boshqa daromadlari;

V — mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) sotishdan tushgan tushum;

NDS — qo'shimcha qiymat solig'i;

A- aksizlar;

SS — mahsulotning (ishlar va xizmatlar) tannarxi;

Dpr-(Rpr) — boshqa sotuvdan olingan daromadlar (xarajatlar);

Dvr (Rvr) — sotuvdan tashqaridagi jarayonlardan olingan daromadlar(xarajatlar);

T — korxonalar, tashkilotlar va shaxslarning transfertlari;

Korxonaning olgan daromadlari ikki asosiy fondlardan iboratdir:

1. Iste'mol fondi.

2. Jamg'arma fondi.

Iste'mol fondi ishchi va xizmatchilarning ish haqini to'lash va jamg'arma fondi esa korxonaning ishlab chiqarishi va ijtimoiy rivojlantirilishi uchun xizmat qiladi.

Hozirgi sharoitda korxonalar olgan foydalarini taqsimlash borasida sifat o'zgarishlarini boshidan o'tkazmoqda.

Birinchiidan, korxonaning majburiyatlarini bajarish uchun budjetga soliqlarni to'lash va bankdan olingan qarzlar, qarzlarning foizi va boshqalarning yetarli bo'lishi;

Ikkinchiidan, o'zining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojining zarur bo'lgan mablag'lar bilan ta'minlanishi;

Uchinchiidan, tadbirkorlik bozorlarini keskin ko'tarish sharoitida korxonaning rezyervini shakllantirishga yo'naltirilishining juda muhimligi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun korxonadan bir qancha xarajatlar (pul mablag'lari) qilinadi. Bu xarajatlarni quyidagi guruhlariga taqsimlash mumkin:

korxonaning asosiy kapitalini kengaytirish va tiklashni shakllantirish bilan bog'liq xarajatlar;

aylanma kapitalning doiraviy aylanishida ishtirok etadigan tovar-moddiy boyliklardan foydalanish va sotib olish bilan bog'liq xarajatlar;

korxonaning qarzlarini to'lash bilan bog'liq pul xarajatlari;

tub va notub xarakterga ega bo'lgan gohida sarf qilish bilan bog'liq xarajatlar;

noishlab chiqarish xarakteriga ega tadbirlar uchun qilinadigan xarajatlar.

Birinchi guruh xarajatlariga yangi qurilish va asosiy ishlab chiqarish fondlarini sotib olish, ishlab chiqarishni kengaytirish, jumladan yangi sexlarni qurish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini qayta tiklash, modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

Ikkinchi guruh xarajatlarga, odatda, mahsulotning tannarxiga qo'shiladigan tovar-moddiy boyliklar kiradi. Bu xarajatlar xomashyoni, yarimfabrikat holdagi mahsulotlarni, enyergiyani, yoqilg'ini va boshqalarni sotib olish uchun qilinadi.

Uchinchi guruh xarajatlarga o'z navbatida ikkita, ya'ni bu — korxonaning o'zi va undan tashqarida bo'ladigan xarajatlar kiradi.

Birinchisi, asosan mahsulotning tannarxiga kiritiladigan xarajatlar bo'lsa, ikkinchisi — korxonadan to'lanadigan barcha soliqlar, jumladan, foyda solig'i, mulk solig'i, yer solig'i va

boshqalar hamda davlat va nodavlat fondlariga qilinadigan ajratmalardir (nafaqa, ijtimoiy va tibbiy sug'urtalar).

Gohida bo'ladigan tub va notub xarakterli xarajatlar guruhi quyidagi sarflarni o'z ichiga qamrab oladi:

— operatsion xarajatlar (kon — qidiruv xarajatlari, o'rmonni tiklash va yer usti qurilish ishlari);

— yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqish va o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

— ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va tashkil etish bilan bog'liq notub xarakterli xarajatlar;

— ixtirochilik va ratsionalizatorlik bilan bog'liq xarajatlar va boshqalar.

2- shakl.

### Korxonalarining daromadlari, xarajatlari va fondlarining tarkibi

<b>Daromadlar va tushumlar</b>	<b>Korxonalarining fondlari</b>	<b>Korxonaning sarf-xarajatlari</b>
<p>1. Korxonaning daromadlari.</p> <p>1.1. Mahsulotning (ishlar va xizmatlar) sotuvidan olingan foyda.</p> <p>1.2. Boshqa sotuvlardan olingan foyda.</p> <p>1.3. Sotuvdan tashqari jarayonlardan olingan foyda.</p> <p>1.4. Boshqa daromadlar (transfertlar).</p> <p>2. Moliya-kredit tizimidan bo'lgan tushumlar.</p> <p>2.1. Banklarning va boshqalarning kreditlari.</p> <p>2.2. Budget mablag'lari.</p> <p>2.3. Sug'urta to'lovlari.</p>	<p>1. Iste mol fondi.</p> <p>2. Jamg'arma fondi</p> <p>3. Boshqa maxsus fondlar.</p>	<p>1. Asosiy kapitalni shakllantirish, kengaytirish va tiklashga.</p> <p>2. Aylanma kapitalni takrorlash uchun tovar-moddiy boyliklarni sotib olishga.</p> <p>3. Ichki va tashqi qarzlarni uzishga.</p> <p>4. Gohida bo'ladigan tub xarakterli xarajatlarga.</p> <p>5. Korxonaning pul mablag'larini investitsiyalashga.</p> <p>6. Noishlab chiqish xarakteridagi tadbirlarga.</p>

Ushbu shakldan quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Korxonalarining moliyaviy (pul) xo'jaligi — bu daromadlarni shakllantirishdagi iqtisodiy munosabatlarning yig'indisidir. Ularni tegishli fondlar bo'yicha taqsimlash va xarajatlarni qoplash uchun takror ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlash bilan bog'liq mablag'lardan foydalanish zarurdir. Bunda korxonalarining resurslari yetishmagan holda, ularning o'z ehtiyojlarini qoplash uchun iqtisodiy tizim doirasida faoliyat ko'rsatayotgan tegishli moliya-kredit va tashkilotlarining mablag'larini jalb qiladilar.

### ***Mustaqil o'rganish uchun savollar***

1. Korxonalarining moliyasini boshqarish.
2. Moliya faoliyatining o'ziga xosligi.
3. Ijtimoiy birlashmalar.
4. To'la o'rtoqlik.
5. Mas'uliyati cheklangan o'rtoqlik.
6. Ishlab chiqarish kooperativlari.
7. Ijaraga olingan korxonalar.
8. Ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari.
9. Asosiy kapital.
10. Aylanma kapital.
11. Aylanma kapitalning doiraviy aylanishi.
12. Tugallanmagan ishlab chiqarish.
13. Tayyor mahsulot.
14. Korxonaning aylanma ishlab chiqarish fondlari.
15. Fond muomalasi.
16. Mahsulotning tannarxi.
17. Qarzga olingan aylanma mablag'lar.
18. Aylanma kapitalning normalashtirilgan qismi.
19. Aylanma kapitalni boshqarish.
20. Korxonaning passiv barqarorligi.
21. Korxonaning pul xarajatlari va daromadlari. Ularning moliyaviy manbalari.
22. Sotilgan mahsulotdan olingan foyda.
23. Boshqa sotuvdan tushgan foyda.
24. Korxonaning umumiy daromadlari.



---

---

## **10- BOB. Mahalliy budjet va uning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishning ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tgandan keyin mamlakat moliya siyosatining mazmuni tubdan o'zgarib, budjet tizimini mustahkamlash uning tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Hozirgi sharoitda budjet davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim vositasi bo'lib bormoqda

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi sobiq ittifoq davrida shakllantirilgan edi. O'shanda u mamlakat xalq xo'jaligi boshqaruv tizimining ma'muriy taqsimotiga va xususiyatlariga javob berardi. Yagonalik tamoyili, demokratik markazlashuv va milliy siyosat unda quyidagi xususiyatlarni (yagonalik, to'liqlik, reallik, moslashuvchanlik va budjet tizimiga kiruvchi barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligi) shakllantirdi: Bugungi kunda davlat budjeti Respublika budjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarni o'z ichiga qamrab oladi. Mahalliy budjetlar ma'lum bir mintaqadagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan xo'jalik va madaniy tadbirlarni zarur pul mablag'lari bilan moliyalashtiradi.

Mahalliy budjet — davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi, unda daromadlar manbalari va ulardan tushum miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniqlangan maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy budjet davlat budjetining muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u orqali hududlarning ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanishi moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlab boriladi. Mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasining budjet tizimining asosiy qismi sifatida o'zida 14 ta mustaqil budjetni qamrab oladi. Mahalliy budjetlar hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishidagi rolini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti daromadlarida mahalliy budget-  
larning tutgan o‘rni**

Daromadlar	2000 y	2001 y	2002 y	2003 y
Davlat byudjeti	910860,3	1295411,1	1864103	2309000
Shu jumladan				
Respublika byujeti (mln. so‘m)	503978,7	720629,7	1034145	1266851,8
Davlat byudjetiga nisbatan salmog‘li (foizda)	55,3	55,6	55,5	54,9
mahalliy byudjetlar (mln. so‘m)	406881,6	549116,7	750387,7	1042147,5
Davlat byudjetiga nisbatan salmog‘i (foizda)	44,7	42,2	40,3	45,1

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mahalliy budgetlar daromadlari salmog‘i 2003 yilda 45.1 foizni tashkil etgan. Bu deyarli davlat budgeti daromadlarining yarmini tashkil etayapti. Mahalliy budgetlarning mavqeini yanada oshirish budget siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlariga e‘tibor qarataylik: „Davlat budgeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, budgetlarni mustahkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, budgetning ijrosidagi manfaatdorligi va bu boradagi ma‘suliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari bu narsa mahalliy budgetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga rag‘batlantiradi, joylarda budget intizomini mustahkamlaydi“<sup>1</sup>

Prezidentimizning fikrlaridan va hozirgi budget ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy budgetlarning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatini amalga oshirishdagi mavqeining oshib borishiga quyidagi omillarni sabab qilib ko‘rsatish mumkin:

<sup>1</sup> (I.A. Karimov. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. Toshkent: O‘zbekiston, 1995. -208 bet)

— mahalliy moliya organlarining budjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida budjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishini va tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga va rag'batlantirishni ta'minlashning zarurligi;

— aholini ijtimoiy himoya qilish masalasining ustuvorligi. Darhaqiqat, budjet xarajatlari tarkibida ijtimoiy xarajatlarning ulushi katta va bu xarajatlarning asosiy qismi mahalliy budjetlar orqali amalga oshiriladi;

— mahalliy budjet hisobidan moliyalashtiriladigan tadbirlarning ko'payib borishi.

Mahalliy budjetlar iqtisodiy boshqaruv metodlari tizimida asosiy o'rin egallaydi. Ular alohida hududlarning kompleks rivojlanishini ularda optimal ishlab chiqarish nisbatini va aholi turmush darajasini yuqoriligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjetlar boshqa iqtisodiy kategoriyalar singari ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda davlat boshqaruv organlari tomonidan faol foydalaniladi. Mahalliy budjetlar iqtisodiy boshqaruv instrumenti sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

— budjet munosabatlari hududning barcha tomonlaridagi ishlab chiqarish jarayonlarini qamrab olganidan, ta'sir doirasining kengligi;

— mazkur iqtisodiy kategoriya tabiatiga xos bo'lgan qayta taqsimlashning yuqori darajada bo'lishi;

— moslashuvchanligi, ya'ni mahalliy hokimiyat organlari vazifa va maqsadlari o'zgarishiga muvofiq tarzda, dinamik tarzda, doimiy ravishda o'zgarib va rivojlanib boradi.

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi va uning tarkibiy qismlarining roli va ahamiyatini oshirish va budjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar nomarkazlashuvchanlikka moyildir. Byudjet tizimida uning bo'g'inlari orasidagi o'zaro aloqadorlik budjetlararo munosabatlar mexanizmida namoyon bo'ladi. Bu munosabatlarda asosiy tamoyil bo'lib umumdavlat va mintaqaviy, ayniqsa mahalliy budjetlarning manfaatlarini hisobga olish xizmat qiladi.


Mahalliy budjetlar yangi budjet tizimida budjetlararo munosabatlarni to'ldiruvchi maxsus iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U mahalliy boshqaruv organlari qo'lida mazkur hududda

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida to'planuvchi pul vositalari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar majmuidir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish turli darajadagi budjetlarning funksiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu mahalliy budjetlarda daromadlarni shakllantirish va foydalanishda mustaqil faoliyat yuritish afzalligini ko'rsatadi. Mahalliy budjetlar boshqaruvning iqtisodiy metodi sifatida budjet munosabatlarida qayta taqsimlash xarakteri bilan bog'liq bo'lgan maxsus xususiyatga ega. Mahalliy budjetlar singari hech bir iqtisodiy kategoriya bunday ko'p ko'rinishli va ko'p darajali moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash jarayoniga ishtirok etmaydi. Mahalliy budjetlar orqali pul vositalari xo'jaliklar, hududlar, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasi va aholining turli qatlamlari o'rtasida taqsimlanadi.

Mamlakatning birligi va rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarda mahalliy boshqaruv organlarining roli katta. Ularning samaradorligi mahalliy hokimiyatlarning ixtiyorida qanday budjet resurslari qolayotganligiga bog'liq. Hozirgi zamon moliya-budjet amaliyotida mahalliy budjet daromadlarining bir qismi mahalliy soliqlar evaziga emas, balki umumdavlat soliq va yig'imlaridan chegirmalar evaziga, ya'ni umumdavlat soliqlar tizimining mahalliy darajadagi realizatsiyasi evaziga shakllantiriladi.

Mahalliy budjet — budjet tizimining alohida bo'g'inidir. Bunda uning asosiy tamoyillari bo'lib umumdavlat pul mablag'larini budjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlanishi va daromadlarning hududiy manbalar hisobiga shakllanishi hisoblanadi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, mahalliy budjetlarning daromadlari o'z daromadlari va boshqariladigan manbalar hisobidagi daromadlardan shakllanadi. O'z daromadlari yoki birlashtirilgan daromadlar, to'liq yoki qat'iy belgilangan ulushda bevosita mahalliy budjetga tushadigan mablag'lardan iborat. Bu daromadlarning asosini mahalliy soliqlar va yig'imlar tashkil etadi.

### Mahalliy budget daromadlarining tuzilishi




O‘zbekiston Respublikasi mahalliy budgetlari tomonidan xarajatlarni amalga oshirish uchun tegishli daromadlarga ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun mahalliy budget daromadlari shakllanishining amaldagi holati va ushbu jarayondagi daromad manbalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, avvalambor, daromadlarning shakllanishiga e‘tibor berish lozim. Mahalliy budget daromadlarining manbalari tarkibi quyidagi chizmada keltirilgan.

Ma‘lumki, budget ijrosi jarayonida u bilan yuzaga keladigan o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha shakllanadigan daromadlar ham mahalliy budget daromadlari bo‘lishi mumkin. Shunga muvofiq mahalliy budgetlar daromadlari o‘z daromadlari (mahalliy soliqlar va yig‘imlar) va umumdavlat budgetidan ajratiladigan ajratmalar (umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, dotasiyalar) hisobidan shakllanadi.

Mahalliy budgetlarning eng birinchi daromad manbai bo‘lib mahalliy soliqlar va yig‘imlar hisoblanadi. Bu daromad turlari qonunchilikka asosan mahalliy budgetlarga to‘liq birlashtirilgan daromad manbaidir.

### Mahalliy budjet daromadlarining manbalari tarkibi



#### Mahalliy soliqlar va yig'img'lar quyidagilardan iborat:

##### 1. Mol-mulk solig'i.

Ushbu soliq „Soliq kodeksi“ ning VI bo‘limida Moliya vazirligi va Davlat mulk qo‘mitasining qonun kuchiga ega bo‘lgan hujjatlari asosida tartibga solinadi. Bu yuridik va jismoniy shaxslar mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va budjetga to‘lash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomadir.

Ma‘lumki, mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar soliq solinadigan mulkka ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslardir. Bunda ayrim yuridik shaxslar, xususan yagona soliq tizimida bo‘lgan mikro-firmalar va kichik korxonalar hamda yagona yer solig‘ini to‘laydigan qishloq xo‘jaligi tovarlarini ishlab

chiqaruvchilar va shuningdek, qayd etilgan soliq to'lanishi belgilangan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanmaydi.

Yuridik shaxslar uchun soliq solish ob'ekti — asosiy vositalarning va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati (qonunchilikka muvofiq ravishda mulk qilib olingan yerning qiymati bunga kirmaydi) hamda korxonaning normativ muddatlarida belgilanmagan va foydalanilayotgan uskunalar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar uchun soliq solish ob'ekti — ularning ixtiyoridagi uylar, dala hovlilar, bog'lar, garajlar va boshqa qurilgan inshootlardir.

**Soliq stavkasi.** Yuridik shaxslar mulki 3 foizli stavka bo'yicha soliqa tortiladi. To'lovchilarning ayrim toifalari va mulk turlari uchun bu stavka o'zgarishi mumkin.

Yuridik shaxslar normativ muddatlarda o'rnatilmagan va foydalanilmayotgan uskunalar uchun ikki baravar stavka bo'yicha soliq to'lashadi.

Jismoniy shaxslar mulki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan stavkalar bo'yicha soliqa tortiladi.

Soliq bo'yicha imtiyozlar yuridik va jismoniy shaxslar uchun alohida belgilanadi. Masalan, yuridik shaxslarning ijtimoiy xayriya yoki boshqa maqsadlar uchun yaratilgan mulki tadbirkorlik faoliyatidan daromad olish ko'zlanmagan va tegishli ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan bo'lsa, ularga soliq solinmaydi. Amaldagi qonunchilikda yangi tashkil qilingan korxonalar ro'yxatga olingan kundan boshlab ikki yil davomida ular uchun ham imtiyozlar berilishi nazarda tutilgan. Agar bu korxonalardan ijaraga olingan uskunalar ishlayotgan bo'lsa ushbu imtiyozlar ularga qo'llanmaydi.

Bundan tashqari qonunchilikda vaqtincha mol-mulk solig'idan ozod qilinadigan imtiyozlar ham bor. Nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan moddiy texnika bazasini mustahkamlash, uskunalarni, jihozlarni, didaktik materiallarni, bolalar o'yinchoqlarini va adabiyotlarni sotib olish uchun sarflansa, ular ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab uch yil mobaynida soliq to'lashdan ozod qilinadilar.

## 2. Yer solig'i.

Yer solig'ining huquqiy tartibga solish manbalari soliq kodeksining VII bo'limida va „Yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida“gi yo'riqnoma asosida hisoblanadi. Bunga o'z ixtiyorlarida yeri bo'lgan yuridik shaxs egalari kiradi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik va jismoniy shaxslar yer solig'i o'rniga budjetga ijara haqi to'lashadi. Ijara haqi tomonlar kelishuviga ko'ra bir stavkadan kam va uch stavkadan ko'p bo'lmagan miqdorda belgilangan. Bunda yer qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilsa — unda ular uchun qonunda ko'rsatilgan yer solig'ining bir stavkasi miqdorida to'lanadi.

Yuridik shaxslar uchun **soliq solish ob'ekti** bo'lib quyidagi yer uchastkalari hisoblanadi:

— qonunchilikda belgilangan tartibda o'z mulki qilib rasmiylashtirib olingan yerlar;

— qishloq yoki o'rmon xo'jaligiga, shuningdek, korxonalariga bino va inshootlarni qurish yoki boshqa maqsadlari uchun berilgan yerlar;

— korxonalar, binolar va inshootlarga mulkchilik huquqi bilan birga yerga egalik va foydalanish huquqi asosida berilgan yer uchastkalari.

Jismoniy shaxslar uchun **soliq solish ob'yektiga** quyiladagi yer uchastkalari kiradi:

1. Uy-joy huzurida va jamoatchilik ixtiyorida bo'lgan yerlar, jumladan:

a) shaxsiy tomarqa xo'jaligi (dehqon xo'jaligi)ni yuritish uchun umrbod meros qilib berilgan yerlar;

b) yakka tartibdagi uy-joy qurish uchun umrbod meros qilib berilgan yerlar;

v) jamoa, bog'dorchilik, uzumchilik va poliz ekinlari uchun berilgan yerlar;

g) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari;

2. Meros bo'yicha sovg'a qilish yoki sotib olish natijasida turar joy, dala hovli bilan birga o'tgan yerlarga egalik huquqi.

3. Qonunchilikda belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari.



Dehqon xo'jaliklaridan undirib olinadigan yer solig'i hisoblanayotgan vaqtda uning stavkalariga yerlarning sifatiga qarab quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi: tuproq boniteti 40 ballgacha bo'lganida — 0,75; 41 dan 70 ballgacha bo'lganida — 1,0 va 70 balldan yuqori bo'lganida -1,25.

Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar:

- soliqaqqa tortilmaydigan yerlar;
- ayrim yuridik shaxslarni soliqlardan ozod qilish;
- jismoniy shaxslarning ayrim toifalarini soliq to'lashdan ozod qilish.

Soliqaqqa tortilmaydigan yerlar: tarixiy va madaniy maqsadlar uchun ajratilgan yerlar, shahar va boshqa aholi punktlari uchun umumiy tarzda foydalaniladigan yerlar, tabiatni muhofaza qilish uchun mo'ljallangan yerlar va boshqalar.

### **3. Boshqa mahalliy soliq va yig'imlar:**

\* **Infratuzilmani rivojlantirish uchun o'rnatilgan soliq** „Soliq kodeksi“da nazarda tutilgan. Bu hisoblash va Moliya Vazirligining Infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma asosida tartibga solinadi.

Ushbu soliqni to'lovchilarga ayrim toifadagi yuridik shaxslar kiradi va ular uchun soliq solishning alohida tartibi belgilangan.

Infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq hisoblanayotgan vaqtda soliq solish ob'ekti barcha turdagi soliqlar to'lab bo'lgandan keyin korxonada ixtiyorida qoladigan sof foyda hisoblanadi. Infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqning chegara stavkasi soliq solish ob'ektiga nisbatan 8 foiz miqdorda belgilangan. Infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblar choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni topshirish muddatlarida davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

\* **Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun jismoniy shaxslardan olinadigan soliq** 2002 yil 1 yanvardan boshlab ularga to'lanadigan jismoniy shaxslar mulkiga solinadigan soliq o'rniga joriy etilgan. Bunda stavkalarni o'rnatish tartibi Infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq hisoblash va budjetga to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning 5- bandiga muvofiq ravishda belgilangan. Ushbu soliq to'lovini huquqiy tartibga solishning

asosiy manbai jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatilgani uchun olinadigan soliqni hisoblash va to'lash to'g'risidagi yo'riqnomadir. Mazkur soliq to'lovchilari, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, jismoniy shaxslarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz sotuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlari hisoblanadi. O'zi ishlab chiqargan hamda chetdan sotib olinib, sotilgan benzin, dizel yoqilg'isi va gazning sof hajmi soliq solish ob'ekti hisoblanadi. Bunda ularning sotilishi deganda, benzin, dizel va gazning jismoniy shaxslarga sotilgani tushuniladi. Soliq stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanib, uning miqdori mamlakatning butun hududida yagona bo'lgan — transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isining 1 litri 650 va gazning 1 kub.m. uchun 15 so'mni tashkil etadi. Soliq bank muassasalariga har 10 kunlik — dekadada, benzin, dizel yoqilg'isi va gaz sotilgan oyning har o'n kunligi tugagandan keyin uch kundan kechiktirilmagan holda to'lanadi.

**\* Savdo huquqini olish uchun yig'im va tovarlarning ayrim turlari, jumladan spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari bilan savdo qilish huquqini olish uchun litsenziya yig'implari.**

Mazkur yig'im to'lovchilari yakka tartibdagi tadbirkorlar (spirtli mahsulotlar bilan savdo qilishdan tashqari) va O'zbekiston Respublikasi hududida savdo qiluvchi shaxslardir. Savdo qilish huquqini olish uchun yig'im to'lanadi. Savdo qilish huquqi buning uchun beriladigan ruxsatnomasi bilan tasdiqlanadi. Savdo huquqi uchun yig'im stavkasi bir oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3-5 baravarini tashkil etadi. Tovarlarning ayrim turlari, shu jumladan spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari bilan savdo huquqi uchun lisenziya yig'im alohida to'lanadi. Bu yig'im stavkasi spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari bilan bir oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari miqdorida belgilangan. Savdo huquqi uchun ruxsat guvohnomasi joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan ariza byeruvchi (yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor) ning arizasida ko'rsatilgan, ammo qonunchilikda belgilangan muddatdan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi.

**\* Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish uchun yig'im.**

Ushbu yig'imning to'lovchilari yuridik shaxs bo'lmay turib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan, yangidan tuzilayotgan yuridik yoki jismoniy shaxslar hisoblanadi. Yig'im stavkasi – eng kam ish haqining 5 baravarini tashkil etadi. Davlat negizida tuzilgan aksiyadorlik jamiyatlari va dehqon xo'jaliklari ushbu soliqni to'lashdan ozod qilinadilar.

Yangidan tuzilayotgan yuridik shaxs uchun yig'imni uning muassislari (yuridik va jismoniy shaxslar) to'lashi mumkin. Yig'im yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ro'yxatga olish to'g'risida ariza berilguniga qadar bank muassasalari orqali mahalliy budjetga beriladi.

Ma'lumki, budjet tizimi daromadlari ularni u yoki bu darajadagi budjetlar daromadlariga kiritish tartibi va shartlariga qarab tasniflash mumkin. Ushbu mezon bo'yicha mustahkamlangan (biriktirilgan) va tartibga soluvchi daromadlarga ajratiladi.

**Mustahkamlangan (biriktirilgan) daromadlar** tegishli budjetga doimiy yoki uzoq muddatli asosda to'liq yoki qisman (qat'iy me'yorda) kelib tushadigan daromadlardir. Bunday daromadlarga tegishli budjetlarga biriktirib qo'yilgan daromadlar kiradi. Budjet tizimining u yoki bu darajasiga ushbu daromadlarni biriktirib qo'yishning huquqiy asosi soliq va budjet qonunchiligi hisoblanadi. Masalan, „Soliq kodeksi“ da nazarda tutilgan mahalliy soliqlar mahalliy budjetga to'liq o'tkaziladi. (7-modda). Respublikamizning budjet qonunchiligiga muvofiq, odatda, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq kabi umumdavlat soliqlari turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlanmaydi va ular to'la hajmda mamlakat budjeti yoki mahalliy budjet hisobiga o'tkaziladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar hokimiyatlari moliya organlarining takliflari bo'yicha mahalliy soliqlar qaysi darajadagi budjetga, jumladan yuqori budjetga to'la hajmda o'tkazilishini belgilaydi. Turli darajadagi budjetlarga ajratmalar normativlari belgilangan va mahalliy budjetlarga to'la hajmda o'tkazilishi kerak bo'lgan umumdavlat soliqlari soliq to'lovchi joylashgan shahar, tuman, hududidagi mahalliy budjetlarga kelib

tushadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra daromadlarni bunday biriktirib qo'yish tizimi o'zini to'la oqlaydi. Chunki bunda ayrim budjetlarni tuzish texnikasi soddalashadi, u yoki bu darajadagi budjet tizimiga to'liq kelib tushadigan daromadlar ro'yxati oldindan ma'lum bo'lishi bilan bog'liqdir. Undan tashqari bu mahalliy organlarning budjeti mustaqilligini oshiradi.

Biriktirib qo'yilgan daromadlar ro'yxatini belgilashda budjet tizimi samaradorligiga ta'sir etuvchi ba'zi omillarni aniqlash kerak. Xususan, bunda daromadlarni taqsimlashda ayrim budjetlarda ortiqcha daromadlar hosil bo'lib, qolganlarida ularning yetishmasligi kuzatilishi mumkin, ya'ni bunda nomutanosiblik bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Masalan, sanoati rivojlangan hududlarda yuridik shaxslardan daromad yoki foyda solig'i bo'yicha kelib tushadigan tushumlar hajmi yuqori bo'ladi. Shu sababli ulardan biriktirib qo'yilgan daromad sifatida foydalanish mahalliy budjet daromadlarini taqsimlashda nomutanosiblikka olib kelishi mumkin. Mahalliy budjetlarga o'z funksiyalarini bajarish uchun soliqlarni biriktirib qo'yilar ekan, avvalo bu soliqlar qanday soliqlar bo'lishi va bu holatning iqtisodiyotga ta'sirini aniqlab olish kerak.

Mahalliy soliqlar, eng avvalo, resurslarning tarmoqlararo taqsimlanishiga ta'sir qilmasligi, soliq yukini boshqa ma'muriy birliklarga yuklamasligi kerak. Mahalliy soliqlar yetarlicha egiluvchan va davlat xarajatlari bilan proporsional ravishda o'zgarishi kerak.

Bulardan tashqari, markaziy hukumat mahalliy hokimiyat organlari ustidan samarali nazoratni amalga oshirishi va mahalliy hukumat organlarini qo'llab — quvvatlashi maqsadida ularni boshqarib tura olishi kerak. Aks holda budjetlar nazoratini qiyinlashtiradi va korrupsiyaning kuchayishiga olib keladi.

Budjetlarni **tartibga soluvchi daromadlari** yuqori darajadagi budjet tizimidan quyi budjetga, respublika budjetidan — viloyat budjetlariga, (viloyat budjetidan — tuman budjetlariga va h.k.) o'tkaziladigan mablag'lardan iborat. Tartibga solinuvchi daromadlarga umumdavlat soliqlari va boshqa to'lovlar kirib, ular bo'yicha keyingi moliya yili uchun mahalliy budjetlarga ajratmalar (foizlarda) normativlari belgilanadi. Bu normativlar O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining tartibga solinuvchi daromadlarini

beruvchi budjetlar to'g'risidagi huquqiy xujjat yoki davlatimiz budjet tizimining boshqa darajadagi budjetdan unga beriladigan tartibga soluvchi daromadlarni taqsimlaydigan darajadagi budjet to'g'risidagi qarorlar bilan belgilanadi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy budjetlar tarkibida birinchi moliyaviy manba sifatida qaralsa ham, bu soliqlar va yig'imlar mahalliy budjetga birlashtirilgan xarajatlarini moliyalashda yetarli moliyaviy manba bo'la olmaydi.

Byudjet parametrlarini belgilash vaqtida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar belgilanadi. Bu jarayon har yili budjet parametrlarini tasdiqlash paytida ishlab chiqiladi va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan belgilanadi.

Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar ulushi har yili mahalliy budjetlarning o'z daromadlarining tushumi va ular tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarning miqdoriga qarab o'zgartirib boriladi.

Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, Respublika budjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy budjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Agar kelgusi yili mahalliy budjetlarning o'z daromad manbalari (soliqlari) ko'payib qolsa, umumdavlat soliqlaridan ajratma berishning hojati qolmaydi.

Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, budjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlardir.

Shu bilan birga, umumdavlat soliqlarining ayrim turlari ham mahalliy budjetlarni to'ldirish manbai sifatida mahalliy budjetlar ixtiyorida qoldirilishi mumkin. Quyidagi jadvalda Respublika budjetidan mahalliy budjetlarga umumdavlat soliqlari va yig'imlaridan ajratmalar keltirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qoraqalpog'iston respublikasi, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxandaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida yagona yer solig'idan tashqari boshqa soliqlar yuz foiz ajratilgan. Buxoro, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida daromadlarining ko'pligi sabab Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliqdan tashqari boshqa soliqlar kamida 5 foizgacha ajratilgan. Chunki bu viloyatlar sanoati rivojlangan bo'lib ularning daromadlari o'z xarajatlarning aksariyat qismini qoplay oladi.

**2003—2005 yillarga belgilangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi,  
viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlariga umumdavlat  
soliqlardagi ajratmalarning me‘yorlari**

Hududlar	Korxonalar daromadi (foydasiga) soliq						Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarigayalpi daro-mad solig‘i						QQS						Jismo-niy sha-xslar daro-mad solig‘i			Akl sol Ben zin Diz cl.	Yer osti boylik-lardan foydalan-ganlik uchun soliq			Mikro firmalar va k-k korxo-nalar yagona solig‘i			Yagona yer solig‘i	
	2003	2004	2005	2003	2004	2005	2003	2004	2005	2003	2004	2005	2003	2004	2005	2005	2004	2005	2004	2005	2004		2005	2004	2005					
Qoraqalpog‘iston R.	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100				10	10	87,75	85,5								
Andijon v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100				10	10	75,5	71								
Buxoro v-ti	29	40	39	29	40	39	35	38	39	50	50	50	30						10	10	7,5	71								
Jizzax v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100							10	10	75,5	71								
Qashqadaryo v-ti	86	92	100	86	98	100	96	96	100	100	100	100		25	25				10	10	7,5	71								
Navoiy v-ti	58	12	13	58	12	13	56	12	13	50	50	50							10	10	7,5	71								
Namangan v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100							10	10	7,5	71								
Samarqand v-ti	10	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100							10	10	7,5	71								
Surxondaryo v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100							10	10	7,5	71								
Sirdaryo v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100							10	10	7,5	71								
Toshkent v-ti	40	22	13	40	22	13	10	22	13	50	50	50							10	10	7,5	71								
Farg‘ona v-ti	54	78	100	54	78	100	64	78	100	100	100	100	47						10	10	7,5	71								
Xorazm v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100							10	10	87,75	85,5								
Toshkent shahri	7	7	5	7	7	5	6	7	5	13	13	10							70	18										

O‘zbekiston Respublikasining „Budget tizimi to‘g‘risida“gi qonunining 5 — moddasida budget tizimining asosiy prinsiplari belgilangan bo‘lib, Davlat budgetini shakllantirishda har xil turlari bilan o‘zaro bog‘liqligi va balansligini ta‘minlash zarur bo‘ladi. Respublika budgetidan subvensiyalar va dotatsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budgetlariga tasdiqlangan Davlat budgeti doirasida ajratiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar budgetlaridan budget subvensiyalari va dotatsiyalari tumanlar va shaharlar budgetlariga tegishli tasdiqlangan budgetlar doirasida ajratiladi. Ularning miqdori quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi:

1. Hududning moliyaviy holatiga o‘z daromadlari bazasining yetarliligiga;

2. Ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umum-davlat dasturlari va vazifalariga;

3. Hududlar bo‘yicha tovar ( ish, xizmat) lar qiymatidagi farqlariga;

4. Har bir hududdagi aholi soniga;

5. Byudjet assignovatsiyasidagi hududlarda joylashgan tashkilotlarning ehtiyojlariga;

6. Mintaqalarda moliyaviy disbalansni yo‘qotishga ta‘sir etuvchi boshqa omillarga.

Quyida ularning mohiyatini ko‘rib chiqamiz. **Dotatsiya** (lotincha dotatio-hadya, xayr-ehson) budgetni tartibga solish usuli sifatida — o‘z daromadlari va boshqa mablag‘lari, xususan, tartibga soluvchi daromadlaridan ajratmalar yetishmagan taqdirda xarajatlar va daromadlar o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budgetdan quyi budgetga qat‘iy summada beg‘araz va qaytarilmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘laridir. Dotasiyaning bir qancha kamchiliklari ham mavjud. Bu budgetlarda nazarda tutilmagan tadbirlarni mablag‘ bilan uzluksiz ta‘minlab turish uchun joylarda budgetlardan qo‘shimcha daromadlarni yo‘naltirishda davlat hokimiyatining manfaatdorligi va moliya organlarining javobgarligining susayishiga olib keladi. Undan tashqari dotatsiya quyi budgetning ijrosini yuqori budgetga — daromadlarni to‘liq va o‘z vaqtida kelib tushishiga qaram bo‘lib qoladi. Mana shu daromadlar hisobidan dotatsiya summalari o‘tkaziladi.

**Subvensiya** (lotincha subvenire-yordamga kelish) — yuqori budjetdan quyi budjetga muayyan maqsadlarda foydalanish sharti bilan beg'araz ajratiladigan pul mablag'laridan iborat. Dotatsiyalardan farqli ravishda subvensiya muayyan bir tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratiladi va undan maqsadli foydalanish tartibi buzilgan holda, u qaytarilishi lozim.

Mahalliy budjetlarning bu daromad turining o'ziga xos tomonlari mavjud. Yuqori budjetlardan ajratiladigan subvensiya va dotatsiyalar boshqa daromad turlaridan farq qilib, bu daromad turlari yil boshida tasdiqlangan reja miqdorida olinadi, ya'ni bu daromad turlariga yil davomida o'zgartirishlar kiritilmaydi.

Mahalliy budjetlar uchun 2002 yilda tasdiqlangan dotatsiyalarni mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishdagi o'ziga xos tomonlarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

*3- jadval*

**Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda dotatsiyalarning o'rni**

(ming so'mda)

Daromad turi	Reja		Farqi	
	Tasdiqlangan	Amalda	Summa	Foiz
Umumdavlat soliqlarining ajratilgan soliqlar	11999425	15342091	3342666	127,8
Biriktirilgan soliqlar	1839632	2729981	890349	148,4
Mahalliy soliqlar va yig'imlar jami	2912800	3124480	211680	107,2
Daromadlarning jami	16751857	21196552	4444695	126,5
Dotatsiya	12271100	12271100	0,0	100,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yuqori budjetlardan mahalliy budjetlarga beriladigan dotatsiyalar mahalliy



budgetlarning muhim daromad manbai hisoblanmoqda. Agar soliqlar, yig'imglar va to'lovlar shaklidagi daromad manbalari yil boshida tasdiqlangan rejaga nisbatan yil davomidagi o'zgarishlar bilan yil oxiridagi amaldagi reja bo'yicha o'rtacha 26,5 foizga oshgan bo'lsa, dotatsiya esa tasdiqlangan reja darajasida qolmoqda.

4- jadval

**2004 yildagi Qaraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budgetlari bo'yicha daromadlar, xarajatlar va Respublika budgetidan ajratiladigan dotatsiyalarning chegaraviy miqdorlarining ijrosi**

(mln. so'mda)

Hududlarning nomi	Daromadlar	Xarajatlar	sub - vensiya	doyatsiyava maqsadli subvensiyalar
Q.q.ton Respublikasi	40352,879	93916,716		55032,716
Andijon viloyati	74763.400	117820,343		26277,939
Buxoro viloyati	88094,645	90938,313		0,000
Jizzax viloyati	24149,290	59134,836		34433,389
Qashqadaryo viloyati	128252,887	127340,854		0,000
Navoiy viloyati	557268,611	55304,165		0,000
Namangan voliyati	59655,354	109900,854		45202,945
Samarqand viloyati	86655,270	146092,106		47255,8992
Surxondaryo viloyati	59966,534	105253,484		48877,373
Sirdaryo viloyati	40376,358	45990,437		5630,000
Toshkent viloyati	133428,338	134631,175		0.000
Farg'ona viloyati	139855,326	147827,521		0,000
Xorazm viloyati	53582,563	79764,198		26463,527
Toshkent shahri	187786,075	209108,323		0,000
Jami	1174187,530	1523023,325	0,0	289173,781

**2005 yildagi Qoraqalpogiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlar bo'yicha daromadlar, xarajatlar hamda respublika budjetidan ajratiladigan dotatsiyalar va maqsadli subvensiyalarning cheklangan miqdori.**

(mln.so'mda)

Hududlarning nomi	Daromadlar	Xarajatlar	Dotatsiyalar
Q.q.ton Respublikasi	76349,1	117751,9	41412,8
Andijon viloyati	121706,9	150453,7	28746,8
Buxoro viloyati	101688,9	101688,9	
Jizzax viloyati	47468,8	74235,9	26767,1
Qashqadaryo viloyati	158694,0	158694,0	
Navoiy viloyati	6822,3	68222,3	
Namangan viloyati	107751,5	140907,9	33156,5
Samarqand viloyati	191588,9	191588,9	
Surhondaryo viloyati	109069,9	136112,2	27042,3
Sirdaryo viloyati	55655,7	55655,7	
Toshkent viloyati	157204,7	157204,7	
Farg'ona viloyati	188393,3	188393,3	
Xorazm viloyati	86077,7	98385,9	
Toshkent shahri	196562,6	196562,6	
Jami	1666364,0	1835867,9	169503,9

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, 2004 yilda 8 ta va 2005 yilda Respublikaning 6 ta viloyatlari dotatsiya olgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Jizzax viloyatlarida 2004 yilda

dotatsiya va maqsadli subvensiyalar hajmi ularning o'z daromadlaridan ham yuqoriligini ko'rish mumkin. 2005 yilga nazar tashlar ekanimiz, ancha ijobiy o'zgarishlar namoyon bo'ladi. Chunki dotatsiyalar miqdori mahalliy budjetlar daromadlariga nisbatan ancha kamdir.

Dotatsiya uslublari mahalliy budjetlarning Respublika budjetiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularning hududlardagi boqibeg'amlik «fazilat» larini kuchaytiradi. Mahalliy soliqlar va yig'imlarning budjetga to'liq tushishni tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

Respublikamiz iqtisodiyotida davom etayotgan iqtisodiy islohotlar soliqlarni iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim vosita sifatida doimiy isloh qilib borishni talab qiladi. Hozirgi kunda aholi daromadlarining salmoqli hissasi xususiy sektorda shakllanmoqda. Davlat tomonidan bu daromadlarni boshqarish imkoniyatlari cheklangan, bu daromadlarni ma'muriy tarzda davlat xarajatlariga yo'naltirish bozor iqtisodiyoti prinsiplariga zid. Faqatgina soliqlar orqali aholi daromadlarini budjet daromadlariga jalb qilish mumkin.

Soliqlarning taqsimlanish xarakteriga ko'ra mahalliy budjet daromadlari o'z daromadlari hisobiga va daromadlarni turli darajadagi budjetlar o'rtasida qayta taqsimlanishi hisobiga shakllanadi. Daromadlarning budjetlararo taqsimlanishida soliq cheklovlari va soliqlarning biror budjetga birlashtirib qo'yilishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi „Soliq kodeksi“ da soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqqa ajratilgan. Shu ma'noda, mahalliy budjet daromadlari mahalliy va umumdavlat soliqlari hisobiga shakllanadi. Umumdavlat soliqlarining mahalliy budjetlarga ajratiladigan qismi har yili qabul qilinadigan qonun va me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

Mahalliy budjetlarning daromadlarini mustahkamlash hozirgi budjet islohotlarining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada mulkni, yerni va tabiiy resurslarni soliqqa tortish asosiy rol o'ynaydi. Keyingi samarali manba bo'lib, jismoniy shaxslar daromad soliqlarini uzoq muddatga mahalliy budjetlarga birlashtirib qo'yish hisoblanadi. Soliq yukini juda yuqori ko'tarishning iloji yo'qligini nazarda tutgan holda mahalliy budjet daromadlari tarkibida soliqsiz daromadlarning ham rolini oshirishga e'tibor qaratish lozim.

Mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash borasida mahalliy hukumatning soliq undirish va soliq bazalarini kengaytirishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirishni kuchaytirish, ya'ni ortiqcha undirilgan soliqlarning mahalliy budjetlarga tushadigan qismini oshirishni yo'lga qo'yish yaxshi samara beradi.

Mahalliy soliqlar va soliqsiz daromadlar mahalliy budjet xarajatlarini qoplash uchun yetarli emas, mahalliy budjet daromadlarining asosiy qismini boshqariladigan daromadlar hisobiga ta'minlanadi. Bu soliqlar bo'yicha ajratiladigan me'yorlar soliqlar va hududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan bo'ladi va har yili hukumat qarori asosida qayta ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda bu me'yorlarning yildan-yilga oshib borishini kuzatishimiz mumkin. Buni mahalliy budjet xarajatlarini shu hududdan tushadigan soliqlar hisobiga qoplash va yuqori budjetlardan quyi budjetlarga transfertlar hajmini kamaytirish zaruriyati bilan izohlashimiz mumkin. Me'yorlarni aniqlashda umumdavlat va mahalliy soliq tushumlarning kutilayotgan rejasi, mahalliy budjet xarajatlarining kutilayotgan minimumi hisobga olinadi. Ba'zi viloyatlarda bu me'yorlar 100% qilib belgilanadi, bunday soliqlar ko'p tushadigan viloyatlarda mazkur me'yorlar minimum darajada belgilanadi. Chunki, soliq bazasining yuqoriligi me'yorlarni past belgilashga sabab bo'ladi.

Bunday hududlarda sanoat va savdoning rivojlanganligi soliq salohiyataning yuqori darajasini ta'minlab beradi. Lekin bu me'yorlarning qisqa muddatlarda o'zgarishi mahalliy budjetlarni rag'batlantirish darajasini pasaytiradi va boqimandalik kayfiyatini uyg'otadi, bizning fikrimizcha, shu nuqtai - nazardan olganda, bu me'yoriy darajalar uzoqroq muddatlarga belgilanishi maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, mahalliy budjetlarni shakllantirishda quyidagi to'rt komponent muhim hisoblanadi: xarajat vakolatlarini mahalliy budjetlar va markaziy budjet o'rtasida cheklash; solikli daromadlarni taqsimlash; budjet transfertlari va qarzlari. Byudjet xarajatlarini amalga oshirish vakolatlarini aniq ajratmasdan turib, solikli daromadlarni taqsimlashda barqarorlikka erishib va transfertlarning muvozanatlashtiruvchi tizimini yaratib bo'lmaydi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, xarajatlarni cheklashning umumqabul qilingan metodi yo'q. Ammo optimal variantga erishish imkonini beruvchi tamoyillari mavjud. Mazkur tamoyillar xarajat vakolatlarini cheklashni soddalashtirib ularning samaradorligi va adolatliligini ta'minlaydi. Masalan, ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar markaziy budjetga birlashtirilishi kerak, chunki har bir fuqaro qayerda yashashidan qat'i nazar unga bir xildagi huquqga ega bo'lishga haqlidir. Shuning uchun ham bunday xarajatlarni rejalashtirish va boshqarishni markazga birlashtirish zarur. Ularni esa amalga oshirishni mahalliy budjetlar zimmasiga yuklash lozim.

O'zbekiston Respublikasida „Budjet tizimi“ to'g'risidagi qonunga binoan, umumdavlat va maxsus xarakterdagi xizmatlar (masalan, maxsus tibbiy muassasalar) uchun markaziy hokimiyat javob berishi ko'zda tutilgan. Mahalliy budjetlar esa o'zining ma'muriy hududi doirasidagi xarajatlarga javobgar bo'ladi.

Ma'lumki, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan xizmatlarga mudofaa, milliy xavfsizlik va sud organlarini saqlash kiradi. Aniq bir hudud aholisi sharoitiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan va hududiy ahamiyatga ega bo'lgan umumjamiyat xizmatlariga umumiy ta'lim, tibbiy sanitar yordami va boshqalar kiradi. Shuning uchun ham Respublika budjeti faqat mudofaa (istisno ravishda mudofaa ishlarini boshqarish xarajatlari)ni 100 foizga amalga oshiradi, qolganini esa turli darajadagi budjetlar amalga oshiradi. Umuman olganda, mavjud qonunchilikka ko'ra xarajatlarni taqsimlash jahon standartlariga javob beradi. Ammo amaliyotda hamma vaqt ham xarajatlardan samarali foydalanish ta'minlanmaydi. Buni quyidagicha izohlash mumkin: Asosiy sabab real birlashtirilgan xarajatlar qonunchilikka mos kelmasligidir. Bu avvalo Respublika va mahalliy budjetlar orasida xarajatlarni amalga oshirish mas'uliyatining aniq chegarasi yo'qligidandir. Amaldagi qonunchilikka ko'ra atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari mahalliy hukumat organlari qaramog'ida bo'lishi belgilangan. Amaldagi „Budjet tizimi to'g'risida“gi qonunda Respublika va mahalliy budjetlar o'rtasida xarajatlarni taqsimlash mohiyati ko'rsatilgan. Yuqorida bayon etilgan sohalarini moliyalashtirish aynan qaysi

budgetdan amalga oshirilishini aniqlashtirish kerak. Yana bir muammomning mohiyati mahalliy budgetlarga mintaqaviy emas, balki umummilliy xaraktyerdagi xarajatlarning biriktirib qo'yilganligidadir. Gap markazlashgan investitsiya xarajatlari va ijtimoiy nafaqalar haqida borayapti. Ijtimoiy himoyani boshqarish va ularning me'zon va shakllarini belgilash vakolati markaziy hukumatga yuklatilgan.

Bunda moliyani boshqarish tizimini shakllantirishning strategik yo'nalishi — hokimiyatlarning barcha darajadagi xarajatlar vakolatlari va ularni Respublika, viloyat, tuman budgetlari o'rtasidagi aniq cheklanishlari inventarizatsiyasi hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda xarajatlar vakolatlarini budgetlar o'rtasida 2002 yilda taqsimlanishini ko'rish mumkin.

*6- jadval*

**Umumiy davlat xarajatlarida turli darajadagi budgetlar xarajatlarining 2002 yildagi salmog'i**

(foizda)

		Respublika budgeti	Viloyat budgeti	Tuman va shahar budgetlari
1	Ijtimoiy soha	16	24	60
2	Ijtimoiy himoya	2	23	75
3	Iqtisodiyotga	83	9	8
4	Markaziy investitsiya	41	59	0
5	Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari	61	16	23
6	Prokuratura va sud organlari	100	0	0
7	Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari	0	5	95
8	Boshqa xarajatlar	88	11	1
Jami		45	25	30

Endi budget daromadlarini shakllantirishdagi mavjud bo'lgan muammo va kamchiliklarni ko'rib chiqamiz. Biz yuqorida Qoraqalpog'iston respublikasi va mahalliy budgetlarning daromadlari manbalarini, shuningdek mahalliy soliq va yig'imlarni ko'rib chiqqan edik. Turli davlatlarda mahalliy soliqlarni boshqarishda mahalliy hokimiyat organlari turlicha vakolatlarga ega. Ko'pgina davlatlarda mahalliy soliqlarning eng yuqori darajasi yoki diapazoni o'rnatiladi va ularning doirasida mahalliy organlar foizlarni mustaqil ravishda o'rnatishadi. Yurtimizda esa ikkita, ya'ni mol-mulk va yer solig'i Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatiladi. qolganlarini esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan eng yuqori chegarasi belgalab beriladi va ularni o'rnatish hamda imtiyozlar berish mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. Mahalliy soliqlar mahalliy budget daromadlarining muhim manbai hisoblanadi, biroq ularning asosiy qismini umumdavlat soliqlaridan ajratmalar hisobidan shakllantiriladi. Budget daromadlari davlatning budget foizini shakllantirish jarayonida Respublikamizning korxonalar, tashkilotlar va fuqarolar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi.

Bu iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos ifodasi bo'lib, korxonalar, tashkilot va fuqarolar davlat budgetiga turli xil to'lovlar vositasida xizmat qiladi, uning moddiy-ashyoviy qiymati esa budget fo'ndiga mobilizatsiya qilinadigan pul mablag'lari hisoblanadi.

Budget daromadlarining tarkibi pul mablag'larini budgetga yo'naltirish shakllari xo'jalik yuritishning tizimi va uslublariga, shuningdek jamoatchilik tomonidan hal qilinadigan masalalarga bog'liq.

Mahalliy budgetlarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

— mahalliy budgetlarga ajratiladigan tartibga soluvchi daromadlar miqdorini qat'iy foizlarda va nisbatan uzoq vaqt mobaynida o'zgartirilmaydigan qilib belgilab qo'yish;

— budget ijrosi davomida mahalliy budjetlarning daromad rejasini o'zgartirish orqali mahalliy budjetlar tomonidan amalga oshirilayotgan xarajatlarni daromadlar bilan ta'minlash amaliyotidan voz kechish;

— mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan va budget tushumlari hisobidan qoplashga asoslangan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish. Bunda obligatsiyalardan keng ko'lamda foydalanish mumkin. Chunki obligatsiyalar qat'iy belgilangan foizlarda daromad keltiradi. Ularni qisqa muddatli qilib chiqarish va foiz to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish obligatsiyalarning bozor bahosining o'sishiga olib keladi. Bunda mahalliy budjetga obligatsiyalarning bozor bahosi va nominal qiymati o'rtasidagi farq ko'rinishida sof daromad keltirishi mumkin. Budget ijrosi jarayonida vujudga keladigan qisqa muddatli pul etishmasligining oldini olish maqsadida obligatsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mahalliy budjetning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishning yana bir yo'li — bu mahalliy hokimiyatlarning budjetlarga qarz majburiyatlarini jalb qilishning qonuniy asoslarini yaratishdir. Ya'ni, bunda mahalliy budjetlarga tijorat veksellarini chiqarish huquqini berish nazarda tutilayapti. Masalan, Rossiya fedyeratsiyasida mahalliy hokimiyat organlari veksellar chiqarish yo'li bilan budget tashkilotlarining boshqa xo'jalik tashkilotlari oldida qarzdorligi muammosini hal qilish imkoniga ega bo'ladilar. Lekin, afsuski, yurtimizda veksellar muomalada mavjud emas.

Ma'lumki, hozirgi kunda ko'pgina korxonalar va tashkilotlar o'z xodimlari va ularning oilalari uchun ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Bu esa, o'z navbatida, ularning umumiy mablag'laridan ayrim qismini ishchi va xodimlarini ijtimoiy himoya qilish maqsadida qo'shimcha xarajat qilishiga olib kelayapti va korxonalarining moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu ijtimoiy xarajatlarning mahalliy budjetlar hisobidan amalga oshirilishi ishlab chiqarishni yanada rivojlan-



tirish imkonini beradi.

Ma'lumki, amaldagi qonunchilikda mahalliy budjetlarni shakllantirish va ijrosini tashkil etishda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga katta imkoniyatlar berilgan. Shuningdek, Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga va nomarkazlashgan moliyaviy munosabatlarga bosqichma-bosqich o'tayotgan sharoitda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari moliyaviy vakolatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Umuman olganda, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatlariga qo'shimcha moliyaviy munosabatlarni belgilash, avvalambor mahalliy budjetlar daromadlarini kengaytirishga, soliq va yig'implarni o'z vaqtida undirilishini ta'minlashga xizmat qiladi hamda nomarkazlashgan moliyaviy munosabatlar bosqichi sifatida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu borada quyidagi takliflar mavjud:

— mahalliy budjetlarni mustahkamlashda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatlariga ayrim soliq va yig'implarni undirish vazifasini kiritish;

— fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlari, ya'ni mahallalarda joylashgan, lekin qarovsiz, bo'sh yotgan binolar va yerlar hamda qurilishi bitmasdan o'z holiga tashlab qo'yilgan ob'ektlardan foydalanishni yo'lga qo'yish;

— fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga berilgan vakolatlarini kengaytirish, ya'ni ularning mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishdagi rolini kuchaytirish. Jumladan, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari joylashgan hududni uning davlat tomonidan ijaraga berilgan mulki sifatida belgilash, ya'ni ularning organlari joylashgan hududidagi yuridik shaxsning mulkchilik shaklidan qat'i nazar va uning faoliyatidan olinadigan daromaddan ulushiga ega bo'lish. Bu esa mahalliy budjetlarni mustahkamlashda quyidagilarni hisobga oladi:

— mahalla mulkiga ega bo'lishni va o'z mulkining qo'riqchisiga aylanishni;

— fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari hududida

istiqomat qiluvchi yuridik shaxsning faoliyati mahalla nazoratida bo'lishini;

— mahalla xarajatlari uchun daromad manbai paydo bo'lishini;

— mahalla hududida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxs uchun korxonalar va tashkilot faoliyatiga turli idoralarning aralashuviga barham berilishi;

— mahallaning ijtimoiy iqtisodiy muammosini o'zi hal qilishini;

— mahalla fuqarosi o'z hududida joylashgan har bir ob'ektni o'z himoyasiga olgan holda, doimiy ravishda ozodalik, obodonlashtirish va hasharlarni xolisona tashkil etishini;

— korxonalar egasi bo'lgan mazkur yuridik shaxs mahalla hududida joylashgan kam ta'minlangan oilalarga, yetim bolalar, qariyalar, ishsizlarga, maktab va bog'chalar faoliyatiga yaqindan yordam berish va ularga mehr-muruvvat ko'rsatishini.

---

---

## **11-BOB. Moliyaviy nazorat va uni tashkil etish**

Moliyaviy nazorat — butun nazorat tizimining tarkibiy qismi boʻlib, uning yoʻnalishi, davlat moliya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, tarmoqlar iqtisodiyotidagi barcha soha va boʻgʻinlarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va samarali foydalanishga qaratilgan boʻladi. Bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrida va bozor munosabatlari rivojlangan taqdirda ham moliyaviy nazoratning ahamiyati pasaymasdan, balki oshib boradi.

Moliyaviy nazorat - bu maxsus shakl va uslublarni qoʻllash orqali xoʻjalik yurituvchi va boshqaruv organlarining moliyaviy faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan masalalarni tekshirishga qaratilgan harakatlar va taftishlar yigʻindisidir.

Moliyaviy menejmentning nazorat funksiyasi soʻm bilan nazorat orqali amalga oshiriladi. Bunda toʻlov va hisob kitoblarni olib borish jarayonida moliyaviy koʻrsatkichlarning oʻzgarishi ustidan va moliyaviy strategiya bajarilishi ustidan nazorat oʻrnatiladi.

Moliyaviy menejmentning nazorat funksiyasi uning takror ishlab chiqarish va taqsimlash funksiyasi bilan doimo bogʻlanib ketadi.

Moliyaviy menejmentniig nazorat funksiyasi korxonada daromad manbalarini, ishlab chiqarish va sotish jarayonida pul fondlari strukturasi aniqlash, korxonaning pul fondlari va moddiy resurslaridan foydalanishida daromad va harajatlarni tartibga solish maqsadlariga xizmat qiladi.

Korxonada moddiy va moliyaviy mablagʻlarini, daromad va harajatlarini balanslashtirishda xom ashyo, moddiy resurslardan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, qarz va toʻlovlarni oʻz vaqtida toʻlash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun moliyaviy menejmentiing nazorat funksiyasi quyidagi yoʻnalishlarda namoyon boʻladi:

– korxonada shakllanadigan barcha fondlarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha o‘z vaqtida hisob-kitob qilib borilishi ustidan nazorat;

– korxonadagi ishlab chiqarish iste‘moli va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga asoslangan holda fondlar strukturasi ga amal qilinishi ustidan nazorat;


– moliya resurslarining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazorat.

Korxonada nazoratni amalga oshirish uchun normativlar ishlab chiqish talab etiladi. Bunda pul resurslari fondining manbalari va moliyalashtirilish hajmi aniqlanadi. Ya‘ni korxonaning ichida normativlardan foydalanib, moliyaviy resurslar tartibga solinadi va iqtisodiy munosabatlar yo‘lga qo‘yiladi. Pul fondlaridan foydalanish smeta bo‘yicha tashkil etiladi va foydalanishning maqsadli va samarali amalga oshirilishi ustidan nazorat olib boriladi.

Moliyaning nazorat funksiyasining ob‘ekti bo‘lib xo‘jalik sube‘ktlari faoliyatining moliyaviy natijalari hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat o‘z navbatida quyidagi ko‘rsatilgan turlar-ga ajratiladi:

*3-shakl.*



## O'tkazish muddatlari bo'yicha moliyaviy nazoratning turlari.

Dastlabki moliyaviy nazorat (1. Korxonalar moliyaviy rejasini tuzish ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonidagi moliyaviy nazorat. 2. Budjet tashkilotlari smetasi. 3. Davlat budjeti loyihasi tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonidagi moliyaviy nazorat).

Joriy moliyaviy nazorat (Moliyaviy rejani bajarilishi, budjet daromad va xarajatlarining bajarilish to'g'riligini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi. Bu yerda operativlik va moslashuvchanlik muhim rol o'ynaydi).

So'nggi moliyaviy nazorat (Amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar so'ngi natijalarining samaradorligini tekshirish hisoblanadi).

Moliyaning boshqa qiymat kategoriyalari: pul, kredit, mehnatga to'lovlar fondi, baho va boshqalardan farqli tomoni uni davlatlarning amal qilishi bilan bevosita bog'liqligi hisoblanadi.

Moliyaviy nazoratni tatbiq etish uchun yuqori malakali va tajribali mutaxassislardan tarkib topgan maxsus organ tashkil etiladi. Ularning huquq va majburiyatlari qonunchilik orqali qat'iy reglamentlangan bo'ladi. Moliyaviy nazorat — tarmoqlar iqtisodiyotidagi nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, u qiymat kategoriyasi bilan bog'liqdir. Moliyaviy nazorat ma'lum bir sohalarida qo'llanilib, o'ziga xos maqsadli yo'nalishga ega bo'ladi. Moliyaviy nazoratning ob'ektiga unga moliyaviy resurslarning harakati, shakllanishi va foydalanishdagi taqsimlash va pullik jarayonlar shuningdek, tarmoqlar iqtisodiyotining barcha bo'g'inlaridagi fond shaklidagi pul resurslari ham kiradi.

Bevosita tekshirish predmetlari esa, moliyaviy (qiymat) ko'rsatkichlar tarkibiga kiruvchi foyda, daromad, bevosita va bilvosita soliqlar, rentabellik, mahsulot-tannarxi, muomala xarajatlari, turli xil maqsadlar va fondlarga ajratmalar hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar uyg'unlashgan xarakterga ega bo'ladi, shuning uchun nazorat, xo'jalik yurituvchilarning ishlab chiqarish, xo'jalik yuritish, tijorat va moliya-kredit mexanizmidagi o'zaro bog'liqlikni barcha tomonlarini qamrab oladi.

Moliyaviy nazorat quyidagi masalalarni o'zida aks ettiradi:

- ob'ektiv iqtisodiy qonunlar talabiga rioya etish;
- milliy daromad va yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlashdagi optimallikni ta'minlash;
- davlat budjeti daromadini tashkil etish va ijrosi (budjet nazorati)ni ta'minlash;
- korxonalar, tashkilot va budjet muassasalarida moliyaviy, mehnat va material resurslaridan samarali foydalanish;
- xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy holati va soliq nazorati.

Moliyaviy nazoratning oldida hal qilinishi lozim bo'lgan quyidagi vazifalar turadi:

- tarmoqlar iqtisodiyotidagi pul daromadlari va fondlari bilan moliyaviy resurslarga bo'lgan talab o'rtasidagi mutanosiblikka ta'sir o'tkazish;
- davlat budjeti oldidagi moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liqligicha bajarilishini ta'minlash;
- moliyaviy resurslarni ko'paytirishda ichki ishlab chiqarish rezervlarini aniqlash;
- tannarxni pasaytirish hisobiga rentabellikni oshirish yo'llarini ko'rsatish;
- xo'jalik sub'ektlarining pul resurslari va moddiy boyliklarni maqsadga muvofiq ob'ektlarga sarflashga ta'sir qilish, shuningdek, buxgalteriya hisobi va hisobotini to'g'ri yurgizish;
- harakatdagi qonunchilik va normativ aktlarga rioya qilishni ta'minlash, shuningdek, turli xil mulk shaklidagi korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish uchun takliflar berish;
- korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati va valyuta operatsiyalaridan yuksak iqtisodiy samara olishiga shart-sharoit yaratish va shu kabilar.

Moliya intizomiga rioya qilish uchun moliyaviy nazorat korxonalar, tashkilot va muassasalar javobgarligi bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Bunday javobgarlik moliya intizomini buzgan shaxsga nisbatan, ham ma'muriy ko'rinishda, ham iqtisodiy usulda bo'lishi mumkin. Iqtisodiy usul bilan ta'sir ko'rsatish muayyan moliya sanksiyalari orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy javobgarlikni oshirish va uning ta'sirini kuchaytirish bir tomondan qo'llanilayotgan moddiy jarimalar miqdorini kamaytirishni va ikkinchi tomondan ularning samaradorlik darajasini ko'tarishni talab etadi.

Jamiyatdagi iqtisodiy hayotning turli xil sohalarida va xo'jalik boshqaruvidagi ko'p qirrali murakkab vazifalarni hal qilishda moliyaviy nazorat faol ishtirok etadi, shunga binoan uni tashkil etish uchun ma'lum bir talablarni aniqlash taqozo etiladi.

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi sub'ektlar o'z mavqeidan kelib chiqib quyidagicha farqlanadi:

- davlat moliya nazorati;
- korxonada ichidagi moliya nazorati;
- jamoa moliya nazorati;
- mustaqil (auditorlik) moliya nazorati.

Davlat moliya nazoratini umumdavlat boshqaruv organlari bilan bir qatorda, alohida vazirliklar orqali ham amalga oshiradi. Umumdavlat boshqaruv organlari moliya nazoratini amalga oshirayotganda, mamlakat hududidagi xo'jalik sub'ektlarining mulk shakli va vazirlikka bo'ysunishidan qat'iy nazar barchasini qamrab oladi. Vazirliklar tomonidan amalga oshirilayotgan moliya nazoratini faqat o'zlarining tarkibidagi maxsus nazorat taftish organlari amalga oshiradi. Ularning tekshirish ob'ektlari esa, vazirliklar tarkibidagi korxonalar, konsernlar, assotsiasiyalar va aksionerlik jamiyatlarining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidan iborat bo'ladi.

Korxonada ichidagi moliya nazoratini korxonada, tashkilot va muassasa ichida tashkil qilingan iqtisodiy xizmat (buxgalteriya, moliya bo'limi)lar amalga oshiradi. Nazorat ob'ekti bo'lib, alohida korxonaning moliya va ishlab chiqarish jarayoni va alohida korxonada tarkibiga kiruvchi tuzulmaviy bo'lim (filial, shaxobcha, bo'lim)lar hisoblanadi.

Jamoa moliya nazoratini alohida guruh, alohida jismoniy shaxslar (mutaxassislar) ixtiyoriy va mehnat haqi talab qilmaslik sharti asosida amalga oshiradi. Nazorat ob'ekti bo'lib, tekshiruvchi oldida turgan muayyan vazifalar nazarda tutiladi.

Mustaqil (auditorlik) moliya nazoratini maxsus audit firmalari va xizmatlari amalga oshiradi.

Moliyaviy nazoratni amalga oshirish shakli quyidagicha bo'ladi: dastlabki, joriy va so'nggi.

Moliya nazoratining dastlabki shakli — yuridik va jismoniy shaxslarning moliya xo'jalik jarayonini yurgazishda muhim ahamiyat kasb etib, u korxonada moliya rejasini tashkil qilishda, ko'rib chiqishda va tasdiqlashda, muassasa va tashkilotlarning daromadlar va xarajatlar smetasi, ta'sis hujjatlarini imzolashdan oldin amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarayonlar tartibidir. Shunday qilib, dastlabki nazorat moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ijobiy shart-sharoit yaratib beradi. Moliyaviy nazoratning bu shakli amaldagi qonunchilik va normativ aktlar buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Joriy moliya nazorat shakli xo'jalik-moliya operatsiyalari jarayoni orqali moliya rejalari bajarilayotgan paytda qo'llaniladi. Ushbu shaklning asosiy ahamiyati korxonalarining ichki xo'jalik rezervlarini izlash hisobidan jamg'armani oshirishga ta'sir qiladi. Joriy moliya nazorati korxonada, tashkilot va muassasalarning moliya xizmatlari orqali moliya rejasini bajarilayotganda, moliyaviy intizomlar buzilishining oldini olish maqsadida kundalik tadbirlarni amalga oshiradi.

Moliya nazoratining so'nggi shakli hisobot davri va butun moliya yili tugagandan so'ng amalga oshiriladigan tadbirlar yig'indisidir. Bunda, budjetni ijro etishdagi davlat pul resurslarini maqsadga muvofiq xarajat qilinganligi, korxonada va tashkilotlarning moliya rejasining bajarilganligi hamda budjet muassasalari smetasining bajarilish natijalari tekshiriladi. So'nggi moliya nazorati dastlabki moliya nazorat shakli bilan o'zaro bog'liqdir, chunki so'nggi nazorat dastlabki moliya nazorati bazasida amalga oshiriladi.

Moliya nazoratini amalga oshirish usullari bo'yicha ham farqlanadi va tekshirish, tahlil qilish va taftish ishlarini olib borishga bo'linadi.

Tekshirish usuli orqali, hisobot, balans va xarajat hujjatlari asosida korxonada moliya-xo'jalik faoliyatining alohida masalalari ko'rib chiqiladi. Tekshirish jarayonida moliya intizomining buzilganligi aniqlanadi, natijada, mavjud muammolarni bartaraf etish va salbiy holatlarni takrorlamaslik uchun chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.



Moliya nazoratining tahlil usuli muqarrar va omilkor bo'lishi lozim, chunki u davriy yillik hisobotlar orqali bajariladi. Pirovardida, mablag'larni xarajat qilish normasi ta'minlanadi va rejaning bajarilishi aniqlanadi.

Moliya nazoratining taftish usuli korxon va tashkilotlarning hisobot davridagi moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun qo'llanilayotgan eng ustuvor usullaridan biri hisoblanadi.

Amaliyotda har qanday taftishni amalga oshirishdan oldin maxsus dastur qabul qilinib, uning tarkibida taftish maqsadi, ob'ekti, mavzusi va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan asosiy masalalar aks ettiriladi. Taftishning maqsadidan kelib chiqib, turli xil yondashishlar, jumladan, reja va hisobotdagi ma'lumotlarni qiyoslash, naqd pullarni tekshirish, hujjatli va qarama-qarshi tekshirishlar, moddiy-tovar boyliklarini inventarizatsiya qilish va shunga o'xshashlar qo'llaniladi. Taftish so'ngida uni amalga oshirgan mutaxassislar tomonidan dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomada korxonaning ishlab chiqarish faoliyatida yuzaga kelgan kamchiliklar va muammolarni bartaraf qilish uchun chora-tadbirlar ko'rsatiladi. Moliyaviy nazoratning sub'ektlari bo'lib, biror-bir ob'ektni nazorat qilish funksiyasi yuklatilgan maxsus organlar va tashkilotlar hisoblanadi. Moliya vazirligi tarkibida bo'lgan moliya organlari davlat moliyasiga va uning markaziy bo'g'ini bo'lgan davlat budjetiga pul resurslarini jalb qilish va xarajatlardan samarali foydalanishni nazorat qilib turadi. Moliya vazirligi apparatida nazorat-taftish boshqarmasi (departamenti) faoliyat olib borsa, mahalliy-hududiy moliya boshqarmalarida esa bosh nazorat-taftish apparatlari funksional ishlarni olib boradi.

Nazorat-taftish boshqarmasi va bosh nazorat-taftish apparati korxon va tashkilot va muassasalarning barcha turdagi moliya-ishlab chiqarish faoliyatini taftish qilishga haqli bo'ladi.

Davlat soliq qo'mitasi — bu moliyaviy nazoratning operativ organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuniga binoan o'z faoliyatini olib boradi. Soliq inspeksiyasi faoliyatining xususiyatli tomoni shundaki, u vertikal prinsipda tashkil qilingan bo'lib, mahalliy joylardagi tuman, shahar soliq inspeksiyalari faqat o'zining yuqori tabaqadagi organiga bo'ysunadi va shunga bevosita hisobot beradi.

Davlat soliq xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish;

— sharoitlarni ta'minlash, soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishlarida yordam ko'rsatish;

— soliq siyosatining ro'yobga chiqarilishida bevosita qatnashish;

— soliqlarga tortiladigan ob'ektlar va sub'ektlarning to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash;

— soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish.

Davlat soliq xizmati organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga egadirlar:

— soliq to'lovchilarning (shu jumladan, soliq to'lovchi bilan bog'liq bo'lgan sub'ektlarning) moliyaviy hujjatlari, shartnomalari (kontraktlari), rejalari, smetalari, daromadlar haqidagi deklarasiyalari va soliqlarni hisoblab chiqish, ularni to'lash va boshqa hujjatlarini, shuningdek, eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlarini tekshirish, tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo'yicha zarur tushuntirishlar, ma'lumotlar va axborotlar olish;

— yuridik va jismoniy shaxslardan soliq to'lovchilarning faoliyatiga taalluqli axborotlar, ma'lumotnomalar, hujjatlar va ularning nusxalarini olish;

— soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'yayotgan yuridik va jismoniy shaxslardan daromadni (foydani) va soliqlarga tortiladigan boshqa ob'ektlar yashirilganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni, jumladan huquqbuzarlik predmetlarini olib qo'yish;

— tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish tartibini buzayotgan jismoniy shaxslardan litsenziyalari, patentlari yoki ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvoxnomalarini olib qo'yib, so'ngra qonun buzilganligiga doir materiallarni mazkur faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat bergan organlarga topshirish;

— kassalarni va tovar-moddiy boyliklar va hujjatlar saqlangan joylarni muhrlab qo'yish, tovarlar, buyumlar, xom ashyo,

materiallar va yarim tayyor mahsulotlarning namunalari huningdek, hujjatlarni olib qo'yish va ularni tekshirishga, taqdim qilishga va ekspertizaga yuborish;

— savdo, tovarlarni berish va xizmat ko'rsatish qoidalariga o'zaro qo'yilishini tekshirish;

— yuridik va jismoniy shaxslarning qayerda joylashganligidan qat'i nazar, daromad (foyda) olish uchun foydalaniladigan yoxud soliq tortish ob'ektlarini saqlab turish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish binolari, omborxonalar, savdo va boshqa binolarni hamda joylashgan shu jumladan, alohida rejimdagi korxonalarni) tekshirish, bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni tekshiruv tariqasida o'lichalarni va tovar-moddiy boyliklarni ro'yxat qilish. Soliq xizmati organlarining solliqlar bo'yicha tekshirish o'tkazayotgan mansabdor shaxslari murabbiy ur binolar yoki joylarga kiritilmagan taqdirda davlat soliq xizmatidagi organlari o'zlarida mavjud bo'lgan axborotlar (shu jumladan, soliq to'lovchining xarajatlari haqidagi axborotlar) asosida yoki boshqa shu kabi xshagan soliq to'lovchilarga solinadigan solliqlarni nazarda tutgan hollarda solliqlar summasini mustaqil ravishda belgilashga haqlidir;

— yuridik va jismoniy shaxslardan hujjatlarining buzilgan hollarda niqlangan hollarni bartaraf etishini talab qilish;

— yuridik va jismoniy shaxslar hujjatlar asosida (hisob-kitob tekshiruv o'tkazilishini yoki davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslar daromad (foyda) olish uchun foydalanadigan ob'ekti soliqqa tortish ob'ektini saqlab turish bilan bog'liq binolar va joylarga kiritishini rad etsa, solliqlarni hisoblab chiqarish va to'lovchilarga taqdim qilish bilan bog'liq, moliyaviy hisobotlar, hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va boshqa hujjatlarni soliq xizmati organlariga va ularning mansabdor shaxslariga taqdim etmasa (yoki taqdim etishni rad qilsa), bunday hollarda yuridik shaxslarning, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq jismoniy shaxslarning banklardagi va boshqa moliya kredit muassasalaridagi hisob-kitob va boshqa hisob varaqalari bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib qo'yish;

**Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:**

— solliqlarga oid qonunbuzarliklar haqidagi ishlarni ko'zdan o'tkazish va yuridik hamda jismoniy shaxslarga nisbatan moliya jazo choralarini qo'llash;

— ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralarni qo'llash;

— soliqlar borasida qonunbuzarlik faktlari bo'yicha tovar-moddiy boyliklarni qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va belgilangan tartibda musodara qilish;

— soliqlar bo'yicha boqimandalarni, shuningdek, jarima summalarini qonun hujjatlariga muvofiq so'zsiz undirib olish;

— yuridik va jismoniy shaxslarning gayriqonuniy ravishda olgan mablag'larini davlat daromadiga undirish haqida ularga nisbatan sudda da'vo qo'zg'atish;

— tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilishni belgilangan tartibda muvofiqlashtirish, nazorat qiluvchi organlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilish yuzasidan amalga oshirayotgan ishlarni to'xtatish haqida takliflar kiritish;

— daromadlar (foyda) yoki boshqa soliqqa tortish ob'ektlarini yashirish hollari aniqlanganda qonun hujjatlariga muvofiq surishtiruv o'tkazish, jinoiy ishlar qo'zg'atish va ularni tergovga tegishligiga ko'ra o'tkazish.

Davlat soliq xizmati organlari «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi qonun bilan bir qatorda, boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'zga huquqlarga ham egadirlar.

Davlat soliq xizmati organlari davlat statistika, axborot, arxiv, ma'lumot va boshqa tashkilotlarning soliq to'lovchilar haqidagi ma'lumotlarini berish yuzasidan ko'rsatadigan xizmatlari (barajadigan ishlari) uchun haq to'lashdan ozod qilinadi.

Davlat soliq xizmati organlarining nafaqat, vazifa va huquqlari mavjud, balki majburiyatlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

— soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, ushbu qonun va boshqa hujjatlarning talablariga rioya etish;

— yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

— soliqqa tortiladigan sub'ektlar va ob'ektlar, hisoblab chiqarilgan va to'langan soliqlarning to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini, shuningdek, jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish tartibiga rioya etishlari ustidan nazoratni ta'minlash;

— soliq haqidagi qonun hujjatlarini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma materiallar, uslubiy ko'rsatmalar va qo'llanmalar ishlab chiqish va nashr etish;

— soliqlar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazilayotgan vaqtda soliq to'lovchilarga ularning huquqlari va vazifalarini tushuntirish;

— soliq to'lovchilarga o'tkazilgan tekshiruvlar natijalarini ma'lum qilish;

— soliq to'lovchilarga soliq haqidagi qonunlar va normativ hujjatlarni o'z vaqtida yetkazish;

— soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzish faktlarini to'plash, tahlil etish va baholash hamda soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarga yo'l ochib berayotgan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida tegishli organlarga takliflar kiritish;

— huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgaliqda soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarga qarshi kurashning uzoq muddatli va joriy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

— soliqqa oid qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa axborotlarni tekshirish;

— yuridik va jismoniy shaxslarga, ular soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga olinganliklari to'g'risidagi hujjatlarni, ro'yxatdan o'tkazish (indentifikatsiyalash) tartib raqamlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berish;

— musodara qilingan, egasiz mol-mulk, xazinalar, meros huquqi bo'yicha davlatga yoki fuqarolarning o'zini- o'zi boshqarish ogranlariga o'tgan mol-mulkning hisobini yuritishlari, ularni baholashlari va ularning realizatsiya qilinishini nazorat etish;

— masalani hal etish davlat soliq xizmati organlarining vakolat doirasidan chiqqan hollarda qonun hujjatlarini buzish faktlariga oid materiallarni prokuratura, ichki ishlar, milliy xavfsizlik xizmati organlariga va sudga oshirish;

— yuridik va jismoniy shaxslar valyuta hamda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartibiga rioya etishlarini o'z vakolatlari doirasida nazorat qilish;

— qonun hujjatlariga muvofiq, soliq to'lovchilarga taalluqli ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya etish;

— o'zlariga bo'ysunadigan bo'linmalar faoliyatini nazorat qilish.

Mazkur majburiyatlardan tashqari, Davlat soliq xizmati organlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajaradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-pul munosabatlari rivojlanishi yuksaladi, pirovardida, bir tomondan, xo'jalik sub'ektlarining rang-barang mulk shakllari vujudga kelsa, ikkinchidan, moliya bozorining paydo bo'lib rivojlanishiga ham turtki bo'ladi. Bunday holatlar o'z o'rnida moliyaviy nazoratning yangi turlarini vujudga kelishi va undan samarali foydalanishni taqozo etadi. Auditorlik — bizning Rsspublikamizda yangi nazorat organi bo'lib, u mulk shaklidan qat'i nazar barcha turdagi korxonalar, tashkilot va muassasalarni moliya-xo'jalik, tijorat va tadbirkorlik faoliyatini pullik asosda tekshirishdan o'tkazadi. Auditorlik firmalari — bu mustaqil muassasa bo'lib, nazoratning ob'ektivligini ta'minlashga va uning sifat darajasini yaxshilashga ta'sir ko'rsatadi.

---

---

## **12-BOB. Davlat moliyasini boshqarishda axborot tizimi**

Axborot tizimi — bu korxonalar, tashkilot yoki muassasalarning moliyaviy hisob-kitoblari va tijorat faoliyatlarini, ularning turli boʻgʻinlari faoliyatini belgilaydigan hujjatlar hamda axborotlarni kiritish, qayta ishlash, qabul qilish va uzatishdagi funksiyalarini avtomatlashtiradigan dasturiy texnik vositalar majmuidir. Korxonaning axborot tizimi, uning vsosiy maqsadlari hamda vazifalari boʻyicha barcha turdagi faoliyatning tezkor va sifatli bajarilishini taʼminlashi shart hisoblanadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda xalqaro moliyaviy tashkilotlar yordamida mamlakatimiz uchun yangi boʻlgan gʻaznachilik institutini shakllantirish ishlari davom etmoqda. Hisob-kitoblarga koʻra mazkur moliyaviy organni barpo etish umumiy xarajatlarning qariyb 80 foizini gʻaznachilikning axborot tizimini qurish, tizim uchun zaruriy boʻlgan zamonaviy texnika vositalari va qurollari, dasturiy mahsulotlar sotib olish hamda gʻaznachilikning talab darajasidagi maʼlumotlar yetkazuvchi tarmogʻini yaratish ishlari tashkil etadi. Ayni paytda Moliya vazirligining mavjud axborotlar tizimi moliyaviy hisoblar tizimi oldida turgan keng koʻlamli vazifalarni avtomatlashtirish va faoliyat davomida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muayyan muammolarni operativ ravishda hal qilish talablariga toʻlaqonli javob bermaydi. Mana shulardan kelib chiqib, boʻlgʻusi gʻaznachilik organining axborotlar tizimini yaratishda uni eng zamonaviy texnik vositalari va yechimlar bilan taʼminlabgina qolmay, hozirgi kundagi mavjud kamchiliklarni bartaraf qilishga ham yoʻnaltirish muhimdir.

Moliya vazirligi gʻaznachilik tizimining yuzaga kelishi Davlat budjeti ijrosi, budget buxgalteriya hisobi va hisobotini gʻaznada jamlab, vazirlik tomonidan budget sohasini boshqarish, nazorat qilish jarayonini zamonaviy telekommunikatsiyalar negizida takomillashtirishga imkon beradi. Gʻaznachilik tizimi yaratilishi munosabati bilan

Respublikada Davlat budjetini tayyorlash, ijro etish va buxgalteriya hisobi amaliyotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

G'aznachilik axborot tizimining yaratilishi quyidagilarni ko'zda tutishi kerak:

- to'lovlarni qayta ishlash, tegishli budjet buxgalteriya hisobini yurgazish moliya organi budjet hisobotini g'azna organida olib borishni markazlashtirish

- Markaziy bankda joylashgan g'aznachilikning yagona hisob raqami (G'YaHR)da moliyaviy resurslarni jamlash;

- barcha moliyaviy operatsiyalarni g'aznachilikning Bosh kitobida aks ettirish.

Yangi tizimning yaratilishi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- budjet ijrosi jarayonini operativ ravishda kuzatish imkonini beradigan budjet shaffofligini;

- boshqaruv qarorlari qabul qilishda o'zgartirishlar kiritish va qayta ko'rib chiqish imkoniyatlarini;

- budjet mablag'larining maqsadsiz ravishda ishlatilishi holatlariga yo'l qo'ymaslik;

- budjetni istiqbollash va rejalashtirish amaliyotlari sifatini oshirish;

- real vaqt rejimida budjet jarayonini boshqarish va hokazo.

Byudjetning g'azna ijrosi kassa yagonaligi tamoyiliga asoslanadi. U budjetga kassa xizmati ko'rsatadigai organ sifatida budjetning barcha daromadlari jamlanadigan va budjetda ko'zda tutilgan barcha harajatlar aks ettiriladigan yagona hisob raqami ochilishini nazarda tutadi. G'aznachilik organlari budjet mablag'larini oluvchilar va taqsimlovchilarning kassirlari bo'lib hisoblanadilar hamda budjet muassasalari nomidan ularning topshirig'iga binoan budjet mablag'lari hisobidan to'lovlarni amalga oshiradilar. Muayyan budjetning barcha operatsiyalari va mablag'lari g'aznaning balans hisoblari tizimida aks ettiriladi va mazkur qoidadan tashqarida operatsiyalar qilinishi ma'n etiladi.

Byudjet tashkilotlarining tijorat banklaridagi hisob raqamlari yopiladi va g'aznada ularning shaxsiy hisob varaqlari ochiladi. Mazkur varaqalarda budjet majburiyatlari limitlari, olingan moliyalashtirish va kassa xarajatlari hisobi yurgaziladi.



O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyalarini **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** tizimi (AKTT)ning maqsadi va uning ishlatilishi bo‘yicha vazifalar quyidagilardan iborat:

— mavjud mablag‘lardan samarali foydalanish imkonini beradigan budget ijrosi bo‘yicha axborotlarning kelib tushishini jadal-lashtirish;

— mablag‘lar saqlanishini ta‘minlash;

— budget ijrosining barcha bosqichlarida (mablag‘ ajratishdan tortib kassa xarajatigacha) nazoratni ta‘minlash;

— xarajat ustidan nazorat to‘lovdan avvalgi bosqichda amalga oshiriladi va nazorat samarasini yaxshilaydi;

— budget ijrosi va resurslarni boshqarish jarayonlari samarasini ko‘tarish;

— moliyaviy hujjatlar va elektron xabarlarini andozalashtirish;

— moliyaviy hujjatlar almashishini samarali, tezkor, ishonchli va konfidensial tarzda ta‘minlash;

— budget mablag‘lari oluvchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini ko‘tarish;

— budget tasnifini markazlashtirilgan tarzda yurgazish va uni budgetni boshqarish barcha bo‘g‘inlariga tezkor ravishda tarqatish va hokazo.

AKTT, uning funksiyalari, foydalanish ko‘lamining kengayishi yo‘nalishlaridan kelib chiqib, shakllantirilayotgan yangi tizim turini aniqlaydigan quyidagi muhim belgilarni sanab o‘tish mumkin:

— o‘zining funksional mohiyati bo‘yicha AKTT moliyaviy faoliyatni kompleks ravishda avtomatlashtirishni nazarda tutadigan integratsiyalashtirilgan moliyaviy tizimlarga kiradi;

— axborotlar o‘zaro ta‘sirining xarakteri va uslubi bo‘yicha AKTT bank tizimi, Davlat soliq, bojxona qo‘mitalari, mikroiqtisodiyot vazirligi, Respublika turli tashkilotlari va muassasalari hamda tashqi moliya dunyosi bilan telekommunikatsiya aloqalarini ta‘minlaydigan ochiq turdagi telekommunikatsiya tizimlari safiga kiradi.

AKTT O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tashkiliy tuzilmasiga moslashtirilgan, integratsiyalashtirilgan, ko‘p tarmoqli tizim hisoblanib. AKTTning asosiy komponentlari quyidagilardir.

Ular:

— belgilangan andozalarga mos keladigan budget tasnifi, hisob raqamlari rejasini o‘z ichiga olgan ma’lumotlar va axborotlar jamg‘armasini markazlashtirilgan ravishda olib borish va ulardagi o‘zgarishlarni quyi bo‘g‘inlarga yetkazish imkoniyati:

— budget asosiy parametrlarini istiqbollash va ularni quyi budgetga yetkazish;

— budget yoyilmasi va aniqlashtirilgan budget ko‘rsatkichlari asosida moliyalashtirish rejasini tuzish va unga aniqlik kiritish;

— g‘aznachilikning Bosh moliyaviy kitobini yurgazish;

— buxgalteriya hisobotining Bosh va qo‘shimcha kitoblarini yurgazish;

— budget mablag‘laridan foydalanuvchilardan moliyalashtirish uchun buyurtmalar olish, buyurtmalarni budget yoyilmasi va moliyalashtirish rejasi bilan solishtirish, ularni jamlash va tartibga solish:

— O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hududiy boshqarmalariga to‘lov topshiriqnomalarini tayyorlash va jo‘nashni ta‘minlaydigan hamda qilingan operatsiyalarni buxgalteriya kitoblarida tasdiqlaydigan „Mijoz-bank“ quyi tizimi va moliyalashtirishlar haqidagi ma’lumotni Markaziy g‘aznaga yetkazish;

— hisobga olish, nazorat, daromadlarning viloyatlar g‘aznalariga tushishining nazorati, markaziy va tumanlar g‘aznalariga yetkazish, ularni buxgalteriya hisoblarida aks ettirish;

— qisqa muddatli (yil davomida) kassaviy rejalashtirish;

— budgetning kassa va haqiqiy ijrosi daromadlar tushumi xaqida hisobot tayyorlash;

— budgetlararo aloqalarni buxgalteriya kitoblarida aks ettirgan holda hisobga olish va nazorat qilish;

— davlat qarzini boshqaradigan quyi tizim;

— buxgalteriya kitoblarida aks ettiriladigan budget taqchilligi va kassa uzilishlarini moliyalashtirish uchun Markaziy bank kreditlarini olish va hisoblashdan iborat.

Ma’lumotlar-axborotlar jamg‘armasi, buxgalteriya hisob kitoblari va g‘aznachilikning asosiy moliyaviy kitobi tizimning yadrosi bo‘lib hisoblanadi.

Moliyaviy va bank axborotlarini avtomatlashtirilgan ravishda qayta ishlashda amaldagi «O‘zbekiston Respublikasida axborotlarni personal komp’yuterlarda qayta ishlash, aloqa kanallari va banklarning elektron to‘lovlari avtomatlashtirilgan tizimlarida qabul qilish, uzatish to‘g‘risidagi“ Yo‘riqnoma va boshqa Respublikada qo‘llanish ko‘lami cheklangan hujjatlardan („Xizmatda foydalanish uchun“, „Maxfiy“, “O‘ta maxfiy”) foydalanish talablariga rioya etilishi kerak.

Umumfoydalaniladigan hujjatlarni ishlatishda hech qanday maxsus himoya tadbirlari talab qilinmaydi.

Konfidensial xarakterga ega bo‘lgan ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha talablarni mazkur belgini o‘rnatadigan foydalanuvchi aniqlashi kerak.

„Xizmatda foydalanish uchun“ belgisiga ega bo‘lgan axborotlarni qayta ishlashda muassasa foydalanuvchilari - mazkur axborot egasiga unga erkin kirish imkoniyati beriladi. Tizimning boshqa foydalanuvchilari va abonentlari esa yuqoridagi axborotdan foydalanish uchun maxsus ruxsatnomalar taqdim etishlari kerak.

Maxfiy axborotni qayta ishlashda hajmi va xarakteridan kelib chiqib quyidagi talab turlaridan biri taqdim etilishi kerak:

1) shaxsiy cheklashlarda har bir axborotlar elementiga unga kirish huquqiga ega foydalanuvchilar ro‘yxati tuzib chiqiladi;

2) jamoaviy cheklashlarda himoya qilinadigan ma’lumotlar bazasi himoyaladigan axborotlarni qayta ishlashda ishtirok etadigan bo‘g‘inlar tarkibiga asosan tashkil etiladi. Har bir bo‘g‘in foydalanuvchilari faqatgina „O‘zlarining“ ma’lumotlariga kirish huquqiga ega;

3) yuqori maxfiylik belgisiga ega bo‘lgan axborotlarni qayta ishlashda unga kirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar ro‘yxati har bir mustaqil axborotlar elementiga kirish kuni va vaqti hamda ruxsat berilgan amaliyotlar ro‘yxati ko‘rsatilgan holda tuzilishi kerak.

Hozirgi paytda mamlakatimizda xorijiy investorlarni Respublika fond bozoriga jalb qilishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va investitsiya institutlari muntazam ish olib bormoqda. Bu uyg‘unlashuv ikkiyoqlama jarayon bo‘lib, o‘zbek investorlari faoliyatini xorijiy fond bozorlarida tashkil etish uning muhim qismidir.

Bugungi kunda jahon fond bozorining kun sayin globallashuvi, aloqa va texnologiyalar o'zaro bog'liqligi rivojlanishi investorning o'z mahalliy doirasida cheklanib qolmasligiga olib keldi. U endilikda o'z sarmoyasini foydaliroq joylashtirishga harakat qiladi. Fond bozori samaradorligi yuqori bo'lgan korxonalarni izlaydi. Biror korxonaning ko'rsatkichlari pasayishi bilan pullar bozorining yangi korxonalariga oqa boshlaydi. Bu, jarayon uzluksiz davom etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozori juda yaxshi tashkil etilgan. Ular yuksak texnologiyali savdo jarayonini ta'minlay oladigan darajada rivojlangan infratuzilmaga ega. Axborot xizmatlari o'sishi, bozor haqidagi ma'lumotlar aniqligini ham ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida, qimmatli qog'ozlardan foyda olishga intilayotgan yangi-yangi investorlarni bozorga jalb qiladi. Internet tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatlar nafaqat bu jarayonlarni tezlashtirdi, balki ularni sifat jihatidan ham o'zgartirdi. Internet haqiqatan ham moliyaviy tranzaksiyalar va investitsiyalar uchun global taqsimlovchi muhitga aylanib bormoqda. Apparatlar va dasturlarning minimal zaxiralari mavjud bo'lgan sharoitda ham dunyoning turli burchaklaridan unga osongina kirish mumkin bo'lib qolmoqda.

AQSH yuksak texnologiyali kompaniyalarining aksiyalar bilan operatsiyalarni amalga oshirishi moliya dunyosida tan olingan. Uning faqatgina bir shtatida Internet tarmog'i orqali savdo-sotiqni amalga oshirishda 450 mingdan ortiq kishi ishtirok etayotgan bo'lsa, 2,5 mln.dan ortiq kishi elektron pochta kommunikatsiyasidan foydalanmoqda. Internet tarmog'idan foydalanuvchilarning ko'pchilik qismini talabalar, ishlab chiqarishda qatnashuvchilar tashkil etmoqda. Hozirgi kunda Internet tarmog'ining bir qancha savdo tizimlari mavjud bo'lib, bulardan biri ATS bo'lib, bu tizim orqali 2000 yilda Rossiya fond birjasida 600 ga yaqin savdo-sotiq amalga oshirilgan. Foydalar, aksiyalardan tushadigan dividendlar, har kungi savdoga qo'yiladigan aksiyalar hajmi, iqtisodning barqarorligi, bozor ishtirokchilarining o'zaro manfaatli hamkorligi, qonunlarning barqarorligi kabi ko'rsatkichlar — bularning barchasi ular bilan o'tkaziladigan operatsiyalarni dunyodagi moliya unsurlarining asosiylaridan biriga aylantirib qo'yadi.

Jahonning yirik banklari, trust kompaniyalari, nafaqa fondlari va brokerlik firmalari o'z mablag'larini aynan shunday aksiyalarga qo'yadilar. Bu aksiyalar bilan o'tkaziladigan operatsiyalardan tushadigan foydadan banklar va boshqa moliya tashkilotlari o'z mijozlariga ularning qo'yilmalari bo'yicha foizlarni to'laydilar. Bunda foydaning bir qismini o'zlariga qoldiradilar. Foyda olishda yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun jiddiy ishlash lozim. Avvalo, ahvolni yaxshi tushuna bilish va bozorni, tanlangan tarmoqni hamda iqtisodning umumiy holatini sinchkovlik bilan kuzatib borish zarur. Asosiysi, aksiyalar kursiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan mahalliy hodisalar to'g'risidagi axboratlarni ola bilish va ularni tahlil qilishni o'rganish lozim.

2001 yil 23 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini „2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, „Internet“ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida“ qaror qabul qildi. Zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini iqtisodiyot, fan va ta'limning barcha sohalariga keng joriy etish, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan „Internet“ga kirib borishni kengaytirish, yuqori malakali dasturchi-mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish maqsadida Markaz tashkil qilish ta'kidlab o'tildi. Bu qarorga asosan fond bozorida Internet tarmog'ini rivojlantirish, kuchli mutaxassislarni jalb etish va oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish birinchi galdagi vazifa qilib qo'yildi.

Moliya bozorida operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida zudlik bilan axborotlarni qabul qilish, imkoniyatdan foydalanib investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, har xil ehtimoliy xatolar oldini olish, xatarli munosabatlar ta'sir doirasini kamaytirishda «to'g'ridan-to'g'ri» qaror qabul qilish har doim ham kutilayotgan natijani bermaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan munosabatlarni yanada jadallashtirish, vaqtdan unumli foydalanish maqsadida, ko'pgina rivojlangan davlatlarda Internet tarmog'idan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Internet tarmog'i tushunchasi Respublikamizga yaqindagina kirib kelgan. Shu boisdan undan hozirgi kunda iqtisodiyotimizning eng

muhim jabhalarida foydalanish imkoniyatlari to'liq o'rganib chiqilmagan. Bu sohadagi muammolardan biri malakali kadrlarning yetishmasligi bo'lsa, ikkinchi tomondan yuqorida aytib o'tganimizdek, bu soha rivojlanish bosqichida. Shuning uchun Internet tarmog'idan foydalanishda yangi texnologik infrato'zilmani yaratish lozim. Bu esa quyidagi Internet tarmoqlarini o'z ichiga oladi:

- Internet — brokerlik xizmati ko'rsatish tizimi;
- Internet — banklarda investitsiyaviy loyihalar ustida qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanuvchi tizim;
- Internet — elektron kommunikatsiya tizimi;
- har xil savdo bilan shug'ullanuvchi tizimlar.

Yuqorida keltirilgan Internet texnologiyalar tizimi MDH mamlakatlarida va Respublikamizda juda kam uchrasada, keyinchalik bu faoliyatni rivojlantirish fond bozorlarida mijozlarni ko'paytirish, aksiyalar va obligatsiyalarni sotish va sotib olishda ko'pgina keng qamrovli imkoniyatlarni ochib beradi.

Internet tarmog'ini o'rganish va uniig turli tizimlardan foydalangan holda, iqtisodni rivojlantirish ko'p bilim talab qiladi. Bu bilimni har bir maktab o'quvchisiga yetkazish ilg'or texnikaning zamonaviy usullaridan foydalanish, o'qituvchilar saviyasi va malakasini oshirish masalasiga jiddiy e'tibor berishni talab qiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga muvaffaqiyatli joriy etish uchun barcha asoslar yaratilmoqda. Shu bilan birga, to'plangan tajriba va mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda, bu borada oldimizda turgan vazifalarni yechish uchun yangicha yondashularni izlab topish lozim.

Ma'lumki, daromad bor joyda xatarning bo'lishi muqarrar. Internet orqali qimmatli qog'ozlar bozorida savdo-sotiq rivojlanishi brokerlar uchun mijozlar sotuvini ko'paytirsada, ikkinchi tomondan, har ikki tomon uchun ham xatarli munosabatni yuzaga kelishi kutiladi. Moliya bozorida operatsiyalarda ishtirok etayotgan har qanday malakali mutaxassis, broker o'z mijozlarining ishonchini oqlash maqsadida Internet-treyding tarmog'idagi kerakli ma'lumot va axborotlardan unumli foydalanishga harakat qiladi. Moliya bozorida qatnashayotgan investorlar, operatsiyalar o'tkazishi jarayonida quyidagilarni amalga oshiradi:

- amalga oshirilayotgan operatsiyalarga faol qatnashishni;
- yuzaga kelishi mumkin, ammo ehtimol darajasi past bo‘lgan xato va kamchiliklar, darajasini pasaytirishni;
- xizmat ko‘rsatuvchi brokerlar bilan amaliy ish faoliyatini kelishib olishni;
- kerakli axborotlardan unumli foydalanishni;
- investor Internet tarmog‘i bilan mukammal bog‘langan bo‘lishini.

Iqtisodiy erkinlik tufayli jahon moliya bozori o‘zining mijozlari sonini yildan-yilga ko‘paytirib bormoqda. Bu esa bozordagi operatsiyalar hajmi oshishiga olib kelmoqda. Eng ilg‘or axborot texnologiyalarining rivojlanishi moliya bozori „qiyofasi“ tez sur‘atlar bilan o‘zgarishiga imkoniyat yaratmoqda. Buning uchun ular Internet tarmoqlaridan foydalangan holda, bozordagi eng yangi axborotlarni, brokerlarda esa qimmatli qog‘oz sotish yoki sotib olish to‘g‘risidagi xabarni kompyuterlar orqali juda tez yetkazmoqda. Internet-treyding orqali amalga oshirilgan operatsiyalar, bir tomondan, investor, emitent va brokerlar ishini yengillashtirsa, ikkinchi tomondan, ya‘ni Internet-treyding xatarlari bu operatsiyalar orqali kutilayotgan daromadga o‘z ta‘sirini keraklicha o‘tkazishi mumkin. Moliya bozoridagi operatsiyalarni Internet-treyding orqali amalga oshirish jarayonida xatarlar bo‘lishi muqarrar ekan.

Birinchi xatarlar Internet-treyding orqali moliya bozorlaridagi operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida tarmoqlar bilan bog‘liq. Ma‘lumki, Internet tarmog‘i juda ko‘p axborotlarni o‘ziga qamrab oladi. Axborotlarni uzatish va qabul qilish jarayonida uchinchi bir shaxsning bu jarayonni o‘zgartirishi yoki o‘zgartirmasligini kafolatlamaydi. Bu esa brokerning mijozlar uchun xizmat doirasini kamaytirishga yoki amalga oshirilgan operatsiya orqali kutilayotgan daromadga erisha olmasligiga olib kelishi mumkin.

Mamlakatimizda mavjud bo‘lgan buxgalteriya hisobi tizimi bir vaqtda moliyaviy hisob va ishlab chiqarish hisobi funksiyasini bajararmoqda. Ammo shuni alohida ta‘kildash zarurki, amaldagi buxgalteriya hisobi moliyaviy hisobini juda keng va ishlab chiqarish

funksiyasi hisobini esa juda tor darajada bajarmoqda. Albatta, hamma jabhada bo‘lgani kabi buxgalteriya hisobida ham bosqichma-bosqich izluksiz ravishda islohotlar amalga oshirilmoqda. Moliyaviy hisobini isloh qilish jarayonida asosiy e‘tibor moliyaviy hisoblardan tuzish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni berish nuqtai nazaridan amalga oshirish zarur. To‘g‘ri Mius-taqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar eng avvalo moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi. Shuningdek, 2002 yil 1 yanvardan amaliyotda qo‘llanishi mumkin buxgalteriya hisobining milliy standartlarning 21- „Xo‘jalik sub‘ektlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma ham buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarining o‘ziga xos tomonlarini hisobiga olgan holda amaldagi schyotlar rejasining ishlash mexanizmini qisman saqlab qolgan“.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, islohotdagi asosiy e‘tibor moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va yangi schyotlar rejasini ishlab chiqishda esa, moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlari hisoblangan **1-shakl** „Buxgalteriya balansi“ va **2-shakl** „Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot“ga qaratilgan. 2002 yil 1 yanvardan amaliyotga joriy qilish belgilangan schyotlar rejasi 9 bo‘limdan iborat bo‘lib, shundan 1—8 bo‘limlar buxgalteriya balansini, 9- bo‘lim esa, „Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot,“ni tuzish uchun ma‘lumot berishga mo‘ljallangan.

Albatta, „Buxgalteriya balansi“ va „Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot“ korxonalarining moliyaviy holatini tavsiflovchi asosiy hisobot turlari hisoblanadi va ularning ma‘lumotlarini korxonalar rahbarlari, xodimlari va tashqi foydalanuvchilar (investorlar, kreditorlar, aksiyadorlar, kasaba uyushmalari, davlat organlari va boshqalar) o‘rganadi. Ammo hisobotning yana shunday shakllari mavjudki, ularni to‘ldirish harajatlar hisobi bilan bevosita bog‘liq. Albatta, bunday ma‘lumotlarni vujudga keltirish mohiyati hisobning vazifasiga kiradi. Shunday hisobot turlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi „Davlat statistikasi to‘g‘risida“gi qonunga asosan taqdim etiladigan „Korxonalar xarajatlari to‘g‘risida hisoboti“ hisoblanadi. Ushbu hisobot bir yilda to‘rt marotaba tuziladi va taqdim etiladi.



Korxonada, birlashma va tashkilotlar yillik hisobotni 15-fevralgacha va choraklik hisobotni, hisobot davridan keyingi 25-kungacha o'z joylaridagi statistika organiga taqdim etadilar.

Korxonada sarf-harajatlari to'g'risidagi hisobotida barcha xarajatlarda asosiy faoliyat va asosiy bo'lmagan faoliyat turlari bo'yicha hisobot va o'tgan yilning tegishli davri bo'yicha ko'rsatilishi zarur.

Ushbu hisobotning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat, jami xarajatlarda:

I. Ishlab chiqarilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi:

- ishlab chiqarish tarzidagi moddiy xarajatlarda;
- ishlab chiqarish tarzidagi ish haqi to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarish tarzidagi ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
- asosiy vositalarda va ishlab chiqarish nomoddiy aktivlarda amortizatsiyasi;

— ishlab chiqarishning boshqa turdagi harajatlari.

II. Davr xarajatlari:

- sotish xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlarda;
- boshqa muomala sarf-xarajatlari.

„Korxonada sarf-xarajatlari to'g'risida hisoboti“ ma'lumotlari korxonaning iqtisodiy faoliyatiga baho berishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Albatta, bu yerda asosiy muammo ushbu hisobotni tuzish umuman zarur bo'lgan ma'lumotlarning buxgalteriya xisobida shakllantirilishidir.

Chunki, korxonaning sarf-xarajatlari to'g'risidagi hisobotda keltirilgan xarajatlarda elementlari bo'yicha guruhlangan bo'lib, korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari hisobida esa, ular kalkulyatsiya moddalari bo'yicha guruhlanadi. Korxonaning sarf-xarajatlari to'g'risidagi hisobotni tuzish uchun ishlab chiqilgan yo'riqnomada ham „Xarajatlarda tarkibi to'g'risida“gi Nizomda keltirilgan xarajatlarda guruhlariga asoslanishi keltirilgan.

Shuningdek, har qanday xo'jalik sub'ekti O'zbekiston Respublikasi istiqbolni belgilash va statistika davlat qo'mitasining qarori bilan tasdiqlangan „Mehnat bo'yicha 1-m. shakl (oylik) hisoboti“ni tuzishlari shart.

Ushbu hisobot shakli ham, O‘zbekiston Respublikasi istiqbolni belgilash va statistika davlat qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan „Yollanib ishlovchilarning soni va ish haqi statistikasi haqidagi“ yo‘riqnomaning 34—16 sonli qarorining 2- va 3- bo‘limlariga asosan to‘ldiriladi.

Ammo, korxonalarda mehnat va unga haq to‘lash hisobining hozirgi ahvolini tahlil va tadqiq qilish amaldagi buxgalteriya hisobi yuqorida keltirilgan. „Mehnat bo‘yicha (oylik) hisoboti“ ni tuzish uchun zarur ma‘lumotlarni quyidagi sabablarga ko‘ra bera olmasligini ko‘rsatadi:

— mehnat haqi xarajatlarining korxonada faoliyati turlicha aks ettirilishi;

— korxonada bo‘yicha mehnat haqi xarajatlari to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar olish imkoniyatining mavjud emasligi;

— pul va natija shaklidagi ish haqlari bo‘yicha alohida va ularning tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan ta‘minlashning mavjud emasligi;

— qoplash manbalari bo‘yicha mehnat haqining qiymati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish imkoniyatining mavjud emasligi.

Demak, yuqoridagilardan quyidagicha xulosa qilish mumkin;

— **birinchidan**, amaldagi buxgalteriya hisobi moliyaviy hisob funksiyasini juda ham keng bajarishga qaramasdan tashqi foydalanuvchilar uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlarining shakllanishi uchun yetarli darajadagi ma‘lumotlar bazasini vujudga keltira olmaydi.

— **ikkinchidan**, buxgalteriya hisobining amaldagi va 2002 yil 1 yanvardan qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan schyotlar rejasi shunday tuzilgan. Ular yordamida faqat korxonada balansini moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotini tuzish uchun ma‘lumotlarni berishi mumkin.

— **uchinchidan**, ko‘pchilik hisobotlarning ko‘rsatkichlari „Mahsulot (ishlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom“da keltirilgan xarajatlarning guruhlanishi va tarkibi asos qilib olinganligini ko‘rsatdi. Ammo ishlab chiqarish xarajatlarining hisobini yuritishda esa, ushbu nizom asos qilib

olinmagan. Shuning uchun ham, buxgalteriya hisobi o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydi.

— **to'rtinchidan.** Xarajatlarni hisobga olishning amaldagi metodologiyasi ko'proq xarajatlarni kalkulyatsiya moddalari bo'yicha hisobga olishga moslashtirilgan.

Xarajatlarning elementlari bo'yicha guruhlash ishlab chiqarishga nimalar sarflanishi va shu asosda korxonaning kelgusidagi ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish uchun qancha miqdorda sarflar qilinishi rejalashtiriladi. Ammo, ushbu hisob-kitoblarni aniq amalga oshirish buxgalteriya hisobida ma'lum darajada o'zgarishlarni talab qiladi, chunki, yuqorida qayd etilgan hisobot shaklini to'ldirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bevosita buxgalteriya hisobi schyotlaridan olinmaydi yoki ularni buxgalteriya hisobi registrlaridan yig'ib olinadi. Tabiiyki, bu buxgalteriya xodimlari uchun qo'shimcha ish hajmini vujudga keltirish bilan birga hisob-kitobdagi aniqlikni yo'qotadi.

Masalan, ishlab chiqarilgan moddiy xarajatlar tarkibidagi sarflangan materiallar to'g'risidagi ma'lumotni 10- materiallar schyotini kreditida ishlab chiqarishga sarflangan materiallardan tashqari kamomad summalari, bir moddiy javobgar shaxsdan ikkinchisiga o'tkazilgan moddiy boylıklar, keraksiz bo'lgan materiallarni realizatsiya qilish ham aks ettiriladi. Shuningdek, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi pozitsiyasini to'ldirish uchun ma'lumotlar 02- „Asosiy vositalarning eskirishi“ va 05- „Nomoddiy aktivlarning eskirishi“ schyotlarining kreditidan summalar yetarli emas. Sababi, 02- „Asosiy vositalarning eskirishi“ schyotining kreditida ijaraga berilgan asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash ham aks ettiriladi.

Bizningcha, ushbu muammolarni yechish uchun buxgalteriya hisobining moliyaviy hisob bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarini aniq belgilab olish zarur.

Buning uchun eng avvalo, tashqi foydalanuvchilar uchun taqdim qilinadigan hisobotlarda keltirilishi zarur bo'lgan ko'rsatkichlarni aniqlash va ularni shakllantirish tartibini qat'iy belgilash talab qilinadi.

Hisobotlardagi xarajatlar bilan bog'liq asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash uchun „Moliyaviy natijalar to'g'risidagi

hisobot“, Asosiy vositalarning harakati to‘g‘risidagi hisobot“, „Korxonalar moliyaviy faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi hisoboti“, „Mehnat haqi bo‘yicha hisobot va boshqa hisobot shakllaridagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar“ni aniqlash zarur. Shundan so‘nggina, ushbu ko‘rsatkichlarni buxgalteriya hisobida shakllantirish uchun tegishli o‘zgarishlar amalga oshiriladi.

Ushbu ko‘rsatkichlarni buxgalteriya hisobi schyotlarida shakllantirish uchun bizningcha, schyotlar rejasiga ko‘shimcha schyot kiritish va uni „Korxonalar xarajatlari“, deb nomlash zarur. „Korxonalar xarajatlari“ schyotini schyotlar rejasiga bo‘sh turgan 2400 raqamini berish maqsadga muvofiqdir, ya‘ni, 2400- „Korxonalar xarajatlari“ schyoti tranzit schyot bo‘lib, har oyda yopiladi va qoldiqqa ega bo‘lmaydi. Barcha xarajatlar qoplanish manbalariga olib boriladi va bunda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar, umum ishlab chiqarish va davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar, maxsus maqsadlar uchun tayinlangan fondlar schyoti va boshqa tegishli schyotlar debetlanadi va 2400- „Korxonalar xarajatlari“ schyoti kreditlanadi.

Bizningcha, 2400- „Korxonalar xarajatlari“ schyotida quyidagi ikkinchi tartibli schyotlarni ochish maqsadga muvofiq:

- 2410- „Ishlab chiqarish tarzidagi moddiy xarajatlari“;
- 2420- „Mehnat haqi to‘lash xarajatlari“;
- 2430- „Ishlab chiqarishning ijtimoiy sug‘urta xarajatlari“;
- 2440- „Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi“;
- 2450- „Ishlab chiqarishning boshqa turdagi xarajatlari“

2410- „Ishlab chiqarilgan moddiy xarajatlar“ schyotida xarajatlar ularning quyidagi guruhlari bo‘yicha hisobga olinadi:

- xom-ashyo va materiallar (harid qilinadigan);
- chet tashkilotlar bajargan ishlab chiqarish tarzidagi ishlar va xizmatlar;
- tabiiy xom-ashyo;
- korxonalarining suv xo‘jaligi tizimidan oladigan suvga to‘lanadigan haq (me‘yor darajasida va undan ortiq);
- yerlarni rekultivatsiya qilish uchun ajratmalar;
- chetdan olinadigan barcha turdagi yoqilg‘i;

- xarid qilinadigan barcha turdagi energiya;
- boshqa ishlab chiqarish moddiy xarajatlari.

Bizning fikrimizcha, mehnat haqi xarajatlari hisobini, ma'lumatlarning quyidagi yo'nalishlari bo'yicha shakllanishi nuqtai-nazaridan takomillashtirish zarur:

– korxonaga bo'yicha mehnat haqining umumiy summasi to'g'risidagi ma'lumotlarni vujudga keltirilishi;

– pul shaklidagi ish haqi summasi va ularning tarkibi;

• natura shaklidagi ish haqi summasining hajmi va ularning tarkibi;

• mehnat haqi xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, ularni qoplash manbalari bo'yicha.

Buxgalteriya hisobini yuqoridagi talablar asosida takomillashtirish uchun schyotlar rejasiga qo'shimcha **2420-** „Mehnat haqi to'lash xarajatlari“ sintetik schyotini kiritish va ushbu schyotda quyidagi ikkita ikkinchi tartibli schyotni ochish maqsadga muvofiqdir:

1. Pulda to'langan mehnat haqi;

2. Naturada to'langan mehnat haqi.

Ushbu schyotning debetiga to'lash uchun hisoblangan barcha to'lovlar yoziladi, kreditiga esa ularning qoplanish manbalari bo'yicha hisobdan o'chirilishi aks ettiriladi.

Har bir subschyotda ochilgan analitik schyotlarda mehnat haqi xarajatlari ularning qoplanish manbalari bo'yicha yuritiladi.

Barcha to'lanadigan to'lovlar hisoblanganda „Mehnat haqi to'lash xarajatlari“ schyoti debetlanadi va „Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar“, „Pul mablag'lari“, „Materiallar“, „Arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlar“ni hisobga oluvchi schyotlar esa kreditlanadi.

**2430-** „Ishlab chiqarishning sug'urta xarajatlari, **2440-** „Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi“ va **2450-** „Ishlab chiqarishning boshqa turdagi xarajatlari“ schyotlari ham xuddi yuqoridagi schyotlar kabi tranzit bo'lib, ularda oy oxirida qoldiq qolmaydi.

Buxgalteriya hisobida korxonaga xarajatlari va ularning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarning bir schyotda hisobga olish imkoniyatining

vujudga keltirilishi korxonada bo'yicha ushbu xarajatlarning umumiy summasini, uning tarkibi va tarmoqlar (asosiy, yordamchi va boshqalar) bo'yicha ma'lumotlar olish imkoniyatini yaratadi. Eng asosiysi, korxonaning moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish uchun zarur ma'lumotlarning buxgalteriya hisobi schyotlarida shakllanishini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida korxonada xarajatlari ustidan joriy nazoratni amalga oshirish bilan birgalikda, moliyaviy va statistik hisobotlarning ishonchligining ortishiga olib keladi.

---

---

### 13- BOB. Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi

Rivojlangan iqtisodiyotda tijorat banklari o'z faoliyatini doimiy ravishda o'sib boruvchi raqobat sharoitida amalga oshiradilar. Ular o'zaro va boshqa kredit-moliya muassasalari bilan, shu jumladan, oxirgi vaqtda taklif etilayotgan har xil xizmat turlarini amalga oshiruvchi xorijiy banklar bilan raqobatlashadilar.

Keskin raqobat sharoitida tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri investitsion faoliyat hisoblanadi.

Investitsiya — bu xususiy, davlat korxonalari va tashkilotlari qimmatli qog'ozlariga uzoq muddatga qo'yilgan mablag'lardir. Tijorat banklari krediti investitsiyasidan quyidagi xusiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, bank kredit berganda, bank mablag'larini nisbatan qisqa vaqt ichida foydalanishga beradi va kredit summasi g'amda u bo'yicha foiz stavkasini o'z vaqtida qaytarishni talab qiladi. Investitsiyada esa qo'yilgan mablag'lar (qo'yilmalar) hali o'z egasiga qaytib kelishidan oldin uzoq davr mabaynida bankka mablag' (daromad) olib kelishini bildiradi.

Ikkinchidan, bank kreditida kredit munosabatlarini yuzaga keltirish bo'yicha tashabbus qarz oluvchi tomonidan o'rtaga tashlanadigan bo'lsa, investitsiyada esa qimmatli qog'ozlar bozorida aktivlarni sotib olishga intiluvchi tijorat banki tashabbus ko'rsatadi.

Uchinchidan, bankning kredit shartnomasida bank kam miqdordagi kreditorlar orasida asosiydir. Investitsion shartnomalarda esa tijorat banki ko'plab kreditorlardan biridir.

To'rtinchidan, bank kreditida bank va qarz oluvchi bevosita kredit shartnoma orqali bog'langan bo'lib, ularning faoliyatiga hech kim aralashmaydi. Investitsiyada esa turli xil qimmatli qog'ozlar orqali korxonalar, tashkilotlarning faoliyati bilan bankning faoliyati o'zaro bog'lanib ketadi.

Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyat olib borishdan asosiy maqsad ularning daromadlilikini va likvidlilikini (bankn-

ing faoliyati bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olish qobiliyati) ta'minlashdan iborat. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining investitsion siyosati bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Banklarning investitsion faoliyati turli xil qimmatli qog'ozlar: oddiy va imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qarzdorlik majburiyatlari, depozit sertifikatlari, veksel va boshqalarga mablag'larini qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Alohida olingan davlatlarda banklar tizimining rivojlanishi va banklar o'tkazadigan operatsiyalarning turlari va ko'lamiga qarab ularning investitsion faoliyati turli yo'nalishlarga qaratilgan bo'lishi va shu operatsiyalar turlari bo'yicha olinadigan daromad salmog'i ham turli xil bo'lishi mumkin.

Masalan, Amerika banklari amaliyotida davlatning qisqa muddatli qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish odatda kam daromad keltiradi, ammo ular yuqori likvidlikka ega va ular bo'yicha to'lanmaslik xatari no'lga teng bo'lib, bozor stavkasining o'zgarish xatari ham kichik bo'lgan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar yuqori daromad keltiradi, shuning uchun banklar ularni muddati tugaguncha saqlashadi. Banklar o'z mablag'larini munitsipalitetlarning qimmatli qog'ozlariga ham qo'yishadi, chunki ular bo'yicha to'lanadigan foiz soliqqa tortilmaydi. O'z likvidligini ta'minlash maqsadida banklar uncha katta bo'lmagan summani boshqa qimmatli qog'ozlar: bank akseptlari, qimmatli qog'ozlar bozoridagi tijorat qog'ozlari, brokerlik ssudalari va tovar-kredit korporatsiyalari sertifikatlariga qo'yishadi. Rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining investitsion faoliyati daromad keltirishi nuqtai nazaridan bank daromadi tarkibida kredit foizidan keyingi ikkinchi manbadir. Tijorat banklari, investitsion faoliyatining daromadlilik darajasiga bir qator iqtisodiy va tashkiliy omillar ta'sir ko'rsatadi.

Bu omillar orasida asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

— shakllarining mavjudligi, shu jumladan bank faoliyatida xususiy va aksiyadorlik mulk shakllarining ustuvorligi;



— kredit-moliya tizimining silliqlangan va aniq faoliyat yurituvchi tuzilmasining mavjudligi;

— qimmatli qog'ozlar bozorining zamonaviy va rivojlangan muassasalarining mavjudligi;

— qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilari faoliyatini nazorat etuvchi qonuniy hujjatlar va tartiblarning mavjudligi;

— tijorat banklarining xalqaro investitsion faoliyatini yuritish amaliyotida bo'lgan yuqori sifati qimmatli qog'ozlar muomalasining amal qilishi;

— investitsion faoliyat sohasi va qimmatli qog'ozlar bozori uchun mo'ljallangan yuqori malakali mutaxassislar va tadbirkorlarning mavjudligi, ularni tayyorlash va boshqalar.

Alohida olingan qimmatli qog'ozlar turlari va guruhlarining daromadliligi banklarning investitsiya portfelining bozor bahosiga bog'liq bo'ladi. Oxirgisi o'z navbatida quyidagi omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Bular obligatsiyalarning foiz stavkalari, hisobga olingan foizlar, veksellar bo'yicha foizlar, aksiya bo'yicha dividendlar va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va takliflardir.

Odatda qimmatli qog'ozlarning bozor narxi va undan tijorat banklari oladigan daromad teskari mutanosiblikdir. Qimmatli qog'ozlar bahosi past bo'lganda ulardan keladigan daromad yuqori va aksincha bo'lishi mumkin. Shuning uchun qimmatli qog'ozlar foizi kichik bo'lganda, ularni sotib oluvchi investorlar foiz stavkalari oshganda qimmatli qog'ozlarni real bozor qiymatining pasayishi muommosi bilan duch kelishlari mumkin.

Shunday qilib, foiz stavkalarining oshuvi salbiy va ijobiy tomonlarga ega bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlarning foiz stavkalari oshganda mablag'larni investitsiya qilish bankka fonda keltirishi mumkin, ammo yuqori foiz stavkalari o'z navbatida bankning investitsiya portfelining qadrsizlanishini bildiradi. Bunday holat qimmatli qog'ozlar bozorida yuz berganda, amaliyotda bankning investitsiya mablag'lari bog'langan yoki „yopilgan“ deyiladi. Qimmatli qog'ozlarning alohida turlari bo'yicha daromadlilik darajasi foiz stavkasining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan hollarda qimmatli qog'ozlarning muddati

muhim o'rin tutadi. Qimmatli qog'ozning amal qilish muddati qanchalik qisqa bo'lsa, uning bahosi ham shunchalik barqaror, va aksincha, muddati qanchalik uzoq bo'lsa, shunchalik foiz stavkalari darajasi o'zgarishi tebranishlar ta'siriga uchraydi.

Qimmatli qog'ozlar narxlari orasidagi manfiy farq ularning muddatiga qarab turlicha bo'lishi nima uchun qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar uzoq muddatlariga qaraganda ko'proq qiziqish uyg'otishini izohlaydi. Bankning qimmatli qog'ozlarni sotib olish asosida banklarning investitsiya portfelini tashkil qilishdan asosiy maqsadi nafaqat bankka daromad keltirish va rezervni to'ldirishning birinchi manbaini tashkil etish (naqd pul va boshqa banklarning qarzlari), balki amalda deyarli yo'qotishsiz, eng kam xatar bilan, eng qisqa vaqt ichida qimmatli qog'ozlarni naqd pulga aylantirish imkoniga ega bo'lishdan iborat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining yuqori samaradorlik, to'lovlilik, likvidlilik darajasini ushlab turish maqsadida tijorat banki doimo investitsiya faoliyatining markaziy muommolaridan biri-bankka omonat qo'yganlar va aksiyadorlar o'rtasidagi bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlarni qondirish masalalariga e'tibor berishi va uning har tomonning manfaatiga mos keluvchi darajada bo'lishini ta'minlashi zarur. Bu munosabatlarda tomonlar manfaatining mos kelmasligi bankning likvidligi va bank operatsiyalarining daromadliligi o'rtasidagi qarama-qarshilikda o'z aksini topadi. Yana aniqrog'i, bu qarama-qarshilik deyarli bankning har bir operatsiyasida o'z aksini topadi. Bir tamondan aksiyadorlar yuqori daromad olishni istashadi, ya'ni bu holda bank mablag'larni uzoq muddati qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishlari lozim va ikkinchi tomondan bankka omonat qo'yuvchilar o'z omonatlarini tezda qaytarib olish imkoniga ega bo'lishlari lozim.

Likvidlik va daromadlilik orasidagi ziddiyat investitsiya xatarini saqlaydi va u tijorat banki tomonidan yuqori daromadlilikka likvidlilik darajasini pasaytirmagan holda erishish imkoniyatlari ehtimoli sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatida quyidagi xatar xillarini uchratish mumkin. Bular: kredit, bozor va foiz xatarlaridir.

Kredit xatar qimmatli qog'oz emitentining moliyaviy ahvolarining, mkoniyatining pasayishi bilan bog'liq bo'lib, bunda u o'z moliyaviy majburiyatlarni bajarishga qodir bo'lmaydi. Undan tashqari kredit xatarlar hukumat va davlat tashkilotlarining aholidan olingan zayom mablag'lari bo'yicha to'lash qobiliyati bilan ham bog'liqdir.

Masalan, AQSH federal hukumatining qimmatli qog'ozlari xatarlardan holi hisoblanadi, chunki AQSH iqtisodiyoti barqarordir.

Davlat hokimiyatining nafaqat zayomlar olishi balki o'z majburiyatlarini to'lash qobiliyatiga ega bo'lishi davlatning qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil qilish va butun moliya-kredit mexanizmining ilk faoliyat yuritishi uchun muhimdir.

Bozor xatarining mohiyati qimmatli qog'ozlar bozorida kutilmagan qarzlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'zgarishlar natijasida bazi bir qimmatli qog'ozlarning investitsiya ob'ekti sifatida qarashi mumkin va ularning sotuvini faqatgina katta chegirma (skidka)dan amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Tijorat bankining o'z likvidligini xavf ostiga qo'yib daromad olish maqsadida salmoqli mablag'larini investitsion faoliyatga qo'yishi katta yoki kichik miqdorda investitsion xatarining yuzaga kelishiga imkoniyat yaratadi. Bunday holda tijorat banklarining (investitsion faoliyati qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalar olib borish xatar bilan bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida bank rahbariyatidan bu sohada aniq taktika, strategiya va ish rejasini ishlab chiqishni, ya'ni investitsiya siyosatini ishlab chiqishni talab etadi. Shunday qilib, banklar tizimida investitsiya siyosati — tijorat banklari faoliyatining bir yo'nalishi bo'lib, u ma'lum xatar darajasiga asoslangan bankning qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalarini o'z ichiga oladi va bank faoliyatining daromadlilikini va likvidligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Jahon amaliyotida tijorat banklari investitsiya sohasida yuqori tajribaga ega. Shuning uchun ham jahon amaliyotida erishilgan yutuqlarga asoslangan holda investitsiya faoliyatining asosiy maqsadlari, vazifalari, omillari, strategiyasi va taktikasini hisobga olgan holda tijorat banklarining investitsiya siyosatini amalga oshirishi bo'yicha „investitsiyaning oltin qoidasi“ ishlab chiqilgan. Unga

ko'rsatish, qimmatli qog'ozlardan keladigan daromad har doim investitsiya shu daromadni olish uchun to'qnash keladigan xatar darajasiga to'g'ri proporsionaldir“

Investitsiya faoliyatining tamoyillari va qimmatli qog'ozlarga mablag'larni qo'yishning asosiy omillari - daromadlilik, likvidlik va xatar orasidagi bog'liklikdan kelib chiqqan holda har bir tijorat banki yuqoridagi omillar ta'sirini anglagan yoki anglamagan holda yoki bu investitsiya siyosatini yaxshi yoki yomon amalga oshiradi. Bu o'z navbatida bankning investitsiya siyosatida bank tomonidan ma'lum darajadagi investitsiya xatarga borilishini anglatadi va tijorat bankining investitsiya siyosatida tegishli choralar ishlab chiqish zarurligidan dalolat beradi.

Investitsiya bilan bog'lik xatarlarni kamaytirish usullaridan biri bu banklarning investitsiya portfelzdsh diversifikatsiya qilishdir. Investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish bankning investitsiya portfelida turli xil qimmatli qog'ozlarning mavjudligiga erishishini bildiradi. Diversifikatsiya usulida investitsiya siyosatini amalga oshirishda qimmatli qog'ozlarning har xil xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfelini diversifikatsiya qilishning quyidagi turlari mavjud. Bular diversifikatsiya qilish, qimmatli qog'ozlarning emitentlari bo'yicha diversifikatsiya qilish va boshqalar.

Qimmatli qog'oz sifatiga doir diversifikatsiya maqsadi - xatarni minimalashtirish (u emitentning o'z majburiyatlarini bajara olmay qolish ehtimoli bilan belgilanadi). Shu munosabat bilan aksiya sifatining ta'minlanganlik darajasi bo'yicha diversifikatsiya usuli ham mavjud bo'lib, nazariyotchilar fikricha, u bir qator omillarni o'rganib chiqishni talab qiladi. Bular emitent qanday faoliyat bilan shug'ullanishini, aksiya daromadi, dividend miqdori, kompaniya aksiyasining joriy narxi, zaxirasi, kompaniyani kim boshqarayotganligi va boshqalar bo'lib, ko'rsatilgan savollarga javobni emis-siya prospekti va birja axborotnomalaridan olish mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning geografik tarqalishiga nisbatan diversifikatsiya maqsadi — tegishli rayonlardagi iqtisodiy qiyinchiliklar ro'y berganda yuzaga keladigan xatarlarni kamaytirishdan iboratdir.

Qimmatli qog'ozlarning to'lash muddati bo'yicha diversifikasiya maqsadi - foiz stavkalarining tebranishi bilan bog'liq xatarlarning oldini olishdan iboratdir. Bu investitsiya siyosatini amalga oshirishda tijorat banklari odatda qimmatli qog'ozlarning tugatilish muddati bo'yicha pog'onali strukturadan foydalanishadi. Bundan pog'onali struktura natijasida muddati tugagan qimmatli qog'ozlar bo'lmaydi va ularni o'zoq muddatli yuqori daromadli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish imkoni tug'iladi.

Qimmatli qog'ozlarning foiz darajalari prognozi amaliyotda nazariyadan farq qiladi. Shuning uchun tijorat banklari prognoz natijalarining ishonchlilik darajasini oshirish maqsadida foiz stavkalarini tarkibini tahlil qiladilar.

Odatda jahon amaliyotida tijorat banklari o'z investitsiya siyosatini ishlab chiqarish va amalga oshirish uchun boshqarish strukturasi maxsus investitsiya bo'limlarini tashkil qilishadi. Bo'limdagi xodimlar soni bir qator omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bular qimmatli qog'ozlar portfeli kattaligi, bo'lim tomonidan qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish bo'yicha bajariladigan funksiyalarga, bankning mijozlariga ko'rsatadigan xizmatlarga, qimmatli qog'ozlar turi va sifatiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Bo'lim ishchilarining malakasi qanchalik yuqori bo'lsa, ular bajarayotgan vazifa, ishning sifati ham shunchalik yuqori bo'ladi.

---

---

## **14- BOB. Moliyaviy bozor va banklarning qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalari**

Iqtisodiy adabiyotlarda «innovatsiya» so'zi bir qancha ma'noni anglatadi. Ishlab chiqarish takror ishlab chiqarish jarayonida atama kapital qo'yilma ma'nosini bildiradi. Bu pul mablag'larining takror ishlab chiqarish jarayonining kengaytirilishiga ishlatilishini anglatadi.

Investitsiyaning mulkiy tomondan qo'yilmalarga ishlatilishida — kompaniyaning korxonalar real aktivlariga yoki shaxsiy mulkka joylashtirilishi tushuniladi.

Moliyaviy faoliyat amaliyoti bo'yicha esa — kapital qiymatini saqlash yoki ko'paytirish (ijobiy miqdor keltirish maqsadida) joylashtirish uslubiga aytiladi.

Investitsiya yoki kapital qo'yilma deyilganda, umuman, iqtisodiy sub'ektni ixtiyorida bo'lgan mablag'larning (kelishi) iste'molidan voz kechib kelgusida yaxshi hayot kechirishi uchun mablag'larni ko'paytirish tushuniladi.

Investitsion faoliyatning asoiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

— kapitalning vaqtinchalik yo'qotilgan iste'mol qiymatini likvidligining qaytib kelmasligi (bo'lmasligi);

— boshlang'ich farovonlik darajasining o'sishining kutish;

— uzoq muddatga qo'yilgan kapitalning natijasi noaniqliligi;

Shunday qilib investitsion jarayon bu vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari bor bo'lgan shaxslar bilan, pul mablag'lariga talab bo'lganlar o'rtasidagi munosabatlar mexanizmidir. Tijorat banklari investitsion faoliyati — bu bankning pul mablag'larini ustav fondidagi qimmatli toshlar va boshqa ob'ektlarga joylashtirishdir.

Investitsiya maqsadiga ko'ra ikkiga bo'linadi;

1) To'g'ri investitsiyalar — bu investitsiya ob'ektini bevosita boshqarish maqsadida amalga oshiriladigan investitsiyalardir. Agar bunday investitsiyalar qimmatli-qog'ozlarga qo'yilsa

u holda korxonaning kontrol paketini sotib olish kerak. Masalan investitsiyalar mulk, ishsizlik patent va boshqalar ham bo'lishi mumkin.

2) Portfel investitsiyalari — investitsiya ob'ektining bevosita faoliyatidir.

Agar to'g'ri investitsiyalar bank faoliyatining boshqa sohada-gi ta'sirini kengaytirish maqsadida amalga oshirilsa, bank portfel investitsiyalari (qimmatli qog'ozlar portfeli) quyidagi funktsiya-larni amalga oshiradi:

— bank daromadlari boshqarilishi; agar bankning qarzlarini bo'yicha kreditlari foizi (daromadi) pasaysa, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadi ko'tarilishi mumkin:

— bank kredit portfelidan keladigan kredit xatarlarini qoplash maqsadida, ko'plab qimmatli qog'ozlarni sotib olishi yoki saqlab turishi mumkin. Bu o'z navbatida bankning kredit xatarlari pasaytirishi mumkin.

— geografik diversifikatsiyasi ta'minlashi mumkin.

— bankning soliqlarini pasaytirishi mumkin. Ba'zi qimmatli qog'ozlar soliqqa tortilmaydi yoki past foizda soliqqa tortiladi.

— bozor foiz stavkalarining o'zgarishi jarayonida bank yo'qotishlarini sug'urtalaydi.

— bank aktivlari portfelining o'zgaruvchanligini ta'minlashi mumkin.

— bank balansi moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilashga imkon yaratadi.

Banklarning investitsiyalariga ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkon yaratadi.

Banklarning investitsiyalariga odatda 1 yilgacha qoplash mud-datiga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarni kiritish mumkin.

Banklarning investitsion operatsiyalarini o'tkazishdan asosiy maqsad:

— bankning daromad bazasini kengaytirish va diyersifikatsiyalash;

— bank faoliyati turlarini kengaytirish asosida hamda bank xatarlarini umumiy darajasini pasaytirish hisobiga bankning moliyaviy barqarorligini oshirish;

— bankning mijoz va mablag‘lar bizasini, xizmatlar turini, fiskal (docherniy) moliya institutlarini tashkil qilish hisobiga uni kengaytirish;

— mijozlarga bo‘lgan ta’sirni kuchaytirish (qimmatli qog‘ozlar portfelini sotib olish hisobiga).

Asosan bankning investitsiyalari deyilganda bank tomonidan kapital xususiyatiga ega bo‘lgan jihatni va qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli kreditlash yoki moliy-alashtirish tushuniladi.

Banklar tomonidan quyidagi faoliyat amalga oshirilishi mumkin:

1. Brokerlik faoliyati.

2. Dilerlik faoliyati.

3. Depozit faoliyati.

4. Qimmatli qog‘ozlar bilan mablag‘larga (qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq bo‘lgan) o‘tkazish bilan bog‘liq hisob-kliring faoliyati.

5. Aksionerlar reestrini olib borish va saqlash faoliyati.

6. Qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil etish faoliyati.

Shunday qilib qimmatli qog‘ozlar bozorida banklar shu bozorning professional qatnashchilari investitsion instituti sifatida ishtirok etadilar.

O‘zbekiston Respublikasi banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan umumiy lisenziya asosida qimmatli qog‘ozlar bank operatsiyalarini amalga oshirishlari mumkin.

Banklar quyidagi shartlar bajarilgan holda qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilmalarni amalga oshirishlari mumkin:

a) bankning bir korxonaga ustav kapitaliga, shuningdek ushbu korxonaning boshqa qimmatli qog‘ozlariga qo‘yilmasining miqdori I- darajali bank regulyativ kapitalining 15 % dan oshmasligi kerak.

b) bankning barcha elementlari ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog‘ozlariga qilgan investitsiyalari miqdori I- darajali bank regulyativ kapitalning 15 %idan oshmasligi kerak.

v) oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatli-qog‘ozlariga qilingan bank qo‘yilmasi miqdori I-darajali bank regulyativ kapitalining 25 %idan olinishi kerak.



Bank iste'mol korxonasi (moliyaviy institutlar miqdori) ustav kapitaliga 20 %dan ortig'iga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita egalik qilishi mumkin emas.

Umaman olganda banklarning foyda operatsiyalariga quyidagilar kirishi mumkin:

1. qimmatli qog'ozlarga asosan kreditlar (lombard).

2. qimmatli qog'ozlarni o'z portfeli uchun sotib olish (investitsiya).

3. yangi chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni birlamchi taqsimlash (jamlashtirish);

4. Mijozning topshirig'iga ko'ra qimmatli qog'ozlarni sotib olish va saqlash (qimmatli qog'ozlar ikkilamchi muomalasiga xizmat ko'rsatish).

(G'aznachi vekselarining sotish bahosi).

$$D = \frac{M}{360} \times R, \quad p k 160 - D$$

M- vekselni sotib olish vaqtincha qo'shimcha qolgan kunlar soni.

R - Diskont foizi (%)

D- 100g' sotib olish mumkin veksel.

R- vekselni sotib olish bahosi.

M: 147 kundan so'ng muddati tugaydigan g'aznachi vekselining (7,75% diskontli) bahosini aniqlang.

$$D = \frac{174}{360} \times 1.0775 = 3.16\%$$

Rk 100-3,16k96,84 doll.

Qarzdor Sk100 mm, t k3 oy (90 kunga), % -ining 720% yillik kredit bo'lsa. % stavkasi bo'yicha qaytarilgan summasi:

$$S_1 \frac{S_{xxil}}{360 \times 100} = \frac{100000000 \times 90 \times 220}{360 \times 100} \quad 55000000$$

Agar kredit veksel yordamida berilsa u holda mijoz

Sk100 mln.

tk3 oy (90 kun)

i2k 140% yillik

% massasi S1-S2k550-350k200.

Bank brokerlik operatsiyasi

a) Banklar o'z mijozlari topshirig'iga ko'ra komission operatsiyalarni amalga oshirishi, masalan (o'zlari nomidan mijoz hisobidan qimmatli qogozlar sotib olish operatsiyalarini amalga oshirishlari mumkin.

b) banklar amaliyotning kelishuvi asosida kimmatli kog'ozlarni chiqarishni tashkil etishi mumkin.

v) III shaxs nomidan (foydasiga) qimmatli qog'ozlarni joylashtirish kafolatini olishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar saqlash yoki ularni hisoblash olib borish huquqi depozit operatsiyalari.

4- shaki

### Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini ishlab chiqish mohiyati

1.	Bankning o'z aksiya va obligatsiyalarini chiqarish	Bankning pul mablag'larini jalb qilish	past % mablag'lar	Aksiyalar bo'yicha yuqori daromad olish ehtimoli
2.	Investor va emitent o'rtasida vositachilik	qimmatli qog'ozlar hajmini ko'paytirish hisobiga foyda olish	Sotish joylashtirish hisobiga yuqori komission daromad olish	Xarajatlarni kamaytirish Daromadlarni oshirish
3.	qimmatli qog'ozlar II sotish yoki sotib olish	tezda mukofot olish	Mijozning topshirig'ini bajarish hisobiga mukofot olish	Mijoz uchun tezda foydali ishlarni amalga oshirish
4.	Boshqa operatsiyalar	tezda mukofot olish	Mijozning topshirigini bajarish hisobiga mukofot olish	Mijoz uchun tezda foydali ishlarni amalga oshirish

O'zbekistonda iqtisodiyotni qayta qurishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bank sohasini isloh qilish bilan birgalikda, qimmatli qog'ozlar bozorini, shuningdek moliya bozorining boshqa bo'g'inlarini ham yaratishdan iboratdir. Ma'lumki, bank tizimi va

qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotning tezkorlik bilan rivojlanib boruvchi sohalari bo'lib, texnologiyada ham, tashkil etishda ham eng ilg'or tomonlarni, novatorlikni o'z ichiga qamrab oladi. Qimmatli qog'ozlar bozori va moliya bozori ob'ektlari hamda sub'ektlari o'ta qat'iy tartibga solinganligi, tizimlashtirilganligi va sertarmoqligi tufayli eng kichik o'zgarishlar, shu jumladan, me'yoriy-huquqiy bazadagi o'zgarishlar ham qimmatli qog'ozlar bozori va bank tizimi faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda o'tish davrini boshidan kechirayotgan bank tizimining o'ziga xos xususiyati, ko'pgina tijorat banklarning tarqoq xususiyatiga ega ekanligidir.

Keyinchalik, demonopolizatsiya darajasi, tarmoqlar o'rtasidagi moliyaviy aloqalar murakkablashuvi, kapitalning erkin qo'yilish jarayoni rivojlanib borishiga qarab, tijorat banklarning bu xususiyati yo'qola boradi.

O'zbekiston tijorat banklarining ushbu bozorda harakat qilish salohiyati qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa institutlarinikiga nisbatan katta. Hozirgi bosqichda bu qonuniydir. Jahon tajribasi ko'rsatishicha, iqtisodiy taraqqiyot jarayoni qimmatli qog'ozlar bozorida bankdan tashqari moliya institutlari qatnashuvi ulushining ortib borishiga olib kelmoqda, buning natijasida tijorat banklari ulushi kamayib bormoqda (qimmatli qog'ozlar bozori sub'ektlari o'rtasida raqobatchilik mavjud bo'lgan vaqtda).

Bugungi kunda XIFlar, depozitariylar, brokerlik idoralari, trast kompaniyalari, reestr egalari, hisob-kitob kliring palatalari kabi moliya institutlari qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining raqobatchilari va sheriklaridir. Ularning har biri muayyan vazifani bajaradi. Tijorat banklari esa, o'zining universalligi, kapital, axborot, malakali kadrlar to'planganligi, shuningdek, qonuniy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi tufayli, qimmatli qog'ozlar bozorida barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatishga qurbi yetadi.

„O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida“gi qonuniga muvofiq, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati mavjud umumiy bank litsenziyasi asosida amalga oshiriladi. Qo'shimcha litsenziya talab qilinmaydi. Qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisiga doir bitimlar amaldagi qonunchilikka muvofiq,

rasmiylashtirilgan egasining nomi yozilgan ishonchnomalarga asosan tuziladi.

Respublika tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari fond bozorida investorlar e'tiborini tobora ko'proq o'ziga jalb etmoqda. Bank tizimi bozor munosabatlariga eng ko'p yaqinlashtirilgan tuzilma hisoblanib, bu uning muayyan barqarorligini ta'minlaydi. Buni emitent-bank bilan omonatchining o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy bazaning mavjudligi asosida izohlash mumkin.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori shakllanishiga 1993 yili „Fond birjasida qimmatli qog'ozlar to'g'risida“ qonun qabul qilinishi bilan asos solingan edi. Dastlabki paytda tashkiliy mexanizmlar yetarlicha tanlab olinmagan, ma'muriy to'siqlar mavjud edi.

Bu sohadagi ishlarning ahvolini yaxshilash uchun 1995 yil sentyabr oyida qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanish va rivojlanish jarayonini muvofiqlashtiruvchi davlat instituti O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida qimmatli qog'ozlar va fond birjasi bo'yicha komissiyaning tuzilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1996 yil aprelida „Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida“ hamda „Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati mexanizmi to'g'risida“gi qonunlarning qabul qilinishi qimmatli qog'ozlar bozori huquqiy bazasini mustahkamladi. Bu bazani rivojlantirish O'zbekiston moliya tizimini erkinlashtirish dasturining bosh yo'nalishlaridan biridir.

Hozirgi vaqtda qimmatli qog'ozlarning quyidagi besh turi O'zbekiston fond bozorining ob'ektlari bo'lib qoldi: xususiy lashtirilgan korxonalar aksiyalari, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, davlat 12 foizli ichki zayomi, tijorat banklari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning diskont vekseellari, tijorat banklarining depozit sertifikatlari va depozit obligatsiyalari.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar aksiyalari, obligatsiyalar, depozit va jamg'arma sertifikatlari, veksellar, shunidek hosila qimmatli qog'ozlar (fyucherslar va opsiyonlar) kabi turlarini chiqarishga ruxsat beriladi. Muayyan moliyaviy vosita uning emitent uchun ham,

xaridor uchun ham qulay va foydaliligi hisobga olingan holda, tanlab olinadi. Bank qimmatli qog'ozining nobank muassasasi tomonidan chiqarilgan qog'ozdan farqi, tijorat banki faoliyatining davlat organlari tomonidan nisbatan to'liqroq tartibga solinishidan iborat. Tijorat banki o'z faoliyatida unga balans likvidligi va kapitalning yetarlilik darajasini pasaytirishga yo'l qo'ymaydigan bir qancha majburiy normativlarga amal qiladi.

O'zbekistonda tijorat banklarining emission faoliyati va ayrim turdagi qimmatli qog'ozlari muomalasi „Banklar va bank to'g'risida qonun“ „O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida qonun», shuningdek „Tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha tavsiyalar“ bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston tijorat banklari yaqin vaqtgacha o'z ustav kapitalini 2 mln. dollargacha yetkazishi lozimligi belgilanganligi tufayli, ularning qimmatli qog'ozlar yemitenti sifatida makomini oshirish, bu qog'ozlarga etarlicha yuqori reyting kafolatlanadi, deb taxmin qilishga imkon beradi.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan bog'liq faoliyat qattiq tartibga solinishi tufayli tijorat banklari uchun emissiya prospektini chiqari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi qimmatli qog'ozlar va fond birjalari bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilangan. Banklar uchun emissiya prospektlaridagi ma'lumotlar ro'yxatlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Markaziy bank bilan kelishgan holda belgilaydi.

«Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi qonunda belgilanishicha, emitent — qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi va qimmatli qog'ozlar egalari oldida ular bo'yicha o'z nomidan majburiyatga ega bo'lgan huquqiy shaxs yoki davlat organidir.

O'zbekistonda chiqariladigan aksiyalarning turi bo'yicha oddiy aksiyalar ko'pchilik qismni tashkil etadi. Imtiyozli aksiyalarni chiqarish soni ham, hajmi ham kam. Biroq ular barqaror daromad olinishini ta'minlagani tufayli, jismoniy shaxslar e'tiborini ko'proq jalb etadi. Imtiyozli aksiyalarni chiqarishdagi qiyinchiliklar ham obligatsiyalarni chiqarishga bog'liq sabablarga o'xshashdir.

Aksiyalar bozori yildan-yilga kuch to'plab boryapti va barcha tijorat banklari uning ishtirokchilari tarkibiga kirishga intilishmoqda. Aynan aksiyalar chiqarish zarur pul mablag'larini muddatsiz olishga imkon beradi, bundan tashqari, banklarda qo'shimcha daromad manbai o'z aksiyalari kursida o'ynash imkoni tug'iladi.

Qarz kapitalini jalb etuvchi ayrim vositalar (obligatsiyalar, jamg'armalar va depozit sertifikatlari) banklar tomonidan ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra sust qo'llanilmoqda. Bunday sabablarga inflyasiya, bo'sh pul mablag'larining yetishmasligi, obligatsiyalarni chiqarishni tashkil etishdagi qiyinchiliklar kiradi. Bank bir vaqtda ham aksiyalar, ham obligatsiyalarni chiqarish bilan shug'ullana olmaydi. Bundan tashqari, banklar obligatsiyalarni ustav fondining 20 foizidan oshmaydigan summada va o'zining barcha aksiyalariga to'liq haq to'langanidan keyingina chiqarishi mumkin.

Depozit va jamg'arma sertifikatlarini chiqarish nisbatan qiyin emas, ularni emissiya qilish jarayoni esa, faqat Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi.

Muntazam noto'lovlar sharoitida xo'jalik sub'ektlari ularga o'tish davrining ko'pgina qiyinchiliklaridan qutulish vositasi sifatida qaradilar. Lekin veksel muomalasi shov-shuv bosqichidan o'tib, asta sekin «so'na boshladi». Bu — birmuncha darajada veksel kreditlarining qaytarilmaganligi, ularning aniq belgilangan maqsadsiz ishlatilishi va boshqa suiiste'molliklar bilan bog'liq bo'ldi.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) yuzaga kelishi bilan tijorat banklari uchun mablag'larni qo'yish va daromad olishning qo'shimcha usuli, hukumat organlari uchun esa, davlat budjeti kamomadini moliyalashning noinflyatsiyaviy usuli paydo bo'ldi.

1997 yil martida 6 oylik davlat qimmatli qog'ozlari chiqarilib, ular bo'yicha dastlabki kimoshdi savdolari o'tkazildi. Hozirda ularning muddati 12 oylik DQMO ni tashkil qilib, shuningdek, mazkur bozorga norezidentlar kiritilgan. Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni soliqlardan ozod etish, qisqa vaqt ichida amalda yo'q joydan O'zbekistonda moliyaviy bozorning bu muhim bo'g'inini yaratishga imkon berdi.

DQMO bozorida ishlash tijorat banklariga mablag‘larning tez qaytishini ta‘minlaydi va shu tufayli undan foydalanish istagi kuchli bo‘ladi. Banklar qimmatli qog‘ozlar bozorining bu shu‘basiga boshqa nobank institutlari, masalan investitsiya fondlari kiritmaydigan qonuniy bazani to‘g‘ri deb hisoblaydilar.

**Banklar, qimmatli qog‘ozlar bozorida-investitsiya institutlari sifatida.** O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida banklarning investitsiya institutlari sifatida faol ishlashi tijorat banklari uchun faoliyatning bu turi foydali ekanligi hamda, umuman, fond bozorida raqobatchilik muhitini faollashtirishga yordam berishi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

O‘zbekiston tijorat banklari, qonunchilikka muvofiq ravishda, qimmatli qog‘ozlar bozorida brokerlik va dilerlar sifatida ishtirok etmoqda. Brokerlik vazifasi tobora kengayib borayotgan banklarning brokerlar idorasi tarmog‘i orqali amalga oshirilmoqda.

Agar tijorat banki vositachilik faoliyatini amalga oshirsa, uning operatsiyalari O‘zbekiston qonunchiligida ko‘zda tutilganidek, fond birjasi orqali o‘tishi kerak.

Xususiylashtirish investitsiya fondlari (XIF) dasturi qimmatli qog‘ozlar bozorida, shunidek, umuman moliya bozorlaridagi vaziyatni juda o‘zgartirib yuboradi. Bir tomondan, yangi investitsiya institutlarining ta‘siri kuchaydi, qimmatli qog‘ozlar bozori infrato‘zilmasi kengaydi, ikkinchi tomondan esa, tijorat banklari XIFning aksiyalarni tarqatish bo‘yicha xizmat ko‘rsatib, qimmatli qog‘ozlar bozorida o‘z ishtirokini kengaytirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki aholi o‘rtasida XIF aksiyalarining asosiy tarqatuvchisi bo‘lib qoldi. Turon bank ham bunga faol qo‘shildi. Shubha yo‘qki, boshqa tijorat banklar ham XIF dasturida qatnashish istagini bildirib, qimmatli qog‘ozlar bozorining bugingi jarayonda o‘z o‘rinlarini egalaydilir va shu bilan universallashtirishga bo‘lgan yo‘nalishlarini tasdiqlaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, tijorat banklari trast operatsiyalari bilan shug‘ulanishga haqlidir. Qimmatli qog‘ozlar bozorining shaklanishi va xususiylashtirish jarayonlarning kengayish darajasiga qarab, bunday operatsiyalar ularning amaliyotida katta o‘rin tutishi mumkin. Avvalambor, bu — banklar

tomonidan jismoniy va huquqiy shaxslar uchun vakillik xizmatlari ko'rsatilishiga taaluqlidir, lekin ta'minotni yaxshilab ishlab chiqish talab qilinadi.

Tijorat banklari tomonidan trast operatsiyalarini amalga oshirish bir qancha jihatdan foydalidir. Birinchidan, ularning yordamida tijorat banklari uzoq muddatli moliya resurslar qimmatli qog'ozlarga yig'ilishi va birjadagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin. Ikkinchidan, bank qimmatli qog'ozlarni boshqarishdan vositachilik haqi undirib, bu qog'ozlardan keladigan daromaddan ulush oladi. Uchinchidan, bank o'zining emas, boshqalarning kapitali bilan operatsiyalarni bajaradi, faqat trast shartnomasi doirasidagina ular uchun javobgar bo'ladi, asosiy tavakkalchilik esa qimmatli qog'ozlar egasiga tegishli bo'ladi.

Bugungi O'zbekiston tijorat banklari o'z pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarini ularga ishonishga tayyor mijozlarni faol izlamoqdalar. Bunda banklar qimmatli qog'ozlar bozorining foydali deb hisoblangan bugunida ishlab, mijozlarga daromad olish, ishonib topshirilgan mablag'larni qaytarish va ulardan foydalanish muddatlari to'g'risida butun hisobotni taqdim etish majburiyatini o'z zimmlariga olmoqdalar. Trast operatsiyalari, bank mutaxassislari fikri bo'yicha, kelgusida qimmatli qog'ozlar bozorining butun jabhasini egallaydi.

Hozircha trast operatsiyalari O'zbekiston tijorat banklari o'rtasida keng rivojlangan deb bo'lmaydi. O'zbekistonda bu operatsiyalarning vaqtincha cheklanganligi bu turdagi operatsiyalarning, shunindек, moliya bozorining o'zi yetarlicha ishlab chiqilmaganligi bilan bog'liqdir.

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi tadbirkorlik faoliyati turlaridan biri, qimmatli qog'ozlarning hisobini yuritish va ularni saqlash bilan bog'liq bo'lgan va depozitar deb atalgan faoliyatdir. O'zbekiston tijorat banklari uni umumiy bank litsenziyasi asosida yuritish huquqiga egadirlar. Depozitariylar qimmatli qog'ozlarni naqd va naqdsiz shakllarda saqlashi mumkin. Banklar ob'ektiv ravishda depozitar vazifalarni amalga oshirishga ko'proq moslashgan bo'lib, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi, uning qatnashchilari soni oshib borishi bilan depozitariylarga bo'lgan



talab ham o‘sib boradi. Bugun esa, tijorat banklarining depozitar funksiyasi amalda ishga tushirilmagan. Bu vazifani asosan «Vaqt» Milliy depozitariysi amalga oshirmoqda, bu sohada u yakka hukmron bo‘lib qoldi.

Banklararo elektron to‘lovlar tizimini joriy etish bu vazifalarni ta‘minlashda dastlabki qadam bo‘ldi. Fond bozori qatnashchilari o‘zaro hisob-kitoblarini faqat kompyuter telekommunikatsiya aloqa tizimi asosidagina tezlashtirishlari mumkin. Shu tufayli kommunikatsiya tizimini yaratish banklar uchun nihoyatda dolzrab vazifadir.

O‘zining texnik jihatdan jihozlanishini faol yaxshilab borayotgan tijorat banklari, bu operatsiyalarni muvaffiqiyatli amalga oshirishlari mumkin.

**Kafolatli operatsiyalar.** Banklar investitsiya kompaniyalar rovida chiqib, uchinchi shaxslar foydasiga qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bo‘yicha kafolatlar berishi mumkin. Bu qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan shug‘ulanuvchi investitsiya kompaniyalari yoki emissiya konsorsiumlari (sindikatlari) ning tavakkalchiligini o‘ziga xos sug‘urtalashdir. Banklar qimmatli qog‘ozlarni joylashtirayotgan emissiya kompaniyalari (shu jumladan, boshqa banklarga) agar zayom yoki aksiyalar joylashtirmasa, ularni kelishilgan kurs bo‘yicha o‘zlari qabul qilishga kafolat beradilar. Bordi-yu, zayom yoki aksiyalar joylashtirilmasa, banklar o‘z tavakkalchiligi uchun haq va mukofot oladilar.

Bevosita emissiya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan kafolat operatsiyalari, bir bank yoki banklar tomonidan tuziladigan muvaqqat birlashmalar (konsorsium yoki sindikatlar) tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Bugun O‘zbekistonda bank kapitali bir qismini muayyan sug‘urta kompaniyasida joylashtirish amaliyoti mavjud. Bu banklarning tavakkalchiligini, shu jumladan, qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardagi tavakkalchiligini kamaytiradi.

Tijorat banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi maslahat xizmatlari. Rivojlangan mamlakatlarda bu xizmat turi qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalar ichida katta o‘rinni egallaydi. Bu — bugungi kunda axborotning tutgan o‘mi va uning tijorat banklarida to‘planganligi bilan bog‘liqdir.

Bank maslahati xizmatini ko'rsatish sarmoyani u yoki bu moliya aktivlariga (aksiyalar, obligatsiyalar) joylashtirish foydalligi, korxonalar likvid resurslarini oqilona boshqarish kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bugun banklar mijozlarning ishonchini qozonish va bu bilan kelajak uchun ishlashga intilib, beg'araz maslahat xizmatlarini ko'rsatmoqda.

Yuqorida bayon etilganlarga yakun yasab, shuni qayd etish mumkinki, hozirgi kunda O'zbekiston tijorat banklari, garchi bir tekis bo'lmasa ham, qimmatli qog'ozlar bozorida deyarli barcha turdagi xizmatlarni ko'rsatmoqda: katta ulushlar emissiya va vositachilik xizmatlariga, kichik ulushlar-trast, depozitar, maslahat berish xizmatlariga to'g'ri keladi. Maslahat berish xizmatlariga tijorat banklarining e'tibori, ehtimol, tajriba ortishi, shunindek, ular o'rtasida raqobat kuchayishi bilan ortib borsa kerak.

Mamlakatning investitsion quvvati xususida gapirilar ekan, ko'p jihatdan uni milliy iqtisodiyotning oshkora-ochiqlik darajasi belgilab berishini ta'kidlash joiz. Ushbu ochiqlik darajasi tegishli ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Ularga: yalpi ichki ishlab chiqarishdagi xizmatlarni hisobga olgan holda tashqi savdo (eksport-import) salmog'i; tovarlar va xizmatlar ichki iste'molida import ulushi; ichki investitsiyalarga nisbatan tashqi investitsiyalar salmog'i kiradi.

Agar investitsiya imkoniyati iqtisodiy o'sishning eng muhim omili ekanligini nazarga oladigan bo'lsak, mustaqillik yillarida O'zbekistonning investitsiya sektorida tarkib topgan asosiy tamoyillarning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari ana shunday tahlil milliy iqtisodiyotimizga chet el kapitalining kirib kelishi miqyoslari va oqibatlarini xususidagi hozir mamlakatimiz uchun dolzarb bo'lib turgan savollarga javob olishga ham yordam beradi.

Shunday qilib, investitsiyalarning barqaror ko'paytirib borilaverishi, agar ulardan samarali foydalanadigan bo'lsa, mamlakatda uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan zaminni yaratadi.

Xulosa shuki, Respublikamiz so'nggi yillarda o'ziga chet el investitsiyalarini imkoni boricha ko'proq jalb qilishga erishishi zarur.

Buni jahon moliya bozorlaridagi g'oyat keskin raqobat sharoitida uddalashga to'g'ri keladi. Ustiga-ustak bu nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ahamiyatga ham egadir. Bu sohadagi natija O'zbekiston milliy iqtisodiyotining iqtisodiy o'sishini ta'minlash va uning peshqadam mamlakatlar rivojlanish darajasidan orqada qolishini qisqartirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Buni hisobga olib, xususiylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish, aksiyalashtirishni yanada rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlariga tezkorlik bilan muayyan tuzatishlar kiritish maqsadga muvofiqdir. Chet ellik investorlar uchun mavjud cheklashlarni olib tashlash va yo'qotish zarur. Aks holda O'zbekiston jahon ishlab chiqarishining yangi hududiy tuzilmasi doirasidan chetda qolib ketishi mumkin.

Hozirga kelib, O'zbekiston hududida chet el kompaniyalari faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga yetkazildi.

Investitsiyaviy faollik ko'p jihatdan qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishiga bog'liq. Qimmatli qog'ozlar, bank tizimi bilan birgalikda moliyaviy resurslar investitsiyalarga transformatsiya qilishning muhim mexanizmidir. Afsuski, ushbu bozor budjet taqchilligini qo'shimcha pul emissiyasiz qoplash uchun qimmatli qog'ozlarni joylashtirish yo'li bilan ko'proq davlat manfaatlariga xizmat ko'rsatmoqda. Ayni paytda Respublikada ushbu bozorni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda.

O'z faoliyatini asosan iste'molchi (buyurtmachi) mablag'lari hisobiga amalga oshiruvchi investitsiyaviy korxonalar va tashkilotlar ko'pincha og'ir moliyaviy ahvolga tushib qoladilar va yirik kreditorlik va debitorlik qarzdorligiga ega bo'ladilar

Albatta, investitsiyaviy faollikni oshirish — oson ish emas, buni birdanigina hal qilib bo'lmaydi. Ammo bu borada mavjud bo'lgan kamchiliklarni tuzatish va foydalanilmagan imkoniyatlarni jalb etish, shubhasiz xalq xo'jaligining ushbu muhim sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga yordam berar edi.

Ochiq bozor iqtisodiyotida milliy ichki ishlab chiqarishdagi jahon iqtisodiyotining rivojlanishi tarkibiy ustuvorliklariga mos kelmasligi nomonetar tarzda bilvosita inflyatsiyani vujudga

keltiradi, bu hol milliy iqtisodiyotning o‘shishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va amalda uni uzoq muddatli turg‘unlik (depressiya) holatiga duchor qiladi. Bunday hodisa fanda „aks ta’sir samarasi“ nomini olgan.

Investisiya dasturlarini ta’minlash maqsadida kredit resurslarini jamlash muammosini hal qilish uchun davlat va bank tizimining hamkorligi zarur. Hozir davlat budjet siyosati hisobiga investitsiyani ko‘paytirmoqda, bank sektori esa, aytib o‘tkanimizdek, investitsion kreditlashdagi o‘z ishtirokini qisqartirmoqda. Bunga sabab shuki, banklarning uzoq muddatli kreditlashdan manfaatdorligi yo‘q.

---

---

## **15-BOB. Davlat kreditining iqtisodiy funksiyalari va shakllari**

Pul — tovar munosabatlarinig taraqqiyoti sharoitida davlat o'zining xarajatlarini qoplash uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining bo'sh moliyaviy mablag'larini jalb qilishi mumkin.

Ularga ega bo'lish vositasi sifatida davlat krediti xizmati qilishi mumkin. Davlat krediti — davlat va ko'p sonli jismoniy va huquqiy shaxslar o'rtasidagi davlat qo'lida budget bilan bir qatorda qo'shimcha pul fondini shakllantirish munosabatlarini anglatadi. Mamlakat ichidagi kredit operatsiyalarining amalga oshirilishi paytida davlat, odatda, mablag'larni qarz (zayom) ga oluvchi hisoblanasa, aholi, korxonalar va tashkilotlar kreditorlar hisoblanadi. Biroq, davlat kreditor sifatida ham chiqishi mumkin. Bu nafaqat davlatlararo munosabatlar sohasida, balki xazina ssudalarini ishlatish orqali mamlakat moliyaviy hayotining ichida bilinadi.

Davlat krediti — bu kredit munosabatlarining bir shakli bo'lib, kreditning quyidagi belgilariga ega:

— kredit kelishuvining yuridik mustaqil sub'ektlari sifatidagi kreditor va qarz oluvchi (zayomchi) ning bo'lishi;

— aholi, korxonalar va tashkilotlarning bo'sh pul mablag'larini qaytarishlilik, muddatlilik va to'lovlilik (ma'lum bir sharoitlarda resurslarni foizsiz zayom tarzda olish mumkin) tamoyillariga asoslangan holda jamlash;

— davlat kredit operatsiyalarining mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda ishlatilishining imkoniyati mavjudligi.

Davlat krediti orqali davlat umumdavlat xarajatlarini moliyalashtirish va o'zining funksiyalarini amalga oshirish uchun qo'shimcha moliyaviy mablag'larni jalb qiladi. Davlat krediti ishlatilishining asosiy sabablaridan biri, jamiyatning o'sib boruvchi ehtiyojlari va ularni davlat budjeti daromadlari hisobiga qondirish o'rtasidagi nomutanosiblikdir. O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra

davlat budjeti, mamlakat milliy daromadining bir qismini qayta taqsimlaydi. Budget daromad qismining hajmi milliy qonunchilik bilan iqtisodiyotning umumiy holatini va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning to‘lovga qobilligini hisobga olgan holda o‘rnatilgan soliqqa tortish darajasi bilan chegaralangan. Budget taqsimoti sohasiga ayrim paytlarda yetarlicha pul mablag‘lari, ya’ni xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ixtiyoridagi va fuqarolarning shaxsiy daromadlarining kattagina qismi kelib tushmaydi. Ayni paytda, budgetning xarajatlari yuki o‘sib boradi. Iqtisodiyotning tarkibiy tiklanishi va uning boshqarilishi, hukumatning ijtimoiy siyosati, mamlakat mudofaasi va xalqaro munosabatlarda qatnashish uchun katta xarajatlar talab etiladi.

Iqtisodiy krizislar (bugungi kunda ularni rivojlanayotgan ko‘pchilik davlatlar boshlaridan kechirmoqdalar), xo‘jalik mexanizmidagi tub o‘zgarishlar, budgetning balansiligi buzilishi davrlarida davlat chuqur moliyaviy resurslarning taqchilligini boshidan kechiradi. Davlat krediti mazkur moliyaviy resurslarni topishning asosiy vositasiga aylanadi. Iqtisodiy o‘shish davrlarida, aksincha, davlat kreditiga ehtiyoj kamayadi va uning amal qilish sohasi torayadi.

Davlat krediti mamlakat Yalpi Ichki Mahsuloti (YaIM) va Milliy Daromadi (MD) bir qismining qiymatini ikkilamchi taqsimoti munosabatlarini anglatadi. Uning amal qilish sohasiga qiymatning birlamchi taqsimoti bosqichida shakllantirilgan daromadlar va fondlarning bir qismi kiradi. Davlat krediti orqali iste’mol fondlariga yo‘naltiriladigan mablag‘lar qayta taqsimlanadi. Odatda, ular aholi, korxonalar va tashkilotlarning joriy iste’molga mo‘ljallanmagan vaqtincha bo‘sh pul mablag‘lari hisoblanadi. Biroq, ma’lum bir iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarda aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ixtiyoriy ravishda iste’mollarini cheklaydilar va shu sababli davlat krediti sohasiga joriy ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mablag‘lar kirib keladi (tarixdan ma’lumki, iste’molni cheklashlar davlatning bosimi orqali ham amalga oshirilgan - davlat zayomlariga obuna bo‘yicha egalik qilish bunga misol bo‘la oladi).

Davlat krediti munosabatlari orqali qo‘shimcha moliyaviy resurslarni shakllantirish (qiymatning maxsus harakat shakli, ya’ni ssuda fondi sifatidagi) davlat krediti mohiyatining faqatgina bir tarafini ko‘rsatadi. Davlat krediti mohiyatining ikkinchi tomoni sifatida, davlat krediti orqali jalb kilingan resurslarni qaytarishlilik va to‘lovlilik tamoyillari asosidagi munosabatlar namayon bo‘ldi. Davlat mablag‘larni qaytib kelishini va kreditorlarga foiz ko‘rinishida belgilangan daromad olishni o‘z kafolati ostiga oladi. Davlat kreditorlarga, ularga foiz bilan qaytadigan mablag‘larini yangi zayomlar chiqarish yoki soliqlar yig‘ish orqali to‘lash bilan qoplaydi. Mablag‘larni qaytarish va daromad to‘lash bo‘yicha munosabatlar ham qayta taqsimlanish xarakteriga ega. Davlat kredit munosabatlari va soliq munosabatlari bir-birining o‘mini almashtirmaydi, balki ular mustaqil moliya instrumentlari hisoblanishadi.

Davlat krediti — bu davlat tomonidan budjet xarajatlarini va boshqa hukumat dasturlarini moliyalashtirish uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir.

Kreditorlar bo‘lib, o‘zining organlari (Moliya Vazirligi, mahalliy boshqaruv organlari) orqali davlat qarz oluvchi (zayomchi) bo‘lib, jismoniy va huquqiy shaxslar, hisoblanadi. Qarz oluvchi (zayomchi) uchun mazkur kredit shakli pul mablag‘larni budjet taqchilligini qoplash uchun jalb qilish noinflyatsion usuli hisoblanib, u na qog‘oz pul emissiyasi (inflyatsion usul), na noinflyatsion usul bo‘lgan ochiq bozorlarda operatsiyalarga asoslangan pul - qredit muomalasi, va na moliya bozorlarini shakllantirish usullarini yurg‘izmasdan budjet taqchilligini qoplash usulidir. Inflyatsiyaning yuqori darajasi sharoitlarida aholidan olinadigan davlat zayomlari, vaqtincha aholining to‘lovga qobil talabini qisqartiradi. Muomaladan ortiqcha pul massasi chiqarib olinadi, ya’ni oldindan belgilangan davrlargacha pul muomalasidan mablag‘lar chiqarilishi ko‘zatiladi. Biroq, davlat qarzining juda ham kattalashib ketishi, o‘zi bilan davlat tomonidan zayomlar chiqarish va ular evaziga jalb qilingan mablag‘larni ishlatish yuzasidan olingan daromadlar majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlarga

nisbatan kam bo'lishi mumkin. Bu esa davlatning moliyasiga juda ham yomon ta'sir qiladi.

Bank kreditlashining uzoq tarixga ega amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, kafolat va kafillik kreditlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni minimallashtirishning eng maqbul yo'lidir. Buni shunday tushunish mumkinki, qarzdor tomonidan o'z majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida boshqa shaxslarning o'z mulki bilan garov sifatida qo'yilgan kreditor oldidagi majburiyati tushuniladi.

Bunday shart xalqaro miqiyosdagi davlat krediti amaliyotida ham qo'llaniladi. Uchinchi shaxs uchun davlat kafolatini olgan (davlat yoki alohida korxon), umuman olganda yana bir, faqatgina to'lovga qobil yordamchi qarzdorga ega bo'ladi.

Bunday sharoitda kafolatchi majburiyatlarining asosiy shartlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- kim uchun berilganligi haqidagi ko'rsatma;
- kafolatchining majburiyatlari chegarasi, ya'ni kafolat berilgan summa;
- amal qilish muddati.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat krediti orqali davlat budjeti taqchilligini qoplash, monetar usullarga nisbatan oqilona va samaradordir.

Davlat krediti kredit munosabatlarining mustaqil shakli sifatida bank kreditidan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

- *Davlatning kreditga ehtiyoji.*

Davlatning kreditga ehtiyoji moliyaviy nobarqarorliklar davrida, muomaladagi pul massasi va tovar resurslari o'rtasidagi uzilishlarni tartibga solish zaruriyati tug'ilganda kelib chiqadi. Davlat krediti eng avvalo budjet taqchilligini qoplashga yo'naltiriladi. Bank kreditiga ehtiyoj ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonidagi qiymat harakatining notekisligi uchun kelib chiqadi. Bank krediti xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mablag'lari aylanishiga kiritiladi va kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayoning uzilishsiz davom etishi va uning samaradorligini oshishiga hamda ishlab chiqarish jamoalarining ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bank



kreditini qonunchilik bilan belgilangan maqsadlar uchun xususiy shaxslar ham olishi mumkin.

— *Kelishuv shartlari.*

Bank krediti kelishuvining sharti bo‘lib, kreditor va qarz oluvchi (zayomchi) ning bir-biriga mos kelgan iqtisodiy manfaatlari hisoblansa, davlat kreditida qatnashuvilarning iqtisodiy manfaatlari bir-biriga har doim ham mos kelavermaydi, shuning uchun kreditorlarning zayomchiga pul mablag‘larini foydalanishga ixtiyoriy berishi uchun iqtisodiy manfaatlarini jalb qilish chora-tadbirlari ko‘rilishi kerak. Buning uchun davlat kreditorlarga oldindan belgilangan daromadlarni to‘lash majburiyatini oladi. Qarz oluvchi (zayomchi)ning xo‘jalik va tijorat faoliyatiga ta‘sir qiluvchi mexanizm bo‘lgan bank krediti uchun foizdan farqli, davlat kreditida kreditorlarga daromad to‘lash bir - biriga doim ham mos kelmaydigan kreditorlar va qarz oluvchilarning iqtisodiy manfaatlari birlashtiruvchi kuch bo‘ladi.

— *qo‘llanilish maqsadi.*

Bank krediti qo‘llanilish maqsadi aniq belgilangan bo‘ladi, ya‘ni eng avvalo ishlab chiqarish jarayoni tovar moddiy elementlarining harakati va tovarlar sotilishi o‘rtasidagi pul aylanishining o‘z vaqtidaligini ta‘minlash hisoblanadi. Davlat krediti mamlakat miqiyosida qo‘llanilib, tovar va notovar maqsadlar to‘lovlari uchun qo‘llaniladi. Davlat krediti orqali jalb qilingan resurslar, davlat tomonidan favqulodda xarajatlarni moliyalashtirish va joriy xalq xo‘jaligi ehtiyojlariga mos ravishda saflanadi.

— *Ssudani qaytarish muddati.*

Bank kreditlashida ssudani qaytarish muddati aniq ko‘rsatilib o‘tiladi. Ssudaning o‘z vaqtida qaytarilmasligi iqtisodiy jarimalar, kredit bo‘yicha foizning o‘shishiga olib kelishi mumkin. Davlat kreditida bunday reglamentatsiya mavjud emas. Qatnashuvchilar o‘rtasida munosabatlar ixtiyoriylik asosida ko‘riladi.

— *Pul massasini ko‘paytirish yoki kamaytirish layoqatining mavjudligi.*

Bank krediti yordami bilan pullar paydo qilinadi va chuqur o‘ylanmagan kredit siyosatida bank krediti pul massasining ortiqchaligini keltirib chiqarish omili bo‘lishi mumkin. Davlat krediti,

aksincha doimo muomaladagi pullarni qisqartirish vositasi hisoblanadi.

Davlat kreditini to'g'ri yo'naltirish iqtisodiyot uchun yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Davlat tomonidan aholi, korxonalar va tashkilotlarning vaqtincha bo'sh pul mablag'larining mobilizatsiyalashuvi mamlakatda pul muomalasining normallasuvi va mustahkamlanishiga va ayni paytda davlat qimmatli qog'ozlari egalari uchun daromadlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Kredit shakli deganda, kredit aks ettiruvchi iqtisodiy munosabatlarning tashqi ko'rinishiga aytiladi. Respublikamiz tarixida davlat kreditining *tovar* va *pul* shakllardagi ko'rinishlari keng qo'llanilgan. Ularni joylashtirishda asosiy vositachilar bo'lib ko'p hollarda jamg'arma banklari (omonat kassalari) xizmat qilgan.

Tovar shakldagi davlat krediti («non» va «qand» zayomlari) ilk bor 20 asrning boshlarida qo'llanilgan. Sobiq sovetlar Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissariatining 1929 yilning fevral oyidagi qaroriga ko'ra omonat kassalarining 3 - Nizomi qabul qilindi. Nizomga ko'ra, omonat kassalari tomonidan aholining bo'sh pul mablag'larini davlat zayomlariga joylashtirishga ruxsat etildi. 1930-yilda omonat kassalari tomonidan «non» va «qand» deb nomlangan zayom obligatsiyalari chiqarildi. Bunday zayomlar oltin tangalar evaziga sotilar edi. 1935 yilda Moliya Xalq Komissariatining qaroriga muvofiq bunday obligatsiyalarning muomalasi to'xtatildi. 1936 yilda davlat zayom obligatsiyalari muomalaga kiritildi. Omonat kassalari esa shu obligatsiyalarni sotish bo'yicha operatsiyalarni bajara boshladilar.

Pul shakldagi davlat krediti mamlakatimizda ilk bor sobiq sovetlar davrida 1922 yilda 10 mln. rubl miqdorida yillik 6% daromad keltiruvchi Oltin zayomlar deb ataluvchi birinchi pulli davlat obligatsiyalari va 1924 yilda mamlakat pul birligi rublning xarid qobiliyatini pulni oltin bilan ta'minlash yo'li bilan barqarorlashtirish va budjet taqchilligini yo'q qilish davrida keng tarqalgan. So'ngra industrilashtirish zayomlari chiqarilib, ular 6% yutuq va 6% kupon bilan to'lanadigan qilib belgilangan. Keyinchalik besh yilliklar zayomlari, mudofaani mustahkamlash zayomlari, harbiy zayomlar, xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirish zayomlari

chiqara boshlandi. Ularga bo'lgan obuna ixtiyoriy bo'lsa ham, ammo majburiy xarakterga ega edi.

Ikkinchi jahon urushi davrida davlat zayom obligatsiyalaridan kelib tushgan mablag'lar davlat budjeti daromadlarining 10%ni tashkil etib, urush uchun zarur bo'lgan harbiy xarajatlarni qoplashga sarf qilindi. Omonat kassalari tomonidan urushgacha muomalaga chiqarilgan zayomlarni qabul qilish to'xtatib qo'yildi. Ikkinchi jahon urushidagi g'alabadan so'ng zayom obligatsiyalarini omonat kassalari tomonidan aholidan sotib olish bo'yicha cheklovlar bekor qilindi.

1947 yilda o'tkazilgan pul islohoti davomida muomalaga davlatning yangi zayom obligatsiyalari chiqarildi. 1938 yilgacha chiqarilgan davlat obligatsiyalari yangi obligatsiyalarga 3/1 nisbatda, 1938 yilda chiqarilgan muomalada erkin aylanuvchi zayom obligatsiyalari esa 5/1 nisbatda almashtirib berildi.

Xalq xo'jaligini tiklash davrida ham aholining ortiqcha pul mablag'lari 1947 – 1956 yillarda ro'yxat bo'yicha tarqatilgan davlat qarz (zayom)lariga jalb qilindi. Sovet ittifoqi Markaziy Qo'mitasi va Ministrlar Sovetining 1957 yildagi qaroriga ko'ra, zayomlar chiqarilishi to'xtatildi, davlat qarzining muddati 20 yil qilib belgilanib, 1974 yildan boshlab qaytarilishi mo'ljallangan edi. Lekin, bir oz kechikish bilan davlat o'z qarz majburiyatlarini bajardi.

1966 yilda davlatning yutuqli zayom obligatsiyalari muomalaga chiqarildi. Aholi jamgarmalarini shu zayomlarga joylashtirish, ya'ni ularni sotish, sotib olish, ular bo'yicha yutuqlarni to'lash omonat kassalariga yuklandi. Zayomlar 20 yil muddatga chiqarilgan bo'lib, ulardan tushgan pul mablag'lari davlat budjetiga yo'naltirildi.

1966 yil muomalaga chiqarilgan zayom obligatsiyalarning muddati tugashidan bir necha yil avval, ya'ni 1982 yilda 25, 50 va 100 rubllik obligatsiyalar muomalaga chiqarildi. Omonat kassalari shu zayomlarni aholiga tarqatishda asosiy vositachi bo'ldi. 1966 yilda chiqarilgan zayom egalari, shu zayomlarni 1982 yil zayomlariga almashtirish huquqiga ega bo'ldilar. Bu zayom ham 20 yil muddatga, ya'ni 2002 yilda qaytarish sharti bilan chiqarilgan edi. Lekin, O'zbekiston 1991 yilda mustaqillikka erishgandan so'ng, o'zining — O'zbekiston Respublikasining zayomlarini 1992 yil

iyul oyida 250, 500 va 1000 rubllik qiymatida muomalaga chiqardi. Ungacha esa, 1986 yildan boshlab 3% tilla zayomlar, 1989 yilda 5% li davlat xazina majburiyatlari, 1990 yildan boshlab esa maqsadli foizsiz davlat zayom obligatsiyalari va 10% li davlat xazina majburiyatlari muomalaga chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach 1992 yildan boshlab birinchi davlat zayom obligatsiyalari va ichki yutuq zayom obligatsiyalari chiqara boshladi. O'zbekiston Respublikasi davlat ichki yutuq zayom obligatsiyalariga yiliga 12% lik ichki yutuq mo'ljallangan va 1992 yil 1 iyulidan 2012 yil 1 iyuligacha qadar muddatga chiqarilgan edi. Mazkur zayom obligatsiyalari O'zbekiston Respublikasi jamg'arma banki (hozirda O'zbekiston Respublikasi Davlat — Tijorat Xalq banki), Aksioner — tijorat Sanoat — qurilish banki va O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik — sanoat banki («Agrobank») tomonidan sotib olish va qayta sotib olish uchun mo'ljallangan edi. Zayomlar har bir razryadida 2500 mln. so'mlik bo'lgan alohida razryadlar bilan chiqarilardi. Har bir razryad 00 001 dan 50 000 tartib sonigacha belgilangan 50 000 lik seriyadan iborat. Har bir seriyadagi obligatsiya 001 dan 100 gacha bo'lgan tartib soniga ega. Zayomning obligatsiyalari 250, 500 va 1000 so'mlik mikdorda chiqariladi. 250 so'mlik obligatsiya 500 so'mlik obligatsiyaning yarmi, 1000 so'mlik obligatsiya esa, bir seriyada bo'lgan ikkita 500 so'mlik obligatsiyadan iborat. Zayom obligatsiyalarining mazkur shakli bo'yicha barcha daromadlar yutuq shaklida beriladi. Yutuqlarning umumiy hajmi 20 yillik muddatga, yiliga o'rtacha 12% li ustama foyda hisobida belgilangan. 20 yillik muddat ichida zayomlar obligatsiyasi umumiy hajmining 32% ga yutuq chiqishi, qolgan 68% zayomlar esa, zayomning muddati tugagach, yozilgan qiymati bo'yicha qayta sotib olinishi rejalashtirilgan edi. Yutuq chiqqan obligatsiyalar yo'qotilib, yutuqning kelgusi tirajlaridan chiqarilishi, zayom bo'yicha yutuqlar 500 so'mlik obligatsiyaga (obligatsiyaning yozilgan qiymatini o'z ichiga qamrab olgan holda) 250000, 100000, 50000, 10000, 5000, 2000 so'm miqdorida belgilanishi va 250 so'mlik qiymatga ega bo'lgan obligatsiyaga yutuqning yarmi berilishi belgilangan edi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

belgilangan muddatlarda 20 yil muddat davomida 80 marta yutuqlar tiraji — yiliga 4 martadan o'tkazilishi kerak edi. Yutuq chiqqan obligatsiyalar, yozilgan qiymati bo'yicha qayta sotib olinadigan obligatsiyalar bo'yicha 2014 yilning 1 iyuligacha to'lovlar talab qilishlari kerak edi. Shu muddat o'tgandan so'ng to'lovga berilmagan obligatsiyalar o'z kuchini yo'qotadi va ular bo'yicha to'lovlar berilmaydi, deb yozilgan O'zbekiston Respublikasi 12% li ichki yutuqli zayom obligatsiyalar shartlarida. Yutuqlar tirajida zayomning har bir razryadi bo'yicha yutuqlarning quyidagi soni o'ynalishi lozim edi (7- jadval):

7- jadval.

500 so'mlik obligatsiyaga yutuq hajmi (obligatsiyaning yozilgan qiymati ichida)	O'ynaladigan yutuqlar hajmi			
	Bir tirajda		Bir razryadli barcha tirajlar	
	Yutuqlar soni	Yutuqlar hajmi (so'mlarda)	Yutuqlar soni	Yutuqlar hajmi (so'mlarda)
250.000	1	250.000	80	20.000.000
100.000	5	5000.000	4000	40.000.000
25.000	50	1.250.000	4.000	1000.000.000
10.000	1.000	10.000.000	80.000	800.000.000
5.000	8.8000	44.000.000	704.000	3.520.000.000
2.000	10.119	20.238.000	809.520	1.619.040.000
Hammasi bo'lib	20.000	77.488.000	1.600.000	6.199.040.000

Obligatsiyalarni sotish O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi belgilagan narxlarda, qayta sotib olish esa yozilgan qiymati bo'yicha amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. O'zbekiston Respublikasi ichki yutuqli zayomi va ular bo'yicha yutuqlar davlat soliqlaridan ozod qilinadi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida

Respublika iqtisodiyotida yuz bergan tanglik natijasida obligatsiyalar vaqtincha «muzlatib» qo'yilgan.

1996 yilning mart oyida davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) bozori vujudga keldi, ya'ni 1996 yil 26 martida 3 oyli obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha dastlabki 10 ta aukcion o'tkazilgan. DQMO lar darhol davlat budjeti taqchilligini qoplashning muhim manbaiga aylandi. DQMO lar aukcion asosida sotiladi. Bu narsa sotuvchi (Moliya Vaziriligi)ning kreditni arzonlashtirish va sotib oluvchi (investor)larning o'zining qo'yilmalari-ning daromadini oshirishga asoslangan bir-biriga qarama-qarshi manfaatlarni muvofiq keltirishga olib keladi.

1997 yilda DQMO bozori O'zbekiston Respublikasi moliya bozori aktivlarining bozor narxi summasi strukturasi katta salmog'ga ega bo'ldi. 1997 yilning sezilarli yutuqlaridan biri bo'lib, DQMO bozori infrastukturasi rivojlanishida sifatli sakrash bo'lganini qayd etib o'tish zarur. Buning natijasida mazkur moliyaviy aktivning likvidiligi oshganligi va u bilan savdo-sotiq qilishni yanada ko'payganligini, ikkilamchi bozorlarda ko'proq savdolar amalga oshirila boshlanganligi bilan tushuntirish mumkin.

1997 yil mart oyida 6 oy muddat aylanuvchi obligatsiyalar emissiya qilindi va bu davlat qarzi o'rtacha muddatining birmuncha uzayishiga olib keldi. Umuman olganda, o'sha davrlardagi DQMO bozori rivojlanishi dinamik ko'rinishga ega edi: bir yil ichida uning hajmi (muomalada nominal qiymati bo'yicha aylanayotgan obligatsiyalarning umumiy summasi) 5 marta kattalashdi. DQMO bozori hajmi, ya'ni DQMO lar orqali rasmiylashtirilgan davlat ichki qarzlari 1997 yil oxirlariga kelib nominal bo'yicha 25,1 mrd. so'mni tashkil etdi. Bunda 6 oyli DQMO lar muomalada aylanayotgan obligatsiyalarning 68% salmog'ini tashkil etdi.

1998 yilda mazkur bozorda o'sish davom etdi. Ikkilamchi bozorda auksiyonda sotilishiga nisbatan daromadlilikning keskin pasayishi, Moliya Vazirligiga zayom olishning qiymati birmuncha tushishiga olib keldi: odatda, auksiyolarda so'ndiriladigan obligatsiyalar bo'yicha to'lovlar uchun kerakli hajmda obligatsiyalar sotilgan, qolgan qismi esa ikkilamchi bozorlarda sotilgan edi. Agar, 1997 yil uchun qo'shimcha joylashtirilgan obligatsiyalarning

salmog'i joylashtirilgan aksiyalarning umumiy hajmining 27,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 1998 yilda u 36,3% ni tashkil etdi (Rasm1).

1998 yil oxirlariga kelib DQMO obligatsiyalar bozori strukturasi o'zgardi: agarda, yil boshiga 3 oyli obligatsiyalar salmog'i 32,5% ni tashkil etgan bo'lsa, yil oxirida esa 18,1% ni tashkil etdi. 6 oyli obligatsiyalar salmog'i ham pasaydi: yil boshidagi 67,5% dan, yil oxiridagi 62,6% gacha. Buni O'zbekiston uchun yangi 9 oyli obligatsiyalar kiritilishi bilan (1998 yilda DQMO stururasi umumiy hajmining 19,3% tashkil etgan) izohlasa bo'ladi.

1999 yilda bosh vazifa bo'lib davlat qarziga xizmat ko'rsatish qiymatini kamaytirish edi. Buning uchun auksionlarda sotilmay qolgan DQMO larni ikkilamchi bozorlarda qo'shimcha joylashtirish ko'zda tutildi. 1999 yilda sotilgan obligatsiyalarning 38% ikkilamchi bozorlarda joylashtirildi.

1999 yilning mart oyida muomalaga davlat qarzini so'ndirishning o'rtacha muddatini yanada o'zaytirgan (1999 yil boshida 94 kundan, mazkur yil oxirida 116 kungacha) ilk 12 oyli DQMO lar kiritildi. Bu bir tomondan, davlat zayomlarining muddati o'zaytirilishi va uzoq muddatli obligatsiyalarning foydasiga bozor strukturasi o'zgarishiga boshqa tomondan esa DQMO ning auksionli daromadlilikini pasayishiga olib keldi.

DQMO ning auksionli daromadlilikini (o'rtacha o'lchamli baholarda) 6 oyli obligatsiyalar bo'yicha 1999 yil yanvaridagi 20,9% dan dekabrda 16,5% gacha, 9 oyli obligatsiyalar bo'yicha — mos ravishda 23,8% dan 17,5% gacha, 12 oylik obligatsiyalar bo'yicha — mart oyidagi 20% dan dekabr oyidagi 17,8 % ga tushdi.

O'zbekiston Respublikasi uchun DQMO ning chiqarila boshlangani sarmoyalar bozorida likvidli, 100% ishonchli moliya vositasi paydo bo'lganini anglatardi, chunki davlat DQMO va uning barcha aktivlar bilan qoplash bilan bog'liq o'z majburiyatlariga javobgar. Obligatsiyalarning nominal qiymati 1000 so'm qilib belgilandi, obligatsiyalar diskont bilan joylashtiriladi, sundirilishi esa nominal bo'yicha amalga oshiriladi. O'zbekistonda amal qilayotgan banklararo kredit va tijorat banklarining korxonalariga kreditlari kabi moliyaviy vositalariga xos tavakkalchilik DQMO uchun minimumga keltirilgandi. Bunda ular bo'yicha daromadlilik Markaziy

bankning qayta moliyalash stavkasiga nisbatan kam emasdi. Buning ustiga kreditorlar uchun bevosita foyda vujudga kelardi, chunki ularning DQMO bo'yicha daromadlari soliqlarga tortilmas edi. Bundan oddiy fuqarolar ham foyda ko'rishi mo'ljallangan edi, ya'ni bu obligatsiyalarni qaytarish muddatlari yangi obligatsiyalarni chiqarish muddatlaridan ko'p va chiqarish jarayoni uzluksiz davom etardi. Natijada hukumat tijorat banklari va boshqa kreditorlarning bo'sh mablag'larini jalb qilib, pul emissiyasini qo'llamagan holda budjetning joriy taqchilligini doimo mablag' bilan ta'minlab turish imkoniyatiga ega bo'ldi. Inflyatsiya darajasini ham tartibga solish imkoniyati vujudga keldi.

Bundan tashqari, DQMO yirik kreditorlar uchun mablag'larini qo'yish indikatori hisoblangan, chunki har qanday iqtisodiyotda ulardan olinadigan daromadlilik darajasi boshqa barcha moliya vositalarining daromadlilik darajasini belgilaydi.

Obligatsiyalar kuponsiz, ularni sotib olinganligi haqidagi qaydnoma DQMO bo'yicha bosh depozitariydagi (O'zbekiston Respublikasi birjasi) elektron schyotda, shuningdek bank hisob varaqlari — dilerlarda saqlanishi ko'zda tutilgan edi. 2000 yilga kelib muomalaga chiqarilgan obligatsiyalar hajmi yillik YaIM ning 4% dan ortiqroq qismini tashkil etdi. DQMO tezda davlat budjeti taqchilligini qoplashning muhim manbasiga aylandi. Bunda uzoq muddatli obligatsiyalar emissiya qilish va davlat qarzigacha xizmat qilish qiymati kamaytirish orqali davlat qarzini bosqichma — bosqich «uzaytirish» amalga oshiriladi. DQMO institutini amaliyotga kiritilishi tijorat banklar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun muqobil va xatarsiz mablag'larni joylashtirish va Moliya Vazirligi tomonidan davlat budjeti taqchilligini noemission moliyalashtirish usuli sifatida qo'llanilgan hamda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul — kredit siyosati doirasida kerakli operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati bilan ta'minladi.

Obligatsiyalar chiqarish parametrlarini (hajmi, auktsionni o'tkazish muddati, muomalada bo'lish muddati) Moliya Vazirligi, o'zining DQMO chiqarilishlariga xizmat ko'rsatish va muomalalarini ta'minlovchi asosiy agenti hisoblangan Markaziy bank bilan birga kelishgan holda belgilaydilar. Markaziy bank banklar va



DQMO bozori o'rtasida dilerlik xizmatini amalga oshiradi. DQMO bozorida Markaziy bankning dilerlik funksiyasini bajarish to'g'risidagi kelishuvni tuzish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar quyidagi talablarga javob berishlari zarur:

— Tijorat banklari — 1250000 AQSH dollari miqdorida o'zining mablag'lari (kapitalga) va xususiy banklarga esa — kamida 300000 AQSh dollari miqdorida (ariza topshirilgan o'ning 1 kunidagi kursi bo'yicha so'm ekvivalentida) o'zining mablag'lari (kapitalga) ega bo'lishi kerak;

— Bank hisoblanmaydigan tashkilotlar uchun esa — kamida 100000 AQSH dollari miqdorida (ariza topshirilgan o'ning 1 kunidagi kursi bo'yicha so'm ekvivalentida) o'zining mablag'lari (kapitalga) ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblangan yuridik shaxslar DQMO ga investitsiyalar kiritishi mumkin.

DQMO bozori o'z faoliyatini boshlagan davrlardan beri uning faol qatnashuvchilari bo'lib tijorat banklar hamda xorijiy kapital kiritilishi bilan tuzilgan korxonalar, sug'urta kompaniyalar, xususiylashtirish investitsion fondlari va boshqa kompaniyalar hisoblanadi. Investorlarni DQMO ga qiziqtirish maqsadida hukumat tomonidan ma'lum bir imtiyozlar berilgan (Masalan, ba'zi nodavlat qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlarga 15% li soliq stavkasi hisoblansa, DQMO dan kelib tushadigan daromadlar esa soliqlardan ozod qilinishi imtiyozlari berilgan).

DQMO bozorining butun faoliyati davomida emitent, ya'ni Moliya Vazirligi tomonidan daromadlilikni pasaytirish siyosati olib borildi. Agarda birinchi muomalaga chiqarilgan DQMO lar daromadlilikligi 61,63% ni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilning avgust oyida beshinchi muomalaga chiqarilgan DQMO larning kimoshdi savdosidagi daromadlilikligi yillik hisoblashda 34,7% ni tashkil etdi. 1999 yil yakunlariga ko'ra, DQMO lar hisobidan taqchillikni moliyalashtirish hajmi 11,75 mlrd. so'mni yoki YaIM ning 0,6% miqdorini tashkil etdi. Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 31 dekabrda 554 — sonli Qaroriga binoan 2000 yili davlat budjeti taqchilligining YaIM ning 0,7% hajmida DQMO lar hisobidan moliyalashtirish ko'zda tutilgandi. 2001 yilda davlat budjeti

taqchilligini YaIM ning 1% miqdoridagi hajmi davlat mulkini xususiylashtirishdan tushadigan mablag'lar, davlat maqsadli pul fondlarining 2001 yil 1 yanvar holatidagi bo'sh pul qoldiqlari hamda DQMO larni joylashtirish hisobiga moliyalashtirish rejalashtirildi. Biroq, oxirgi emissiyalar bo'yicha DQMO lar daromadlilik darajasining tushib ketishi, rasmiy inflyatsiya darajasidan real inflyatsiya darajasining ancha yuqoriligi va tijorat banklari kredit resurslarining nobarqarorligi, emissiya qilingan qarzdorlik majburiyatlarining joylashtirilmay qolishiga sabab bo'ldi.

2000 yil davomida muomaladagi DQMO lar hajmi 30% ga qisqardi. Buning asosiy sababi bo'lib, Moliya Vazirligining DQMO orqali rasmiylashtirilgan davlat qarzini kamaytirishga qaratilgan faoliyati bo'ldi. Muomaladagi obligatsiyalar hajmi yilning ikkinchi yarim yilligida sezilarli darajada kamaydi. Aukcionlarda obligatsiyalar bilan savdo qilishning kamaytirilishi bilan bir qatorda, Moliya Vazirligi faol ravishda obligatsiyalarni ikkilamchi bozorlarda qayta sotib olishni boshladi: bir yil ichiga o'tgan to'rt yil davomida qayta sotib olingan obligatsiyalar darajasiga nisbatan ko'proq hajmda amalga oshirildi. Natijada, 2001 yil boshiga kelib bozor hajmi 1999 yilda mavjud bo'lgan holatiga tushdi.

2001 yilda DQMO bozori o'nglana boshladi. Birinchi yarim yil mobaynida muomaladagi obligatsiyalar hajmi 8,8% ga usdi. Moliya Vazirligi ikkilamchi bozorda obligatsiyalarni (ularning daromadlilikining o'sishiga yo'l qo'ymasdan) qo'shimcha joylashtirish siyosatini faol ravishda amalga oshirib keldi. Birinchi yarim yillik mobaynida ikkilamchi bozorda joylashtirilgan barcha obligatsiyalarning 51% sotildi. Obligatsiyalar bozoriga faol ravishda ko'p sonli nobank muassasalari jalb qilindi: 2001 yil 1 iyuli holatiga ko'ra nobank muassasalarning salmog'i o'sha yilning boshlaridagi 31,5% ga qarshi 41,3% ni tashkil etdi.

Qarzning muddatini uzaytirish siyosatini davom ettirilib DQMO dan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 10 yanvaridagi Qarori bilan amal qilish muddati 1 yildan 5 yilgacha bo'lgan DO'MXM (davlat o'rta muddatli xazina majburiyatlari) larni muomalaga chiqarish belgilandi. DO'MXM larni emissiya qilish oldindan belgilangan yoki o'zgarib turuvchi foizli daro-

madli ko‘rinishlarida alohida chiqariladi. Ularni joylashtirishdan kelib tushgan mablag‘lar Respublika budjetiga yo‘naltiriladi. DO‘MXM larni joylashtirish va sundirish vazifalarini Moliya Vazirligi nomidan va budjet mablag‘lari hisobidan Markaziy bank amalga oshiradi.

Xozirgi kunda O‘zbekiston DQMO bozori 36 mlrd so‘m (34,8 mln. AQSH dollari) ni tashkil etadi va 6, 9 va 12 oyli vositalardan iborat. DO‘MXM bozori hajmi 2004 yil boshidan beri 7 mlrd. sum (6,78 mln. AQSH dollari) gacha o‘tdi.

Demak, hozirgi kunda obligatsiyalar bozorida Evroobligatsiyalar va mahalliy (munitsipal) obligatsiyalar mavjud emas. Muomalada aylanayotgan zayomlarning ichki bozori umumiy hajmi 77 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Ulardan, korporativ qarzlarga to‘g‘ri keladigan ulushi 34 mln. AQSH dollari (46% atrofi)ni tashkil etsa, davlat qarzlari bozoriga to‘g‘ri keladigan ulushi esa 42 mln. AQSH dollari (54% atrofi) ni tashkil etadi.

2002 yil 1 yanvarida 2000 yil 1 yanvariga nisbatan AQSH dollarining rasmiy kursi 5 marta o‘tdi. Bu banklar va ularning mijozlarini ma‘lum bir xorijiy valyutani sotib olishga bo‘lgan ehtiyojini ustirdi. Bu esa, investorlarning o‘z kapitallarini DQMO bozoridan olib chiqib ketishni boshlashlariga sabab bo‘ldi. Buning asosiy sababi bo‘lib DQMO larning yuridik shaxslarni kreditlash foizlariga va banklararo kreditlar stavkasiga nisbatan foizning pastligi bilan izohlasa bo‘ladi. 2000 yil avgust oyidan boshlab DQMO ning aukcion daromadliligi quyidagi stavkalar bilan chegaralangan: 6 oyli obligatsiyalar bo‘yicha — 17,11%, 9 oyli obligatsiyalar bo‘yicha 18,01%, 12 oyli obligatsiyalar bo‘yicha — 19,01%. 2001 yilda barcha chiqarilgan obligatsiyalarning daromadliligi o‘rtacha miqdori 17,18% ni tashkil etdi.

Shu bilan birga banklararo kredit resurslari bozorida 2001 yilda yillik foiz stavka 22 dan 27,5% gacha tebranib turgan. Bunda yuridik shaxslarga beriladigan kredit bo‘yicha sitavka 27—28% chegarasida tebranib turdi. Kredit faoliyatidan kelgan sof foyda (daromad solig‘ini ayirish natijasida — 26%) 20—21% ni tashkil etdi. 2002 yilda Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasining kattalashtirilishi banklararo kreditlar bo‘yicha stavkalar 26%

dan(3 oygacha) 32% gacha (6 oygacha) farq qilib turadi. Kredit faoliyati bo'yicha kelgan sof foyda 20—24,3 % ni tashkil etadi. Bu esa DQMO larga nisbatan moliya bozorining boshqa vositalariga investorlarning qiziqishi ortiqligi anglatadi. Yana bir sabab shuki, banklar DQMOga investitsiyalar kiritishdan ko'ra, depozitlarga fuqarolarning va turli xo'jalik sub'ektlarining mablag'larini jalb qilishga amal qilishmoqda. Banklar tomonidan jalb qilinadigan resurslarning bahosi oshishi buning asosiy sababi hisoblanadi. Muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari 2000 yilda 24—35% ni tashkil etgan bo'lsa, 2001 yilda 25—0% ni tashkil etdi. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, banklar DQMOlardan oladigan daromadlari jalb qilinadigan resurslar bo'yicha xarajatlarni qoplashga yetmaydi. DQMOlarning afzalligiga ta'sir qilgan yana bir sabab, bu nodavlat qimmatli qog'ozlarning diversifikatsiyasi va ularning afzalligi usishidir. Masalan, 2001 yilda tijorat banklar umumiy summada 7,2 mlrd. sum miqdorida 2001 yilda o'rtacha daromadliligi 20,9% (DQMOlarning o'rtacha foiz stavkasidan bir necha punkt yuqori hisoblangan) ni depozit sertifikatlarini emissiya qilish orqali resurslarni jalb qildi. Bank tomonidan emissiya qilingan depozit sertifikatlarining xaridorlari, asosan bank mijozlari hisoblanadi. Mazkur holatda, banklar boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlariga nisbatan ko'proq o'zlarining qimmatli qog'ozlarini sotishga moyildirlar (8- jadval).

8- jadval

Aukcionlarda DQMO obligatsiyalar daromadliligi		
Muddati	2001 yil	2002 yil 1 yarmi
6 oyli obligatsiyalar	17,11%	17,11%
9 oyli obligatsiyalar	18,01%	18,01%
12 oyli obligatsiyalar	19,01%	19,01%
Ikkilamchi bozorlarda DQMOlarning daromadliligi		
Muddati	2001 yil	2002 yil 1 yarmi

Auksionlarda DQMO obligatsiyalar daromadliligi		
Muddati	2001 yil	2002 yil 1 yarmi
6 oyli obligatsiyalar	17,11%	17,11%
9 oyli obligatsiyalar	18,01%	18,01%
12 oyli obligatsiyalar	19,01%	19,01%
Ikkilamchi bozorlarda DQMOlarning daromadliligi		
Muddati	2001 yil	2002 yil 1 yarmi
19,01%	16,84%	16,9%
9 oyli obligatsiyalar	17,69 %	17,84%
12 oyli obligatsiyalar	18,31%	18,42%
Banklararo kreditlar bo'yicha foiz stavkalari		
Muddati	2001 yil	2002 yil 1 yarmi
1 oyli	22%	26%
2 oyli	24%	28%
3 oyli	26%	30%
6 oyli	27,5%	32%
9 oyli		
12 oyli		
Depozit sertifikatlari bo'yicha foiz stavkalari		
Muddati	2001 yil	2002 yil 1 yarmi
1 oyli	18 %	18 %
3 oyli	20%	21 %
6 oyli	22%	24 %

9 oyli	24%	26 %
12 oyli	27 %	28%
Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi		

Hozirgi kunda DQMO lar yiliga 18 – 19% miqdorida daromad keltiradi.

Bugungi kunda eng katta muammo bo‘lib, investorlarning ham davlat, ham korporativ obligatsiyalar bozorlariga bo‘lgan ishonsizligi hisoblanadi. Bu muammoni bir necha punktlarga ajratish mumkin. Birinchi muammo — tijorat banklar (obligatsiyalar bozorida asosiy investorlar bo‘lgan) an’anaviy kreditlarga muqobil aktivlarga o‘z mablag‘larini kiritishga unchalik ham manfaatdor emaslar. O‘zbekistonda sinditsiyalashgan kreditlash va yaxshi tashkil etilgan banklararo kredit bozorlari mavjud emasligi sharoitida, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki passiv operatsiyalarni amalga oshiradi (ularga faqat davlat korxonalarini kreditlash maqsadida kreditlar beriladi). Zayomlar bozori rivojlanishiga yomon ta’sir etuvchi omil — bu emitentlarning faoliyatlarini haqida axborotlarning, bozor qatnashchilari haqida tahlillarning (anderrayterlar, investitsion konsultantlarning va hokazo) kamligi va ko‘plarining reytinglari mavjud emasligidir. Bunda, xorijiy kapital bilan qo‘shma korxonalar sifatida tashkil topgan emitentlarning bir yilda bir marta moliyaviy hisobotlarni taqdim etishlari ham investorlarni qoniqtirmaydi. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, obligatsiyalarning ikkilamchi bozori ham yuqori hajmdagi operatsiyalarga ega emas. Obligatsiyalar bilan savdo-sotiq qilishning asosiy qarorgohi bo‘lib «Toshkent» Respublika Fond Birjasi bo‘lib qolmoqda (2004 yil avgust ma’lumotlariga ko‘ra, «Toshkent» Respublika Fond Birjasida obligatsiyalar bo‘yicha oxirgi operatsiya 2004 yilning fevral oyida amalga oshirilgan).

Ikkinchi muammo — zayomlarni olishni ustirishning fundamental asoslarining mavjud emasligidir. Ko‘plab korxonalar o‘z faolyait sohalariqni kengaytirishga harakat qilgilari kelmayapti,

shuning uchun ularda moliyalashtirishning katta hajmlariga ehtiyoj ham yo‘q. Bu narsa hozircha ko‘pchilik yirik korxonalarining davlat korxonalari bo‘lganligi bilan va xususiy kapital birinchi o‘rinlarga ko‘tarilguncha qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi ham to‘xtab qolishi ham mumkin. Bunga qarshi yo‘naltirilgan yaxshi vosita bo‘lib, 2003 yilda davlat korxonalarini butunlay xususiylashtirish haqidagi qarorning chiqarilishini qayd etib o‘tish lozim. Avvallari, barcha xususiylashtirilgan korxonalar ustav kapitalining 25% davlat qo‘lida qolgan edi. Korxonalarni xususiylashtirishdan kelgan pullar ham budjet taqchilligini qoplashning yana bir vositasi ekanligi ham ta‘kidlab o‘tish joiz, chunki, oxirgi ikki yil davomida amalga oshirilgan xususiylashtirish jarayoni ham moliyaviy bozorning rivojlanishiga, ham davlat uchun foyda bo‘ldi.

Shu paytgacha o‘zbek emitentlari xalqaro obligatsiyalarni chiqarishmagan edi. O‘zbekiston mustaqilligini qo‘lga kiritgan paytlardan beri hozirgacha davom etayotgan xorijdan zayom olishni chuqur o‘ylangan siyosati amalga oshirib kelinmoqda. Zayomlar jalb qilinsa ham, faqatgina maqsadli tarzda, aniq ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar yirik davlat banklari rivojlanish uchun zayomlarni to‘g‘ri qoniqtiruvchi shartlar asosida ajratmoqdalar. Bir necha respublikamiz yirik korxonalari zayom olishning tashqi bozorlariga chiqishga harakat qilishmoqda. 2003 yil dekabr oyida qabul qilingan «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» gi qonun o‘zbek emitentlarining qimmatli qog‘ozlarini qimmatli qog‘ozlar bozori bo‘yicha tartibga soluvchi davlat organi va Markaziy bank o‘rnatgan tartiblarga asosan xorijiy bozorlarda joylashtirish imkonini beradi. Bunday tartib 2004 yilda ishlab chiqarilgan bo‘lsa ham, hali ham Markaziy bank bilan bu haqda kelishuv mavjud emas. Shuning uchun xorijiy bozorlarda o‘z obligatsiyalarini joylashtirishga intilayotgan o‘zbek emitentlari hozircha ichki bozorda ishonchli va tiniq zayomchilar obrusini egallashga harakat qilmoqdalar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. И. А. Каримов. „Узбекистан по пути углубления экономических реформ“ Ташкент, Узбекистан — 1995.
2. И. А. Каримов „Не сбываясь двигатся к великой цели“ Ташкент, Узбекистан — 1993
3. Karimov I.A. „O‘zbekistan bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li“ Toshkent, O‘zbekiston-1993.
4. И.А. Каримов. „Узбекистан: национальная независимость, экономика, политика, идеология“ Ташкент, Узбекистан — 1993.
5. С.Я. Огоролчшки и В.М.Федосов. Финансово-кредитные методы повишения эффективности промышленного производства. Киев. Техника — 1990.
6. А.И.Ескина. Самофинансирование показателей и нормативы. М. Финансы и статистика. 1990.
7. Д.С.Масляков. Финансы промышленности, (учебник) М. Финансы и статистика. 1990.
8. М.В.Радионова. Финансы (учебник) М. Финансы и статистика. 1992.
9. Э.С.Стойнова. Финансовый менеджмент (учебник) Москва. изд. Перспектива 1997.
10. А.Ю.Казаков. Финансы и кредит (учебник) МП «ПИПП». 1994.
11. П. Хейне. „Экономический образ мышления“.
12. К.Р. Макконелл. „Экономикс“ Т. 1-2 М. Республика 1992. С. Л. Берю.
13. Пиндайк Рубинфелд. „Микроэкономика“ М. 1992. Н.Е. Дж. Долан, Д.Е. Лендат. „Рынок: микроэкономическая модель“ спб. Автокомп. 1992.
15. В. Чжен. „Развитие малого и частного бизнеса в Узбекистане“ Ташкент — 1995.



---

---

## MUNDARIJA

So'zboshi .....	3
Kirish .....	6
1- BOB. Kursning predmeti, metodi va vazifasi .....	8
2- BOB. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy menejmentning mohiyati va roli. Moliyaviy menejment tizimida moliyaviy hisobot.....	11
3- BOB. Moliyaviy menejment hisobi va hisobotida foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar. Pul oqimini tahlillash metodlari .....	16
4- BOB. Moliyaviy hisobotning asosiy koeffitsiyentlari .....	24
5- BOB. Moliya va moliyaviy tizimning mohiyati va vazifalari .....	29
6- BOB. Moliyaviy menejment va moliyaviy mexanizm .....	40
7- BOB. Davlat budjeti va uni boshqarish .....	47
8- BOB. Budjetni tashkil etish va budjet jarayoni .....	55
9- BOB. Korxonada moliyasini boshqarish .....	60
10- BOB. Mahalliy budjet va uning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishning ahamiyati .....	77
11- BOB. Moliyaviy nazorat va uni tashkil etish .....	103
12- BOB. Davlat moliyasini boshqarishda axborot tizimi .....	115
13- BOB. Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi .....	131
14- BOB. Moliyaviy bozor va banklarning qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalari .....	138
15- BOB. Davlat kreditining iqtisodiy funksiyalari va shakllari ..	153
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	172

Husanov G'.H.

Moliyaviy menejment: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma / **G'.H.Husanov,** M.L.Tursunxodjeyev, A.R.Bakiyev; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.  
— T.: «Voris nashriyoti» MChJ, 2006 — 176 b.

I. Tursunxodjeyev M.L. II. Bakiyev A.R.

BBK 65.290 — 93ya 73

**G'.H.HUSANOV**, M.L.TURSUNXODJAYEV,  
A.R.BAKIYEV

## **MOLIYAVIY MENEJMENT**

*Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun  
o'quv qo'llanma*

*«Voris nashriyot» MChJ  
Toshkent — 2006*

Muharrir *Muhiddin Omon*  
Kompyuterda sahifalovchi *Razzakov D*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 20.12.2006. Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Ofset bosma usulida chop etildi. Shartli bosma tabog'i 10,23.  
Bosma tabog'i 11,0. Adadi: 3000 nusxa. Buyurtma №

«Voris-nashriyot» MChJ, Toshkent, Shiroq ko'chasi, 100.  
«Sano-Standart» bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Shiroq ko'chasi, 100.